KUZ 2024 №2

Uzbekistan's club

MAGAZINE



FURQAT SIDDIQOV
JONATAN HENIK

O‘ZBEKISTON VA AQSH: O‘XSHASHLIK VA HAMKORLIK

TOP 7

IJTIMOIY MAS’ULIYATLI BIZNESLAR UCHUN OLTIN CHINOR

LOLA

BARIBIR YULDUZ BO‘LAMAN

WWW.UZBEKISTANS.CLUB

Markaziy Osiyo Qanotlari

UZBEKISTAN AIRWAYS



Uzbekistan's
MAGAZINE club

TA'SISCHI:
"Uzbekistan's club" xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti
Jurnal 2023-yil 13-oktabrda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
145215 raqam bilan ro'yxatga olingan. ISSN tartib raqami: 3060-4680.

Prodyuserlar: **MUXLISA AZIZOVA, OYBEK ABDUSHUKUROV, NIKITA MAKARENKO**
G'oya muallifi va badiiy rahbar: **MUXLISA AZIZOVA**
Bosh muharrir: **TINA IMAMJAN**
Art-direktor: **RUSTAM MELIEV**
Muharrir: **SAIDAZIZ A'ZAMOV**
Fotograf va dizayner: **RUSTAM MELIEV**
Ijrochi prodyuser: **ASQAR TOG'AYEV**
Liboslar bo'yicha rassom: **SOJIDA HASANOVA**
Dekoratsiya bo'yicha rassom: **ISOBEK EGAMBERDIYEV**
Public relations: **ABROR ISMAILOV, SEVARA RAHMANOVA**
Sahifalovchi dizayner: **RAHMATJON YUNUSOV**
Korrektor-tarjimon: **BAHODIR ERGASHEV**
Korrektor: **IRODA NASIMOVA**
Fotografiyalar bo'yicha assistent: **MICHAEL YOSO**
Gaffer: **TALGAT GIMRANOV**
Rassom: **ELDOS FAZILBEKOV**
Stilist: **ABBOS MURATOV**
Vizajist: **FERUZA AHMEDOVA, ADOLAT MIRAZIZOVA**
Tarjimonlar: **SAODAT ABDURAHMONOVA, MUNISA A'ZAMOVA, BAHODIR ERGASHEV**
Buxgalter: **NIGORA MELIEVA**
Administrator: **IBROHIM AZIMOV**

MUALLIFLAR:
NIKITA MAKARENKO, TINA IMAMJAN, SAIDAZIZ A'ZAMOV, SASHA IVANYUJENKO, IRODA NASIMOVA, SAODAT ABDURAHMONOVA, HIKMAT ABDURAHMONOV, JAVLON JOVLIYEV, OTABEK BAKIROV, MURAD NASIROV, KARINA MAVLYANOVA, DILFUZA KUROLOVA.

HAMKORLIK BO'YICHA MUROJAAT QILISH UCHUN:
+998-91-019-00-80, magazine@uzbekistans.club

Uzbekistan's club — millat uchun eng dolzarb va qiziqarli mavzular yoritiladigan, iste'dodli mualliflarning ijod namunalari chop etiladigan, dunyodagi barcha o'zbekistonliklar uchun mo'ljallangan tahliliy, ma'rifiy-ko'ngilochar jurnal. Unda e'lon qilinayotgan maqolalarda keltirilgan fikrlar muallifga tegishli va ular Uzbekistan's club jurnali nuqtayi nazarini ifoda etmasligi mumkin. Jurnal sahifalaridan olingan iqtibos va mualliflik matn fragmentlarini ommaviy axborot vositalari, xususan, internetda qayta e'lon qilishda manba Uzbekistan's club jurnali deb ko'rsatilishi lozim. Adadi: 10000 nusxa. "JURABEK PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yangiobod posyolkasi, Katta-su ko'chasi.

Suratga olishda hamkorlik qilgani uchun Human House Gallery hamda Anor atelierga minnatdorlik bildiramiz.

Qadrli mushtariylar! Qo'lingizda Uzbekistan's club nomli jilokor jurnalimizning ikkinchi sonini tutib turibsiz. Teatrda bir qoida bor: premyera qilingan spektaklning ikkinchi namoyishi doim birinchisidan muhimroq bo'ladi. Chunki uning ilk namoyishida aktyorlar tomirida andrenalin qaynaydi, xaloyiq esa hayajonda bo'ladi. Ikkinchi martasida esa faqat professionalizm va yuqori darajadagi ijrogina bo'y ko'rsatadi. Va aynan ikkinchi namoyish spektakl taqdirini, u xit bo'ladimi yoki yo'qmi, hal qiladi.

Aynan shuning uchun biz shunchaki jurnalning qaldirg'och soni qozongan muvaffaqiyatni takrorlamasdan, undan ham ko'prog'iga erishishga, marrani balandroq qo'yishga harakat qildik. Uzbekistan's club jurnalining debyut soni nafaqat Toshkent, balki butun dunyo bo'ylab tarqalib ketdi. Jurnalni birinchilardan bo'lib o'qiganlar uni juda o'ziga xos bir yerda qo'llariga oldilar, u ham bo'lsa jurnal taqdimoti bo'lib o'tgan London shahridagi Eski Qirollik Dengiz Kollejida.

Bu sonning ilk mushtariylari esa uni Toshkentda o'ta yuqori darajada o'tkazilgan "Oltin Chinor" korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha milliy mukofoti taqdirlash marosimidan avval qo'liga oldi. Ushbu son Uzbekistan's club xalqaro nodavlat notijorat tashkilotining tinib-tinchimas jamoasi AQSHda bir necha oy o'tkazgan ijodiy mavsumida dunyoga keldi. Jurnal sahifalaridan okean ortidagi o'zbekistonliklar haqidagi ajoyib hikoyalar, ularning o'zlari tug'ilgan mamlakat taqdiri va taraqqiyotiga daxldor fikr-mulohazalari o'rin olgan. Ha, AQSH – iste'dodli va kreativ insonlar mamlakati. U yana yirik moliya markazlariga ega. Qolaversa, shtatlar aqlbovar qilmas san'at asarlarini saqlayotgan ajoyib muzeylarga makondir. Bu sonda biz aynan shu xazinaga urg'u berishga qaror qildik.

Boshqa mamlakatlar kabi O'zbekiston ham dunyo ijodkor ommasining to'laqonli bir qismi. Bizning odamlar ham dunyo san'ati durdonalari va shoh asarlarini tushunadi va qadrlaydi. Ushbu jurnalda biz nafaqat eng qiziqarli shaxslar ishtirokida maqolalar tayyorladik, o'zimiz eng yaxshilardan deb bilgan mualliflarni jalb qildik va eng yaxshilar reytingilarni tuzdik... Balki jahon noosferasi – klassik, modernistik va zamonaviy san'at makoniga sho'ng'idik.


Chunki biz, o'zbekistonliklar, sayyoramizning ajralmas qismimiz. Uning aholisi bilan hamnafas yashayapmiz. Voqealar to'lqinida, qit'aning qoq markazidamiz. Biz barcha ishni uddalaymiz!

Ehtirom ila jurnal tahririyati


MUNDARIJA




68 **AKMAL XOLBOYEV**
UY OLMA. KELAJAKKA SARMOYA QIL



94 **SAODAT TURSUNOVA**
YUKSAK DID VA SIFAT SARI




118 **JAVLON JOVLIYEV**
TOSHKENTDAGI SEVGI




82 **HIKMAT ABDURAHMANOV**
UNIVERSITET – IJTIMOIY ORGANIZM

KARINA MAVLYANOVA
AYOLGA BAXT BERING



106 **DILFUZA KUROLOVA**
FAOLLIKDAN HUQUQ HIMOYASIGACHA



GASTRONOMIK ANSHLAG 102




130




88 **SHAHNOZA SOATOVA**
JADID MOMOLAR NEGA ULARNI YAXSHI BILMAYMIZ?



72 **OTABEK BAKIROV**
O'RTA SINF – OCHIQ JAMIYAT DOYASI



42 **OKSANA CHUSOVITINA**
BAXTLI INSON



36 **SHERZODXON QUDRATXO'JA**
ISTE'DODLAR RAMZIMIZ BO'LSIN

YO'LDOSHEVA

BARIBIR YULDUZ BO'LAMAN





ILK KONSERTLARIMNI QO'SHNILARIMGA QO'YIB BERGANMAN

Mahallamizda taklifnomalar tarqatganman. Shunday qilish mening taqdirimga bitilgan ishligini his qilganman. Maktabda nazorat ishlarini yozayotib, “ha, bular menga kerak emas, men ba-ribir yulduz bo‘laman, xonanda bo‘laman,” deb aytardim. Bunda meni oyim qo‘llab-quvvatlaganlar. Miyamda oyim ishonch bilan aytgan fikrlar aylanardi: “Imkonsiz narsaning o‘zi yo‘q, hayotda nimaniki xohlasang, shunga erisha olasan”.

BOLALIGIM BAXTGA TO'LA BO'LGAN

Oyim buyurtmaga tort pishirganlari uchun uyimizda doim vanil ifori taralib turardi. Ular zefirdan go‘zal oqqushlar yasagani hali hamon yodimda. Yana oyim tayyorlagan kremlarning qolgan-qutganini yeb qo‘yganlarim esimda. Shu vanil mening baxtli bolaligim isidir.

OYIM BIZGA HURRIYAT TUYG'USINI SINGDIRGANLAR

Har oqshom oyim, akam, opam va men uyda diskoteka uyushtirardik. Uyimizda eng zamonaviy musiqa yangrardi: Uitni Hyuston, Maykl Jekson, Queen. Dadam dijeylik qilardilar. Biz chiroqni o‘chirib raqs tushardik va turfa taronalarni eshitardik. Ehtimol, shuning uchun ham biz shunday hurfikr va erksevar bo‘lib katta bo‘ldik.

BIRINCHI ISHLAB TOPGAN PULLARIMNI BUVIMGA BERGANMAN

11 yoshimda men bitiruv oqshomlarida “Bahor” qo‘shig‘imni ijro etganman. U paytlar gonorar naqd pulda berilardi, men o‘shanda bir ryukzak to‘la so‘m yiqqandim. Shu ryukzagimni olib, buvimlarnikiga bordim va pullarni u kishining qo‘liga berib: “Buvijon, qarang, men millionerman. Katta bo‘lsam, bundan ham boy bo‘laman” deb aytganman. O‘shanda o‘zimni juda zo‘r odam deb his qilgan edim.

"SHIRIBOM" SAQICHI REKLAMASIDA SURATGA TUSHGANMAN

Reklama juda mashhur bo‘lib ketdi. Keyin menga hamma “Shiribom” deb laqab qo‘yib oldi. O‘sha yili men “Semurg‘” oromgohiga bordim. U yerda mening xonamdagi qizlar menga rosa zug‘um o‘tkazishgan. Esimda, o‘sha kunlarning birida men hech kimni ko‘rishni ham, eshitishni ham istamasdan ko‘rpamga chirmanib olgan edim. U qizlar esa kirib, “Ha, nima bo‘ldi, Shiribom, xafa bo‘ldingmi?” deb meni masxara qilgan edi. Men haligacha ularning ismlarini eslayman. Bu voqealar mening ichki dunyomda katta jarohat bo‘lib qolgan.

SENZURA HAQIDA GAP KETGANDA

Men bu masalaga yumor bilan yondashaman. Undan drama yasamayman, yalovbardorlik qilmayman va qarshi turishga ham urinmayman. Senzuraga urinishlar mening ijodimga faqat ijobiy ta’sir qilgan. Chunki bosim doim qarama-qarshi kuchni paydo qiladi. Kishida qandaydir bir alamzadalik va ijod qilishga ilhom paydo bo‘ladi.

HECH QACHON JAMIYATGA QARSHI CHIQISHGA URINMAGANMAN

Men doim boshqacha hayot va fikrlash tarzini ko‘rsatishga harakat qilganman. Stereotiplarni parchalashga tirishganman. Ammo insonning o‘zi o‘z chegaralaridan chiqishni, kengroq fikrlashni xohlamasa, men uni o‘zgartira olmayman. Umuman olganda, menga bo‘lgan bosimlar meni tushunmaydigan odamlarga nisbatan bag‘rikengroq bo‘lishga undadi. Men ularni o‘zgartira olmayman. Men uchun o‘zligimni saqlab qolish va qadriyatlarimdan voz kechmaslik muhim.

YAKKAXON KONSERT

27, 28 va 29-sentabr kunlari ko‘p yillardan beri birinchi marta “Xalqlar do‘stligi” saroyida yakkaxon konsertim bo‘lib o‘tadi.
Tomoshabinlarni jonli ijrodagi kompozitsiyalar hamda rang-barang shou kutmoqda.
Men uchun bu muhim hodisa, barcha muxlislarimni u yerda ko‘rishdan behad xursand bo‘laman.

Nikita MAKARENKO suhbatlashdi

QAHRAMON QURONBOYEV,
O‘ZBEKISTON MAHALLALARI UYUSHMASI RAISI,
SIYOSATSHUNOS

YOSHLAR BILAN ISHLASH

MURAKKAB. QIZIQ. SHARAFLI





YOSHLARGA IMKONIYAT BERISH DAVRI

Mamlakatimiz aholisi 37 million kishidan oshdi, ularning 60 foizdan ziyodini yoshlar, ya'ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Tabiiyki, bu raqam ularning o'y-fikri, muammo va orzu-umidlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Keyingi paytlarda yoshlar kelajagiga e'tibor, g'amxo'rlik, ular taqdiriga daxldorlik hissi har qachongidan ortdi. Yoshlar siyosati yurtimizda kechayotgan islohotlarning muhim mezoniga, ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ularni uzoq yillar qiynab kelgan muammolarni hal etish talabi ilgari surildi. O'tgan qisqa davrda ushbu yo'nalishda 100 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Mamlakatimiz tarixida hech qachon o'g'il-qizlarga bugungidek keng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilmagan.

Bugun yoshlar masalasida gap ketganda hech kim chetda turmaydigan payt. Ularning muammosi barchaning muammosi ekani ayni haqiqat. Hozir hammamiz yakdil, hamjihat harakat qilsak, yoshlarning hayotiy qiyinchiliklar, maqsadi yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tishiga ko'maklashgan bo'lamiz.

Faoliyatimga nazar tashlasam, yoshlar bilan ishlash, ularning har taraflama yetuk shaxs bo'lishiga sharoit hozirlash doim kun tartibimda bo'lgan. O'ylab qarasam, bu mening taqdirimga yozilgan bitik, katta mas'uliyat va burch ekan. Men uchun bu ulkan faxr, albatta. Zero, har qanday davrda yoshlar bilan ishlash eng murakkab, eng qiziqarli hamda eng sharafli yumushdir.

Maktab davrida yetakchi bo'lib, yigit-qizlarni ergashtirib, faol bo'lganimni eslayman. Keyinchalik ushbu tajribalarimni O'zbekiston Milliy universitetida qo'llashim kerak bo'ldi. Keyin menga mamlakatda muhim, yirik yoshlar tashkiloti – "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini tuzishda qatnashish nasib qildi. So'ngra Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Administratsiyada mas'ul lavozimlarda ishladim.

Ayni damda O'zbekiston mahallalari uyushmasi rahbari sifatida ham, Vazirlar Mahkamasining "Mahalla yettiligi" faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limidagi vazifam orqali ham yoshlar masalalariga bevosita daxldorman, respublika rahbariyati oldida bu yo'nalishda hisobdorligim bor.

ODAMLAR DUNYOQARASHI, HAYOTGA INTILISHI O'ZGARYAPTI

Mamlakatimiz rivojlanishining yangi bosqichida muhim ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston mahallalari uyushmasiga rais bo'lish juda katta mas'uliyat ekanini to'liq his qilaman. Zero, bugun davlat barcha islohotlarni aynan mahalla orqali aholiga yetkazishni maqsad qilgan.

Hozirda mahalla tizimi islohotlarning markaziy va hal qiluvchi bo'g'iniga aylandi. Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bugungi kunda hamma ish mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilinmoqda. Bu, albatta, ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Bu ishlarni amalga oshirishga birgina mahalla raisining o'zi ulgurmaydi. Shu bois bu masalaning yechimi sifatida "yettilik" tashkil etildi.

Ayni paytda "mahalla yettiligi" a'zolarining 86 foizini oliy ma'lumotga ega bo'lgan malakali kadrlar tashkil etadi. Ularning 24 foizi yosh xodimlar ekani bugungi kunda aholi muammolarini hal etishda yoshlar imkoniyatidan kengroq foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Yana bir e'tiborli jihati, yoshlar muammosi faqat ta'lim muassasalari yoki ish joyidagi mutaxassislar ko'magida emas, balki uni va oilasini yaxshi taniydigan, biladigan muhitda – mahallalarda hal etilyapti. Zero, yoshlarni qiynayotgan masalalarni ular bilan bir mahallada yashayotgan yoshlar yetakchilaridan ko'ra yaxshiroq biladigani yo'q. Chunki ular mahalladagi sharoitni, asl holatni boricha, ya'ni aslicha ko'ra oladi. Shuning uchun Prezidentning ishonchli vakillari – yoshlar yetakchilari aynan mahallalarda faoliyat olib borishi har jihatdan foydali bo'lmoqda.

Kasbim taqozosi bilan yurtimizning turli shahar va qishloqlariga boraman, turli sohalarda ishlayotgan, hayot yo'llari turlicha bo'lgan yoshlar hamda ularning ota-onalari bilan suhbatlashaman. Jamiyat rivojlangani sari ularning dunyoqarashi, hayotga intilishi o'zgarayotganiga guvoh bo'lyapmiz, odamlarda islohotlarga daxldorlik tuyg'usi ortgan.

E'tibor bering, hozir migratsiyadan qaytgan hamyurtlarimiz "xorijda ishlab, umrimiz o'tib ketibdi, bolalarimiz katta bo'lganini ko'rmapmiz, ota-onamizga xizmat qilolmabmiz," deyapti. Bugun davlat mehnat migrantlarini O'zbekistonga qaytarib, ularga shu yerning o'zida daromad topish va band bo'lish imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Birgina "Sayxunobod tajribasi" deb atayotganimiz turkum chora-tadbirlar doirasida guvohi bo'ldikki, qishloqlarda ayrim oilalar mo'jaz tomorqa yeridan million-million daromad topyapti, farovonligini ta'minlayapti. Demak, intilsa, izlansa, erinmay, astoydil mehnat qilsa, shu zaminning o'zida ham turmushini o'zgartirsa bo'ladi. Buni odamlarimiz endi tushunyapti. Yerga katta daromad manbayi sifatida qaramoqda.

To'g'ri, xorijda yaxshi ishlarda ishlayotgan, mo'may daromad topib, oilasi butligini ta'minlayotgan vatandoshlarimiz ham bor. Biz ularni qaytarish emas, balki o'zlari yashayotgan mamlakatlarda qo'llab-quvvatlash ustida ishlayapmiz. Qolaversa, kasb-hunar va til ko'nikmalariga ega fuqarolarga ishga joylashish uchun so'raladigan malaka sertifikatlarini olish va ularning yo'l chiptalari uchun ketgan xarajatlarni qoplab berish uchun kompensatsiyalar to'lash yo'lga qo'yildi.

TA’LIM KAMBAG‘ALLIK ZANJIRINI UZADI

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, odamlarimizda shukronalik va kelajakka bo‘lgan ishonch, ayniqsa, farzandlarining istiqboli uchun sarmoya qilish zehniyati uyg‘onayotir. Bolalarning ilmli, bilimli bo‘lishiga intilish qadriyatga aylanayotgani quvonarli, albatta.

Ne baxtki, o‘zim farzandlarga katta e’tibor berilgan oilada dunyoga kelib, voyaga yetganman. Men oilada 11 nafar farzandning biri edim. Ammo ota-onam har bir bolasi kabi menga ham alohida e’tibor va tarbiya berishdi. Barchamiz o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘ldik, jamiyatda o‘z o‘rnimizni topdik. Bu ota-onamizning eng katta maqsadi edi.

Shovot tumanidagi katta xo‘jalikning raisi bo‘lgan, taniqli davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov shaxsan tanigan hamda Xorazmga kelganda u bilan ko‘p ko‘rishgan otam – Qo‘chqor ota Quronboyev farzandlari kelajagi uchun Toshkentga ko‘chib borgan. Qishloq xo‘jaligi texnikumida, oliy ta’limda o‘qib, og‘ir sharoitlarda mehnat qilgan. O‘sha vaqtda olti nafar go‘dak bolasi bilan uyda qolgan onam har kuni sahar turib, uyimiz yaqinidagi maktabda farroshlik qilib, farzandlarini halol rizq bilan boqib tarbiyalagan.

Men o‘z ota-onam, oilam misolida farzandlar kamoloti uchun intilish naqadar muhimligini chuqur anglayman. Menga g‘urur bag‘ishlaydigan jihat shundaki, bugun farzandlari kelajagi deb yashayotgan oilalar ko‘paymoqda. Davlat organlari, xususan, mahallalar bu borada ularga yo‘nalish berish uchun hamma imkoniyat va salohiyatga ega.

Tan olish kerak, shunday davrlar bo‘ldiki, jamiyatimiz, ya’ni biz farzandlar ta’limi va tarbiyasiga yetarli darajada e’tibor bera olmadik, bu masalani o‘z holiga tashlab qo‘ydik. Yoshlar bilan ishlashga yuzaki qaralgani, ular bilan hamnafas yashashga intilish yetarli bo‘lmagani sababli hal etishimiz zarur bo‘lgan masalalar yig‘ilib qoldi.

Bugun biz o‘z farzandlari oldidagi mas’uliyatini chuqur his qilgan, ularni kasb-hunarli va zamonaviy bilimlar egasi bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitni yarata olishga intilayotgan ota-onalar bilan tizimli ishlarni amalga oshiryapmiz.

Farzandlar o‘qisa, o‘rgansa, o‘z sohasining bilimdoni, yetuk mutaxassis bo‘lsa, kambag‘allik zanjirini uzish oson bo‘ladi. Bunday yoshlarning turmush darajasi oshadi, hayot sifati yaxshilanadi. Bu yerda gap ta’limning barcha bosqichlari haqida ketyapti. 7-8 yil ortga qarasak, maktabgacha ta’lim muassasalarida qamrov 10 foizdan kam edi. Bugun bu ko‘rsatkich karrasiga oshib, aholining yildan-yilga tez o‘sib borayotgan qatlami – jajji bolajonlarimiz maktab ta’limiga munosib tayyorlanmoqda. Maktablar zamon talabiga moslashib, ham oliy ta’lim, ham kasb-hunarga yo‘naltira oladigan maskanga aylanyapti.

Shu o‘rinda bir fikrni aytib o‘tish o‘rinli, deb o‘ylayman. Davlatimiz rahbari: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim? Yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, deya ta’kidlagan edi.

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas’uliyat yuklaydi. Shundan kelib chiqib, barcha mahalla raislari va faollarining ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ish uslubi tubdan o‘zgardi. Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyati va ma’rifatini yuksaltirish mahallaning kundalik ustuvor vazifasiga aylandi. “Maktab – ota-ona – mahalla” hamkorligi asosida elektron muloqot platformasi ishga tushirildi.

Qolaversa, ziyolilar, nuroniylar, Haj va Umra ziyoratlariga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lyapti, odamlarni yaxshilikka boshlayapti. Mahalla yoshlari bilan ko‘proq muloqot qilish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolariga yechim topish kundalik vazifaga aylandi. Yoshlarni har qanday ma’naviy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda, avvalo, bir-birimizga, qo‘ni-qo‘shnilarga, ko‘chamizda, mahallamizda unib-o‘sib kelayotgan bolalar tarbiyasiga befarq bo‘lmaslikni hayotning o‘zi taqozo qilmoqda.

Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas, ularning ongi, dunyoqarashi, orzu-istaklari, talablari o‘zgardi. Ular siyosiy jarayonlarda faol qatnashib, o‘z fikrini dadil aytayotir. Davlat ham yoshlar muammolarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan emas. Ular uchun barcha imkoniyat va shart-sharoit yaratishga, dard-u tashvishini eshitishga intilmoqda.

Yoshlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ilmli bo‘lishiga imkoniyat hozirlash, o‘z iqtidorini namoyon etishiga ko‘maklashish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash doimo e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Qo‘lni qo‘lga berib, oilalar totuvligini saqlash, o‘g‘il-qizlarimizning sog‘lom muhitda voyaga yetishi yo‘lida bor imkoniyatlarni safarbar etamiz. Chunki globallashuv ta’sirida jahonning mafkuraviy manzarasi soat sayin o‘zgarayotgan bir paytda, yoshlar masalasida xotirjamlikka berilishga aslo haqqimiz yo‘q. Mahallalarda ishsiz yoki o‘z yo‘lini topa olmayotgan, yurish-turishi, yomon xulqi orqali o‘zgalarga muammo keltirayotgan bir nafar yosh borki, biz zimmamizdagi mas’uliyat yukini yengil hisoblay olmaymiz.



QORAYNING SURAYYO

BOLA – ALOHIDA SHAXS





Bolalarga sifatli ta'lim va tibbiyotni taqdim etish, ularning haq-huquqlarini ta'minlash – inson kapitaliga qilish mumkin bo'lgan eng to'g'ri investitsiya.

Uzbekistan's club mamlakatimizning kichkintoy fuqarolari farovonligi va xavfsizligi mavzularida Oliy Majlisning bola huquqlari bo'yicha vakili, ya'ni Bolalar ombudsmani Surayyo Rahmonova bilan suhbatlashdi.

TARBIYA HUQUQNI TO'PLASH EVAZIGA BO'LMASIN

Bolalar, ularning qadr-qimmati mavzusi har qanday inson uchun – u siyosatdan yiroq bo'lgan taqdirda ham – hamma narsadan muhim va e'tibor qilish lozim bo'lgan jihat bo'lib qolaveradi. Shu sababdan Bolalar ombudsmanligiga kirishayotganimda bu o'ziga xos, nozik sohada ishlashga tayyormanmi, bu ish qo'limdan keladimi, deb o'yga tolganman.

Faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri bolalarni tarbiyalash uslublaridagi muammolardir. Ko'p masalalar mamlakatda bolalar qanday tarbiya qilinayotganiga bog'liq. Eng achinarlisi, tarbiya haqida gap ketarkan, kun tartibiga yana zo'ravonlik mavzusi chiqadi.

Nega? Chunki jamiyatimiz zehniyatida bolani alohida shaxs deb hisoblamaslik chuqur ildiz otgan. Tarixan, bolaning individ – shaxsiy, ijtimoiy va boshqa huquqlarning tashuvchisi sifatidagi qiymati prinsipial jihatdan hisobga olinmagan.

Bunday fikrlash natijasida bolaga bo'lgan munosabatimiz, uni eshitishga harakat qilmasligimiz, unga eng asosiy ehtiyojlari bilan bog'liq tanlovlardan tortib, uning taqdiri uchun muhim qarorlarni ham mustaqil qabul qilishiga yo'l bermasligimizda ko'rinish beradigan fe'limiz shakllangan.

Afsuski, turli shakllardagi zo'ravonlik hali ham tarbiyaning muhim elementi bo'lib, jamiyatda hamon qabul qilinmoqda, faoliyatimiz davomida buni tasdiqlovchi dalillarga ko'p duch kelyapmiz. Bolalar o'z huquqlaridan ijtimoiy muhitda, uyda, maktabda, yaqinlari orasida mahrum bo'lib kelmoqda.

Albatta, bu global muammo. Shuni ta'kidlash kerakki, nafaqat Osiyoda, balki Yevropadagi ayrim mamlakatlarda ham zo'ravonlik bolalarni tarbiyalashning samarali vositasi sifatida zarur deb hisoblanadi.

Biroq bugun O'zbekistonda bu masala bo'yicha jiddiy paradigma o'zgarishlari kuzatilmoqda. Esingizda bo'lsa, ta'limda zo'ravonlik mavzusi tabu bo'lgan, bu haqda hech kim og'iz ocha olmagan, oiladagi zo'ravonlik unsiz bo'lib, mentalitet va an'analar ortiga yashirilgan. Ammo hozir biz nafaqat bu haqda gapiryapmiz, balki jamiyatga aniq signal beryapmiz: bola huquqlari qonun va davlat himoyasida.

QIZLARIMIZ IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHUVIDA BO'LGAN YO'L

QAT'IY POZITSIYA VA MURAKKAB MASALALAR

Bizning voqelikdagi yana bir qiyin masala erta turmush qurishdir. Afsuski, mintaqamizning urf-odatlari, tarixiy mentaliteti tufayli jamiyatimizda bu hodisa hamon saqlanib qolmoqda.

Bunga sabab nima? Sabablar 100 yil qanday bo'lgan bo'lsa, shunday. Bu, asosan, ota-onalarning qizini yaxshi joyga turmushga berib, uning farovon va barqaror hayotini ta'minlash instinktidir. Ha, 100 yil avval ijtimoiy va tarixiy jihatdan bunday holat o'zini oqlagan edi. Qizlarda erta turmush qurishdan boshqa hayot yo'li bo'lmagan. Ammo endi zamon butunlay boshqacha: qizlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, o'zini o'zi anglashi, kasb-hunar egallashi va ijodkorligi uchun juda keng imkoniyatlar bor. Turli an'ana va motivlar bilan shakllangan qarashlarni o'zgartirish zarur.

Qiz bola ham xuddi o'g'il boladek qadr-qimmatga ega! U o'qib-o'rganish va rivojlanish huquqiga ega. Shubhasiz, turmush qurish ham uning hayotidagi muhim bosqichdir, lekin u bunga ongli ravishda borishi, bunda unga ota-onasi va jamiyat bosim o'tkazmasligi lozim.

Erta turmush qurish yana zo'ravonlikka yo'l ochadi. Faqat turmushga chiqish va eriga xizmat qilishga tayyorlangan qiz na o'zining ustida ishlaydi, na shaxs, na professional sifatida rivojlanadi. Natijada ayol bir vaqtning o'zida zo'ravonlikning barcha turlariga duchor bo'ladi. Lekin shuni aytish kerakki, hammasi iqtisodiy zo'ravonlikdan, ya'ni qaramlikning bu shaklidan boshlanadi.

Mustaqil kasb-korini qila oladigan, o'zini eplay oladigan qizning huquqlarini cheklash qiyin. Shuning uchun ham asosiy e'tibor qizlarning nafaqat an'anaviy kasblar, balki aniq va tabiiy fanlar bo'yicha ham ta'lim olishiga qaratilishi kerak. Ayni paytda bu borada jiddiy ishlar olib borilmoqda. Masalan, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) ta'limi tabiiy fanlar va muhandislik fanlarini birlashtirgan modeldir.

Zo'ravonlik haqida gap ketganda, afsuski, voyaga yetmaganlarga nisbatan bo'ladigan jinsiy ko'rinishdagi zo'ravonlikni ham aytish kerakki, ushbu masalada Bolalar ombudsmani qat'iy pozitsiyaga ega. Bu borada biz barcha huquq organlari bilan yaqindan ishlaymiz. Pedofiliyaga oid har bir keys bo'yicha bizga yozma ma'lumot beriladi, biz sudlarda ishtirok etamiz va bolalar manfaati uchun sud hukmiga nisbatan protest e'lon qilishimiz mumkin.

Xabaringiz bor, O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan qilinadigan har qanday seksuallashgan jinoyat shakllariga qo'llanadigan jazolar kuchaytirilgan. Shunday jinoyat sodir etgan shaxslarning reyestri 2023-yil oktabr oyidan boshlab yuritila boshladi va ular jazoni o'taganidan keyin ham bolalar ta'lim-tarbiya muassasalariga kirishi taqiqlanadi.

Albatta, bu muammoga qarshi kurash ko'p tomonlama chora-tadbirlarni talab qiladi. Bugun biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar fondi (UNICEF), O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Bosh prokuraturasi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan bolalar va ularning ota-onalarini turli tahdidlar, jumladan, jinsiy zo'ravonlik haqida xabardor qilish maqsadida tizimli ravishda ishlamoqdamiz. Hozirgi kunda maktablarda bu nima ekanligini, bunday vaziyatlarda o'zini qanday tutish, qayerga murojaat qilish kerakligini tushuntiruvchi ko'rgazmali o'quv materiallari tarqatilmoqda.

Jamiyatimizda jinsiy tarbiya borasida ziddiyatli munosabat hukmron. Negadir ko'plar bu bolaning tarbiyasi buzilishiga olib keladi, deb o'ylaydi.

Menimcha, turli nyuanslarni e'tiborga olgan holda, bosqichma-bosqich bu fanni maktab dasturiga majburiy emas, fakultativ darslar sifatida kiritish va uni tanlashni ota-onalarga havola qilish zarur.



MINGLAB KILOMETR OZODAGI YAQINLIK

FURQAT SIDDIQOV

Toshkent va Vashington shaharlari o‘rtasidagi masofa – qariyb 10,500 kilometr. Uzbekistan's club loyihalarining AQSH mavsumi davomida okean ortidagi mamlakatni kashf etishga urinar ekanmiz, bizni ko‘p masalalarda qo‘llagan Vashingtondagi O‘zbekiston elchixonasi jamoasi hamda elchi janoblari Furqat Siddiqov bilan suhbat qurdik. O‘z sayohatimiz davomida tushunib yetayotgan bir haqiqat diplomat bilan suhbatimizda o‘z tasdig‘ini topdi: AQSH – bizning olisdagi yaqinimiz. Buning sabab va isbotlari haqida qahramonimiz so‘zlaydi.



HAMKORLIK EVOLYUTSIYASI JADALLASHDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yildagi davlat tashrifi strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi. Biz O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli barcha sohalardagi hamkorlikning jadal dinamikasini ko‘rdik. So‘nggi yillarda 20 dan ortiq oliy darajadagi almashuvlar o‘tkazdik. Davlat kotibi Entoni Blinken, ichki xavfsizlik bo‘yicha maslahatchi Elizabet Shervud-Rendall, Davlat kotibi o‘rinbosari Vendi Sherman va boshqalarning Toshkentga tashriflari shular jumlasidan. O‘tgan 5 yil davomida 40 dan ortiq senator, kongressmenlar va ularning xodimlari O‘zbekistonga tashrif buyurib, strategik sherikligimizni mustahkamlashga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari – AQSH davlat rahbarlarining tarixiy birinchi sammiti yana bir bor mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mustahkam aloqalarni ko‘rsatdi. O‘zbekistondagi islohotlar o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishda eng muhim element bo‘lib kelmoqda.

Xususan, AQSH Kongressi ham O‘zbekistonning islohotlar siyosatini qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi. 2023-yilda biz AQSH Kongressida ilk bor O‘zbekiston kunini nishonlaganimiz buning bir dalili.

UMMON TO‘SOLMAGAN IQTISODIY RISHTALAR

O‘zbekistonning AQSH bilan savdo aylanmasi 2020-yildagi 277 million dollardan 2023-yilda 657,3 million dollargacha o‘sdi va bu Qo‘shma Shtatlarni bizning eng yirik savdo sheriklarimiz ichida 13-o‘ringa olib chiqdi. 2024-yilning uch oyida savdo aylanmamiz 40 foizga o‘sdi.

Bugungi kunda Amerika-O‘zbekiston Savdo palatasiga SpaceX, HP, Google, Apple, Microsoft, General Electric va shular kabi 50 dan ortiq kompaniya a’zodir. Ularning aksariyati so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ishonchini ko‘rsatib, palataga kirgan.

2023-yilda Air Products kompaniyasi O‘zbekistonda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ortiq bo‘lgan yangi investitsiya dasturini taqdim etdi. General Motors kompaniyasi UzAuto Motors bilan hamkorlikda O‘zbekistonda ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga, yiliga 500 mingtagacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Biz uchun IT sohasida o‘sib borayotgan hamkorligimiz juda muhim. 2023-yilda O‘zbekiston IT xizmatlari eksporti jahon miqyosida 2,4 baravardan ortiq oshdi. IT xizmatlarining salmoqli ulushi, jami 44 foizi AQSH bozoriga eksport qilinadi.

ILM-MA’RIFAT SOHASIDA BIRLASHIB

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi akademik hamkorlik so‘nggi bir necha yil ichida gullab-yashnadi. Vebster universiteti O‘zbekistonda bir necha yillardan buyon muvaffaqiyatli ishlamoqda, Arizona State University shu yil oxirigacha o‘z kampusini tashkil etishni rejalashtirmoqda.

Amerikaning 10 dan ortiq yetakchi universitetlari, jumladan, Texas A&M, Syracuse University, Michigan State University, Old Dominion University, Penn State University va boshqalar o‘zaro hamkorlik shartnomalarini imzoladilar, bu o‘zaro almashinuvni osonlashtirish va talabalarimiz o‘rtasida chuqur aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oxirgi besh yil ichida biz amerikalik hamkorlar bilan birgalikda O‘zbekistondan 18 mingdan ortiq ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorladik va 10 ming maktabni ingliz tilidagi darsliklar bilan ta’minladik.

Bundan tashqari, O‘zbekiston bo‘ylab 50 nafar o‘rta maktab o‘quvchilari “Future Leader” dasturi bo‘yicha AQSHda bir yillik shartnoma asosida tahsil olmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasi grantlari bo‘yicha 80 dan ortiq g‘oliblar AQSHning 30 dan ortiq universitetlarida o‘qiyapti.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish ortib borayotganini alohida ta’kidlashim kerak. Bugungi kunda Markaziy Osiyoning global geosiyosatdagi strategik ahamiyati hamda O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga bo‘lgan akademik qiziqishdan kelib chiqib, 15 dan ortiq universitetda o‘zbek tili dasturlari va kurslari mavjud.

Furqat Siddiqov, shuningdek, O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan amerikalik sayyohlarning oshib borayotgani, 55 yoshdan oshgan AQSH fuqarolariga vizasiz rejim joriy qilingani, haftada bir necha marta Nyu-York va Toshkent o‘rtasida bo‘ladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar mintaqada yagona ekani haqida ham so‘zladi. Hamkorlikning istiqbollari haqida gap ketar ekan, AQSH tomonining foydali qazilmalar hamda biznes jarayonlar autsorsingi (BPO) sohasiga qiziqish bildirayotgani barobarida O‘zbekiston okean ortidan moliya, texnologiyalar, biznesni transformatsiya qilish yo‘nalishlarida eng ilg‘or tajribalarni olib kelishga intilayotganini urg‘uladi.

Nikita MAKARENKO suhbatlashdi

O‘ZBEKISTON VA AMERIKA LIKLAR

O‘XSHASH MANFAATLAR

AQSHning O‘zbekistondagi elchisi Jonatan Henik mamlakatimizdagi ijobiy o‘zgarishlar va yangi og‘riqli masalalar haqida Uzbekistan's club bilan o‘rtoqlashdi.





HAVO SIFATI – HAMMAGA DOXIL MASALA

Toshkentda havo sifatini o‘lchovchi ilk monitor AQSH elchixonasida o‘rnatilgandi, endi bunday monitorlar ko‘payayotganidan xursandmiz. Havo sifati hamma uchun daxldor masala. Ayni paytda tadqiqot strategiyalari va AQSHning havo ifloslanishini kamaytirishga oid tajribasi bilan bo‘lishish maqsadida O‘zbekiston hukumatini amerikalik ekspertlar bilan bog‘lashga e’tibor qaratyapmiz.

Men piyoda yurishni yaxshi ko‘raman, imkon bo‘ldi deguncha Toshkentni yayov kezaman. Toshkent aylanib chiqishga arzirli shahar, ammo unda piyodalar qulayligi uchun yanada ko‘proq ish qilish mumkin. Yerosti metro bekatlari juda go‘zal, shuning uchun metroda yurish yoqimli. Avtobus tizimining ham takomillashib borayotgani seziladi. Odamlarni jamoat transportidan foydalanishga qanchalik ko‘p rag‘batlantirsak, atrof-muhit uchun ham shunchalik yaxshi bo‘ladi.

VIZA VA GRIN-KARTA

Biz imkon qadar ko‘proq o‘zbekistonliklar AQSHga tashrif buyurishini istaymiz. Bunday sayohatlar ikkala mamlakat iqtisodiyoti uchun ham foydali. Shu bilan birga, AQSHga tashrif buyuruvchilar sayohatni AQSH qonunlariga muvofiq amalga oshirishlari shart. Konsullik bo‘limimiz sayohatchilar O‘zbekistonga o‘z vaqtida qaytishganmi, vizadan to‘g‘ri foydalanganmi-yo‘qmi, muntazam ravishda tekshirib turadi. Vizadan noto‘g‘ri foydalanish holatlari bo‘lsa, bu qonuniy sayohat qiluvchilar uchun viza olishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, ko‘plab o‘zbekistonliklar AQSH-Meksika chegarasini noqonuniy kesib o‘tayotganini ham bilamiz. Ularning ba’zilari AQSH vizasini olish bo‘yicha arizalari rad etilgach shu yo‘lni tutadilar. Bu esa o‘sha shaxslar o‘z vizalaridan noto‘g‘ri foydalanish niyatida ekanligining yaqqol dalilidir.

AQSH elchixonasi muntazam ravishda grin-karta bo‘yicha firibgarlikka qarshi maslahatlarni nashr etib turadi. Ariza topshiruvchilarga grin-karta ma’lumotlarining to‘g‘riligini nazorat qilish imkonini beradi. Agar boshqalar yordamidan foydalansangiz, arizani lotereyada ishtirok etish huquqidan mahrum qilishi mumkin bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun yordam beruvchi kishi tegishli formani to‘g‘ri to‘ldirganini tasdiqlashni tavsiya etamiz.

O‘ZBEKISTON QARSHISIDAGI “CHELLENJLAR”

O‘zbekiston islohotlarni izchil davom ettirish uchun qator jihatlarga e’tibor qaratishi lozim. Avvalo, mamlakatda har yili 600 mingga yaqin yigit-qiz mehnat bozoriga qo‘shiladi. Shuncha odamni ish bilan ta’minlashning yagona yo‘li xususiy sektorning roli va hajmini kengaytirishdir. Hukumat chet el sarmoyalarini jalb qilish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun tadbirkorlik va sarmoyaviy muhitni yaxshilash, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat korxonalarini xususiylashtirishni davom ettirishi lozim. Mustaqil va salohiyatli sudlar, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi choralar ham Yangi O‘zbekistonni barpo etishda muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalari sohasida ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi, ammo bu yetarli emas. O‘zbekiston erkin va mustaqil media muhitiga loyiq. Jurnalistlar, hatto ba’zi siyosiy jihatdan nozik deb hisoblanuvchi masalalarni yoritayotganda ham, bosimsiz, o‘z-o‘zini senzura qilmasdan ishlay olishlari lozim. Hukumat chinakam ochiq muloqot uchun jurnalistlarga yanada qulay shart-sharoitlarni yaratishda davom etadi, deb umid qilaman.

Jahon Savdo Tashkilotiga kirish jarayoni ham nihoyatda muhim; bu sarmoyadorlar, iste’molchilar va mehnatni himoya qiluvchi qonunchilik bazasiga ega bo‘lishni talab etadi. JSTga a’zo bo‘lish uchun zarur bo‘lgan barcha islohotlar O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada raqobatbardosh, innovatsion va sarmoyadorlarga jozibali qiladi.

O‘ZBEKISTONNI TARAQQIY ETTIRAYOTGAN INSONLAR

O‘zbekistonda shunday toifa kishilar borki, ular alohida e’tirofga munosib. Birinchidan, inson huquqlari himoyachilari. Ishchilar, siyosiy mahbuslar, diniy erkinlik va boshqa inson huquqlari masalalari haqida baralla gapirish katta jasorat talab qiladi. Jurnalistlarga, ayniqsa, surishtiruv materiallari tayyorlovchi va korrupsiyani fosh etuvchi, hukumatni javobgarlikka tortishga qodir bo‘lgan jurnalistlarga ham qoyil qolaman. Shuningdek, ish o‘rni yaratayotgan tadbirkorlarni ham qadrlayman. Meni hayratda qoldiradigan yana bir guruh – bu o‘qituvchilar. Boshqa mamlakatlardagi kabi O‘zbekistonda ham muallimlar yosh avlodni o‘z orzulari sari ilhomlantiradi. Va nihoyat, davlat xizmatchilarini ham qadrlayman. Bular katta maosh olmaydigan, lekin o‘z hukumati va mamlakatini yaxshilashga tirishadigan odamlardir.

Men kuzatgan bir qiziq jihat, bir qarashda juda farqlidek ko‘rinsa-da, o‘zbeklar va amerikaliklar juda o‘xshash. Biz oila va mahalliy hamjamiyatga ustuvor ahamiyat beramiz. Vatanparvarmiz va mamlakatlarimiz bilan faxrlanamiz. Tadbirkor va mehnatkashmiz. Munosabatlarimiz kundan kunga mustahkamlanib borayotganining sabablaridan biri ham shudir.

Nikita MAKARENKO suhbatlashdi

IQTISODIMIZ – GULLAYOTGAN BOG‘



YEKATERINA YENIKEYEVA

Kapitalbank boshqaruv raisi o'rinbosari

O‘ZBEKISTONGA QAYTISH — MENING RO‘YOBGA CHIQQAN ORZUM

— Bank sohasiga qanday kirib kelgansiz?

– Bank sohasida ishlab kelayotganimga 10 yildan oshdi. Eng qizig‘i, bungacha 8-9 yil davomida “barrikadaning boshqa tomonida” – Ernst&Young kompaniyasida auditor sifatida faoliyat yuritganman. Uzoq vaqt banklar auditi bilan shug‘ullanganman, Kapitalbank esa karyeramning ilk davridanoq birinchi mijozlarimdan bo‘lgan.

Bu tajriba menga juda asqatdi. Kunlarning birida bank sohasi qiziqroq bo‘lsa-chi, degan fikrga keldim va bu qarorimdan afsuslanganim yo‘q.

— Bank tashkil topganiga 23 yil bo‘ldi. Sizningcha, Kapitalbank bugun nimani ifodalaydi?

– Kapitalbank O‘zbekistondagi eng yirik xususiy bank bo‘libgina qolmay, mamlakat bo‘yicha bo‘linmalar va bankomatlarning yirik tarmog‘i, misli ko‘rilmagan qariyb 2 mln mijoz va 67 ming tadbirkor ham demakdir.

Kapitalbank zamonaviy bank sifatida xizmatlarni raqamlashtirishga ko‘p resurs va harakat yo‘naltiradi. Maqsad – sohada ilg‘or bo‘lish bilan cheklanib qolmay, mamlakatdagi har bir aholi punktida fuqarolarga ishonchli, qulay va tushunarli moliyaviy xizmatlarni taqdim etishdir.

Men uchun Kapitalbank – O‘zbekiston moliyaviy bozorining bayroqdori. Biz mahalliy bozorda juda qiziq va ilg‘or bank mahsulotlarini taklif qilamiz. Mamlakatdagi boshqa moliyaviy tashkilotlar ham ayni yo‘ldan borishmoqda.

— Siz, O‘zbekiston va Kapitalbank. Bu uyg‘unlik qanday hosil bo‘ldi?

– Men Toshkentda voyaga yetganman. Yillar davomida dunyodagi yetakchi kompaniya va banklarda faoliyat yuritib, erishgan bilim va ko‘nikmalarimni qo‘llash uchun ona yurtimga qaytish men uchun qiziq jarayon bo‘lgan.

Buni moddiylashgan orzu deyishim mumkin. O‘zbekistonga qaytish arafasida tanishlarim bilan bu tajribani yangi, ammo senga yaqin bo‘lgan muhitga moslashtirish qanchalik qiziqligini muhokama qilganman. Bu men uchun o‘z vatanimga foyda keltirish imkoniyati.

O‘zbekistonning hozirgi iqtisodiyotini gullayotgan bog‘ga o‘xshataman. Cho‘p suqsang bas, gullab hosil beradi. Bugun bu bozorda biz boshqa mamlakatlarda yo‘lga qo‘ygan xizmatlarni ishga tushirish juda maroqli jarayon. Qanday natijalarga erishish mumkin, qanday xatolar ehtimoli mavjud, ularni chetlab o‘tish uchun nimalarni hisobga olish kerak – bularning bari menga tanish.

Hozirda O‘zbekistonda raqamli mahsulotlar tanqisligi mavjud. Kapitalbankda jamlangan jamoa esa ularni yaratishga qodir.

— O‘tgan yilda erishgan eng asosiy yutug‘ingiz? 2024-yilda qanday maqsadlarni ko‘zlagansiz?

– O‘tgan yilning eng katta va bugun bankning rivojlanishini belgilab berayotgan yutug‘i – Uzum ekotizimining bir qismiga aylanganimiz bo‘ldi. Biz birlashib, mamlakat tarixidagi ilk “yakkashox”ni (qiymati 1 mlrd dollardan oshgan kompaniyalar shunday nomlanadi) yaratdik.

Bu ishga kirishganimizda, uzoq 2021-yilda bularning bari mutlaqo imkonsizdek ko‘ringan. Bugun esa harakatlarimizning mahsulini ko‘ryapmiz: biz mamlakatning katta-yu kichigiga birdek tanish bo‘lgan ekotizimni noldan bunyod etishga muvaffaq bo‘ldik.

2024-yil uchun asosiy maqsadlar aniq – raqamlashtirishda davom etish. Biz nafaqat eng yirik xususiy bank, balki mijozga yo‘naltirilgan eng peshqadam bank bo‘lishni xohlaymiz. Maqsadimiz – mijozlarga xizmat ko‘rsatish va servis sifati borasida birinchi raqamli bankka aylanishdir.

Servisni kim yaratadi? Jamoa. Biz o‘z ta’lim markazimizni tashkil etganmiz, unda bankning 3 mingdan ziyod xodimi uchun bepul darslar o‘tkaziladi. Jamoaning har bir a’zosiga bank bilan birgalikda o‘sib rivojlanish imkoniyatini taqdim etishga tayyormiz. Biz hudud yoki xodimdan qat’i nazar barqaror yuqori darajadagi servisni yaratishni istaymiz.

— Kapitalbank mamlakatning hududiy rivojlanishini qanday ko‘radi va bunda qay tarzda ishtirok etadi?

– 2022-yilni chakana tarmoqni kengaytirish shiori ostida o‘tkazdik, endilikda Kapitalbank respublikaning barcha hududlarida o‘z nuqtalariga ega. Bizning maqsadimiz kerakli bank xizmatlaridan foydalanish uchun mintaqaviy markazga borishga zarurat qolmaydigan servis yaratishdir.

Hozir ham mobil ilovamiz ko‘plab vazifalar uchun yechimlarni taklif qiladi. Joriy yilda rejalashtirilgan keng qamrovli yangilanishdan so‘ng Kapitalbank ilovasi yanada qulayroq bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa yashash hududingizda Kapitalbank bo‘linmasi mavjud bo‘lmagan taqdirda ham, servislarimizdan har doim foydalanishingiz mumkinligini bildiradi.



ANIQLIK VA BARQARORLIK TARAFDORIMAN

Ammo servisni taklif qilish bilan ish bitmaydi – undan foydalanishni o‘rgatish ham muhim. Mamlakat moliyaviy sohasida bu eng muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi. Maktablar va oliygohlarda hamkasblarimiz bank faoliyati haqida, omonat va kreditlar haqida ma’lumot berishadi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali mijozlarimiz firibgarlarga maxfiy ma’lumotlarini o‘z qo‘llari bilan tutqazib qo‘ymasliklarini kafolatlagan bo‘lamiz.

Bazaviy tushunchalar haqida ma’lumot berish orqali odamlarga pul yig‘ish, aql bilan xarjlash, qulay servisdan foydalangan holda yaxshigina manfaat olishni o‘rgatamiz. O‘zbekistonda hozir omonatlarni kafolatlash fondi tufayli mablag‘ni depozitda mutlaqo xavfsiz saqlashdek ajoyib imkoniyat mavjud. Nazarimda, dunyoda boshqa bironta davlatda omonatning qaytarilishi 100 foiz kafolatlanmaydi. Bu bank litsenziyasini yo‘qotgan taqdirda jamg‘armaning davlat tomonidan qaytarilishini kafolatlaydi. Bu O‘zbekiston fuqarolari uchun ham, norezidentlar uchun ham 100 foizli xavfsizlik yostig‘idir. Shunday ekan, omonat qo‘ying, mablag‘laringizni bankda saqlang.

Yaqinda ESG bo‘yicha ichki audit o‘tkazganimizda uzoq yillardan beri shunday loyihalarni qo‘llab-quvvatlab, amalga oshirib kelayotganimizga guvoh bo‘ldik. Banklar bozorning tizim yaratuvchi ishtirokchilari sifatida jamiyat kelajagiga o‘z hissasini qo‘shishi nafaqat mumkin, balki bunga majbur hamdir.

– Nima deb o‘ylaysiz, ayollar va erkaklarning boshqaruv uslubi o‘rtasida tafovut bormi? Jamoa boshqaruvida siz duch keladigan asosiy muammolar nima?

– Bo‘ysunuvchilarning erkaklar yoki ayollarga munosabatida farq bormi? Menimcha, yo‘q. Hammasi shaxsning o‘ziga va uning kompetensiyasiga bog‘liq. Haqiqiy yetakchini darrov tanib olish mumkin. Uni qabul qilishadi, unga quloq tutishadi. Rahbarlik borasida ayollardan ancha no‘noqroq bo‘lgan erkaklar bor.

O‘zbekistonda ham, xorijda ham ayol va erkak rahbarlar bilan ishlaganman. Faoliyatim davomida qaror va harakatlarida yuqori darajadagi izchillikni namoyish etadigan, tizimlilik va aniqlik asosida ish yuritadigan rahbarlarni uchratganman. Men barqarorlik tarafdoriman. Aniqlik va barqarorlik.

– Rahbarlikni orzu qiladigan qizlarga qanday maslahatlar bergan bo‘lardingiz?

Birinchisi va eng asosiysi: mas’uliyatdan qo‘rqmang.

Bu maslahatni nafaqat qizlar, yoshi va jinsidan qat’i nazar hammaga bergan bo‘lardim. O‘z so‘zingiz, qarorlaringiz uchun mas’uliyatdan qo‘rqmaslik muhim. Bu karyera pillapoyasida ko‘tarilishga katta yordam beradi. Ko‘p hollarda aynan shunday kishilar lavozimda tezroq ko‘tarila olishadi.

Ikkinchi maslahat: yangi vazifalar va yo‘nalishlarni o‘rganing.

Hammamiz insonmiz va qulaylik doirasida bo‘lishni yaxshi ko‘ramiz. Muvaffaqqiyatga erishish yangi sohalarni kashf etish va qo‘shimcha ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

O‘zim bilmagan yoki qila olmaydigan yangi ishlarda o‘zimni sinab ko‘raman. Karyeram boshida ham shunday bo‘lgan, hozir ham shunday. Bu dunyoqarashni kengaytiradi. Ko‘proq narsani uddalay olishingizni o‘zingizga isbotlaysiz. Bundan qo‘rqmaslik kerak.

Uchinchi maslahat: o‘rganishdan to‘xtamang. Chunki ma’lumot juda ko‘p, hamma narsa jadal o‘zgarishda, bilimlar tezda dolzarbligini yo‘qotishi mumkin. Doimiy tarzda yangi bilimlar o‘zlashtirish va ma’lumotlar bilan tanishish muhim. Nafaqat kitob o‘qish va seminarlarga qatnash, balki amaliy tajribani ham oshirib borish lozim. Amaliy tajriba va kuzatuvlar orqali ko‘zni pishitish – bu malakani oshirishda muhim ahamiyatga ega.

– O‘zbekistonda tug‘ilib voyaga yetgansiz. Siz uchun quvvat manbayi nima?

– Tog‘lar. Butun bolaligim Chimyon tog‘larida o‘tgan. Dam olish kunlarida tog‘larga chiqish jon-u dilim. Tabiat, toza havo, zabt etilgan cho‘qqi va nigohlarim qarshisidagi go‘zal manzara menga har doim kuch bag‘ishlaydi. Bundan ham a’loroq yana nima bo‘lishi mumkin?

Katta Chimyon tog‘ini yaxshi ko‘raman. Uning eng baland nuqtasi – 3309 metr. Bu tog‘da mashg‘ulotlar bilan ko‘p vaqtimni o‘tkazganman, ko‘p kuch sarflaganman. Bu harakatlarning bari o‘zini oqlaydi, chunki ular menga bebaho tajriba berdi, fe’limni tobladi. Professional sport bilan shug‘ullanish ko‘p narsani, eng asosiysi, maqsadlarga erishishni o‘rgatadi.

Murad NASIROV suhbatlashdi



SHERZODXON QUDRATXO'JA

RAM ZMIZ BO'L SIN

Matn: Saidaziz A'ZAMOV

O'ZBEKISTONLIKLAR HAQIDAGI PRIMITIV TASAVVURLARDAN QUTULISHIMIZ ZARUR.

AVLONIY YUZ YIL OLDIN AYTGAN GAP HALIGACHA DOLZARB: TARBIYA – HAYOT-MAMOT MASALASI.

INTELLEKTUAL SALOHIYATI KUCHLI ODAMLAR – DAVLAT UCHUN KATTA BOYLIK.

HAR BIR O'ZBEKISTONLIK KICHIK BO'LSA HAM O'ZGARISH QILA OLADI.

"MEN O'ZBEKMAN, O'ZIMGA BEKMAN" DEB O'ZIGA BINO QO'YISH MILLATNI TANAZZULGA OLIB KELADI.



Intervyu kuni. 18:30. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti kampusida meni iliq kutib olishdi, “rektor yig‘ilish o‘tkazayotgandi” deb, rektorat bo‘ylab tur o‘tkazishdi. Hujjatlar qabuli va imtihon Toshkentdagi boshqa universitet binosida tashkil qilingan, mahalla ichidagi kollej va sobiq bog‘cha binosi qayta qurilib, ushbu universitet tashkil etilgan paytdan beri ishlayotgan mas’ul rahbar meni kichik muzey bilan tanishtira ketdi. 2018-yilda Sherzodxon Qudratxo‘ja o‘z jamoasi bilan “Milliy universitetning 16-fakulteti” bo‘lgan jurfakda kafedra mudiri bo‘lib ishlagan vaqtda mamlakat Prezidenti qo‘llovi bilan universitetning qurilish ishlari boshlangani, ilk yilda 119 ta talaba qabul qilingani haqida menga so‘zlab berishdi. Keyin faxr bilan bugungi holat haqida aytishdi: O‘zJOKU umumiy 25 qavatdan iborat, o‘z kutubxonasi, tele-radio studiyalari, media markazi, zamonaviy o‘quv binolari va yotoqxonalari, deyarli 4000 nafar talabasi, 350 nafar professor-o‘qituvchilari bo‘lgan, 17 ta jurnalistika yo‘nalishlari hamda siyosatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar o‘qitiladigan istiqbolli, yirik universitetga aylandi.

Rektor qabuliga kirdim, yig‘ilish tugab, yangi darsliklar ustida ishlayotgan professor-o‘qituvchilar chiqib ketayotganida Sherzodxon Qudratxo‘ja ularni stoli oxirida uyulib turgan kitoblar tomonga chaqirdi: ***“Mahallamizdagi 260-maktabga yuboryapman. Bir nusxadan bersam, bolalar talashib qolmasmikan? Yaxshisi, ikkitadan beray. Mana qarang: “To‘rtinchi sanoat inqilobi”, “Molxona”, “Latte omili”... Xo‘-o‘sh, bunisi nima ekan? Vo, “Gruziya muvaffaqiyatga qanday erishdi?”, mana, “Qo‘rqma”, “Mehrobdan chayon”... Shu kitoblar maktabda yo‘q ekan-da...”***

18:40. E’zoz, izzat-ikrom bilan kutib olindim. Choy va shirinliklar bunday joylarda taklif qilinishi alohida aytib o‘tiladigan gap emas. Hurmatli rektor kechagina kimdir vohadan eltgan tandir go‘shtga ham og‘zim tegishini istadi. Shunday samimiyat bilan suhbatni “o‘zbekistonlik” tushunchasi, bizning o‘zimiz, o‘zligimiz haqida gaplashishdan boshladik...

ART RESTORAN IROQI DO‘PPI INSON KAPITALI FLEXIBLE

Istiqlol tongida o‘zligimizni anglashni boshlaganimizda “O‘zbekiston” deganda laganlar-u choponlar, qirmizi rang so‘zanalar yoki art restoranlar misolida loysuvoq devorlar ko‘z oldimizga keltirardik. O‘zbek tilida bitta ham so‘zni bilmaydigan tanishlarim bor, ular bayramlarda pushti, sariq rangli adras kiyimlarimizni kiyishardi. Millat sifatidagi bizning mushtarak qadriyatlarimiz faqat taomlarimiz, kiyimlarimiz, kuy va raqslarimiz emas. Kishining ayrim tadbirlarda boshiga iroqi do‘ppi qo‘ndirib olishi uni o‘zbek yoki o‘zbekistonlik qilib qo‘ymaydi.

“O‘zbekistonlik” deganda, xususan, xorijda biz shunday tashqi anturajimizga asoslangan qarashni o‘zimiz shakllantirdik, ammo bu juda primitiv tasavvur va biz buni o‘zgartishimiz kerak.

Men uchun “o‘zbekistonlik” – bu katta tushuncha. Bu – bizda shakllanib, rivoj topib borayotgan inson kapitali. O‘zbekistonliklar – nafaqat o‘zbeklarni, balki yurtimizga o‘zini mansub deb hisoblovchi barcha fuqarolarimiz va chet eldagi vatandoshlarimizni qamragan katta sinf. Qaysi viloyat yoki hududda tug‘ilib, katta bo‘lmasin, O‘zbekiston xalqi vakillari o‘zini “O‘zbekistondanman”, “o‘zbekistonlikman” deb bilishi va tanishtirishi muhim.

– Shu katta xalq bo‘lgan o‘zbekistonliklarni nima birlashtira oladi o‘zi?

– Barcha o‘zbekistonliklarni osh birlashtiradi. Boshqacha aytganda, ularni ikki narsa: to‘y yoki aza birlashtiradi. Men bunga ham ijobiy qaramayman. Bu yetarli emas. Buyuk jadidchimiz Alixonto‘ra Sog‘uniy aytgan edi: “Agar o‘zbeklar boshqa ishlarga ham oshga kelgandek birlashib yig‘ila olganlarida edi, dunyoda bundan qudratli millat bo‘lmas edi”. Shuning uchun bizni dasturxon, yeb-ichar, choyxona emas, bizni o‘z muammolarimiz, masalan, ilm-fan, ta’limga hissa qo‘shish masalasi jipslashtirishi zarur.

– Masalan, qanday qilib?

– Misol uchun, O‘zbekistonda 10 750 ta maktab bor. Davlat ularni birlamchi sharoitlar bilan ta’minlayapti, o‘qituvchi va xizmatchilarga maosh berishga 5-6 trln so‘m pul ketyapti. Ammo shuncha maktabga smart doskalar, eng so‘nggi kitoblar yoki boshqa zamonaviy qulayliklarni birdaniga yetkazib berib bo‘lmaydi. Shu masala yuzasidan o‘zimizdagi va xorijdagi o‘zbekistonliklar o‘z sa’y-harakatlarini birlashtirishi darkor.

Bugun dunyo bo‘ylab qayerga qaramang, iste’dodlar uchun kurash ketyapti. Hindlar va xitoyliklarni olaylik. Nazarimda, ular o‘rtasida yaqin yillarda katta raqobat bo‘ladi. Nima uchun hindistonliklar BMT va dunyodagi boshqa nufuzli xalqaro va gigant transmilliy kompaniya korporatsiyalarda top menejerlarga aylanishyapti, ulardan ko‘p sohalarda yetuk mutaxassislar yetishib chiqyapti? Nima uchun har bir rivojlangan davlat poytaxtlari va yirik shaharlarda “chinatown”lar bor? Nima uchun iPhone Xitoyda ishlab chiqariladi? Bu hammasi aholi ko‘p bo‘lsa, uning mehnatga layoqatli qismi ham, uning million odamdan bitta chiqadigan noyob iste’dodlari ham tabiiy ravishda ko‘p bo‘lishidek haqiqatga borib taqaladi. Ehtimollar nazariyasiga ko‘ra, ko‘pdan “daho” va noyob iqtidorlar chiqishi ehtimoli ko‘p bo‘ladi.

Hindistonda ingliz tili rasmiy til, ko‘plab hindlar ingliz tilini mukammal darajada biladi va dunyo bo‘ylab imkoniyatlar sari intiladi. Hindistonlik yoki xitoylik yoshlar moslashuvchan, hayot tarzi yangiliklarini dinamik va tez o‘zlashtira oladi, “flexible”. Yana ularda havas qilib, intilishga arzigulik misollar ko‘p.



– Biz bu yo‘lda qayerdamiz va nimalar qilishimiz kerak?

– Qarang, bu jarayonga kirib borishimiz uchun bizda katta imkoniyat, demografik dividend mavjud. Shu kunlarda 37 million bo‘ldik. Shoyad yangi iste’dodlar chiqsa. Aholimiz uchun sifatli tibbiyot va ta’limni ta’minlash yaxshi ketyapti. Yoshlarimiz ilmli, bilimli bo‘lishsa, ular iqtisodiyotga katta hissa qo‘shishi mumkin. Ba’zida, afsuski, “o‘zbekistonlik” deganda odamlar nigohida birinchi navbatda xorijiy mamlakatlardagi mezbon xalq qilishni istamaydigan ishlarni bajaradigan mehnat muhojirlari shakllanadi. Albatta, bu ko‘p yillar yurtimizda shakllangan zaif iqtisodiyot bilan bog‘liq bo‘ldi, bu bosqichdan ko‘p millatlar o‘tgan. Lekin yangi avlod o‘z oldiga katta maqsadlarni qo‘yishi va jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi lozim. Men buni “Maslow” piramidasiga o‘xshataman: avval qorinni to‘yg‘azamiz, keyin boshqa masalalarni o‘ylaymiz. Menimcha, biz mana shu yangi bosqichga keldik. Ta’limni rivojlantirar ekanmiz, albatta ham oilada, ham maktabda, ham jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni, tarbiyani kuchaytirishimiz kerak.

Yana bir misol: Olmoniyadagi turk immigrantlari tarixiga qarang. Urushda mag‘lub bo‘lgan va nufuzi kamaygan Olmoniya Turkiyadan millionlab migrantlarni qabul qilgan. Ular qora ishlarda ishlagan, ammo yillar o‘tib, bugun ularning farzandlari yirik bizneslar egasi, turli sohalarda yetuk professionallar bo‘lib yetishdi. Hattoki, Bundestagga [Germaniya milliy parlamenti – tahr.] ham turk millatiga mansub vakillar saylangan.

– Yoshlarimiz katta maqsad qo‘yishi kerak, deyapsiz. O‘zbekistonliklar uchun umumiy maqsad va g‘oya qanday bo‘lishi kerak?

– Qarang, turklarda qanday chiroyli g‘oya bor: Ne mutlu Türk’üm diyene! [Turkman degan odam naqadar baxtli – tahr.]. Yoki fransuzlar “Liberté, Égalité, Fraternité” [Hurriyat, Tenglik, Hamjihatlik – tahr.] deydi, AQSHda “Amerika orzusi” bor, masalan.

Men o‘zbekistonliklar o‘zini katta mamlakatda bir iste’molchi yoki hech nimani hal qilmayman deb emas, O‘zbekistonning rivojlanishiga kichkina bo‘lsa ham hissa qo‘sha olaman, deb fikrlashlarini xohlardim. Shuni anglab, shunday oliy maqsadga intilib yashasa arziydi.

Uning uchun biz O‘zbekistonni, uning asosiy muammolari, jug‘rofiyasi, tarixi va o‘zbek tilini yaxshi bilishimiz talab qilinadi. Axir, qanday qilib o‘z vataningizni bilmay turib, uni seva olasiz va aksincha, sevmay turib, unga qanday qilib hissa qo‘shasiz?

MASLOW BUNDESTAG AMERIKA ORZUSI IQRO, IQRO, IQRO

Taassufki, xorijga ketgan o‘zbekistonliklarning u yerda katta bo‘layotgan farzandlarini qo‘ya turing, mamlakatimizning o‘zida ulg‘ayayotgan bolalar o‘zbek tilini yaxshi bilmaydi. Axir, til – bu bir millatning boshqalaridan ajratib turuvchi, o‘ziga xos qismi-ku! Hamyurtlarimiz “farzandim uchta tilni biladi” deb maqtanishadi, o‘g‘il-qizlarini chet tilli maktablarga berishadi, lekin o‘zbek tilidagi so‘zlarni bilishmaydi yoki umuman o‘zbek tilida gaplasha olishmaydi.

Yana afsus bilan aytaman, ko‘pchilik yoshlar O‘zbekistondan bo‘la turib, u haqida ko‘p narsa bilmaydi. Masalan, “double-landlocked country” biz uchun qanday muammo ekanligini yoxud Andijon O‘zbekiston hududining necha foizini egallaydi va u yerda qancha odam yashaydi, bilishadimi?

(19:20. Ancha-muncha suhbatlashib qo‘yganimizga e’tibor qaratib, rektorga teran suhbat, men to‘plagan qiziqarli material uchun minnatdorlik bildirdim).

– Yana nimalar haqida gapirgan bo‘lardingiz-u, men so‘ramadim?

– Shuni qo‘rqmay yozing: menga bu gapni mana shunaqa noto‘g‘ri ishlatishlari yoqmaydi. O‘zimga bekman, deb turib faqat o‘zini o‘ylash – bu xudbinlik va kaltabinlik. Ayniqsa, jamiyatda ma’lum darajaga erishgandan keyin yoki boylik orttirgandan keyin shunday tushuncha bilan yashash noto‘g‘ri.

Biz hammamiz o‘tib ketamiz, bizdan faqat qilgan yaxshi ishlarimiz va ulashgan ilmimiz qoladi. Dunyoda ne-ne boylar o‘tib ketdi, biz ularni eslamaymiz-ku! Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Xorazmiylarni eslaymiz, ming yil o‘tsa ham. Ular o‘zimga bekman, deb o‘zi uchun yashamagan. Imom al-Buxoriy o‘zi uchun shuncha hadis to‘plaganmi, masalan? Rasuli Akram (s.a.v.) barcha musulmonlar uchun husni-xulq namunasi bo‘lib, qanday yashash kerakligini ko‘rsatib ketmadilarmi? Axir, ular kichkina bir kulbada yashab, oddiy bo‘yrada yotganlar, peshinda uylariga kelgan ne’matlarni kechgacha ehtiyojmandlarga tarqatganlar. U kishining ikki kuraklari jakuzi ko‘rmagan, haftalab taomlanmaganlar, to‘qlik effekti bo‘lishi uchun qorinlariga tosh bog‘lab yotganlar. Arabistonda yashab, bir marta haj, to‘rt marta umra qilganlar, xolos. Hozir o‘zimizda 10-15 marta umra qilganlar bor – farzandining kundaligiga qaramaydi, mahallasidagi maktab va poliklinika esa bir ahvolda...

Alloh taolo Qur’oni Karimda bizga “Iqro”, “Iqro”, “Iqro” (O‘qing) deb aytadi. Ilm olish biz uchun farz hisoblanadi. Ilm olishda gap ko‘p, aksariyat muammolarimizning yechimi ham o‘qib-o‘rganishda, millat sifatida rivojlanishimiz ham intellektual salohiyatimiz oshishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.



BAXT LI SON

OKSANA CHUSOVITINA

AKADEMIYA

IO yil davomida Germaniyada yashashiga to‘g‘ri kelgan Oksana o‘z vataniga qaytish fursatini kutardi. Musobaqalarda mamlakatga bir necha bor g‘alaba keltirgani uchun ham bu davlatda uni yaxshi ko‘rishar, e’zozlashardi. Hammasi yaxshi edi, ammo doim Berlin aeroportiga qo‘narkan, Oksananing ko‘ziga yosh kelardi. O‘g‘li Alisher kasallikni yenggani hamonoq o‘z yurtiga qaytdi. Negaki, u faqat shu yerda, O‘zbekistondagina o’zini baxtli his qilardi.

Bu hissiyotni tushuntirib berish qiyin. Bir-birimizga qarama-qarshi o‘tirarkanmiz, Oksana tuyg‘ularini ifodalash uchun so‘z axtardi va oddiygina qilib shunday dedi: o‘z uyim – o‘lan to‘shagim, qalbim shu yerda...

Ehtimol, o‘z Vataningni nega sevishingni anglash, anglatish imkonsizdir. Nega shu makondagi hayotingdan mamnunsan, nega bu yerdagi muammolaring sen uchun bir muncha yengil?! Keling, Oksananing his-tuyg‘ulari ifodasini, tasvirini suhbatimiz davomida bilib olamiz.

U o‘zi qo‘l urgan har qanday ishga mehr bilan yondashadi. Hayotida sodir bo‘lgan barcha og‘ir-u yengilliklarni minnatdorlik bilan qabul qilishga o‘rgandi va bunda davom etmoqda. Baxtli bo‘lishni xohladi va bunga o‘zining qat’iyati, qolaversa qaysarligi bilan erishdi.

Endilikda u sport gimnastikasi akademiyasi direktori vazifasini zimmasiga olgan. Tokio Olimpiadasidan keyin faoliyatini yakunlaganini e’lon qilgach, Prezident Shavkat Mirziyoyev unga o‘z nomidagi akademiyani ochish va uni boshqarishni taklif qildi. Azaliy orzusi bilan mos bu taklifdan behad baxtiyor bo‘ldi.

– O‘zbek tilini o‘rganishga va’da bergandingiz...

– O‘rgandim. (Oksana kuladi) Qurilishda ish boshqaruvchi bo‘lishim mumkin. Dakki berishni ham qoyillataman.

U akademiyaga qabul qilgan o‘g‘il-qizlar uchun ish boshqaruvchi, quruvchi, direktor, psixolog va hattoki enaga bo‘lishiga to‘g‘ri keldi. Forma masalasi jiddiy to‘siq bo‘ldi. Ota-onalar bolalarining gimnastika bilan shug‘ullanishini xohlashadi-yu, lekin cho‘milish kiyimlarini qabul qila olishmaydi.

– Hozir kombinezonlarda ham chiqish qilsa bo‘ladi. Men ota-onalarga aytaman, gimnastika hatto arab mamlakatlarida ham mashhur yo‘nalish, qizlar yopiq liboslarda qatnashishadi, deb. Aksariyat ota-onalar har qanday sport turidagi karyerani aynan gimnastikadan boshlash mumkinligini bilmaydi. Bu sport turi yakka kurashlarda ham, boksda ham, yugurish yoki sakrashda ham birdek asos vazifasini o‘taydi. 3-4 yil qatnash va istagan boshqa yo‘nalishingga o‘tib ketaversa bo‘ladi, jon deb olishadi. Chunki koordinatsiya bor, cho‘ziluvchanlik bor, miya butun.

– Miya?

– Albatta. Shunday qoida bor: agar maktabda yomon o‘qisang, sendan yaxshi sportchi chiqmaydi. Axir, bu murakkab neyron aloqalarni o‘z ichiga oladi. Boshingiz va tanangiz bir butundir, soniya ichida siz qo‘llaringizni qanday ko‘tarishni, tanangizni qanday burishni, qanday qo‘zg‘alish va sakrashni, harakatlaringizni qanday muvofiqlashtirishni hal qilishingiz kerak. Aql bo‘lmasa, sport ham barbod bo‘ladi.

Shuningdek, Oksana rahbarligidagi akademiyada tartib-intizom juda qattiq. Bu ko‘pchilikka, aniqrog‘i, hech kimga yoqmaydi. Ota-onalar majlisida Oksana ularga murabbiydan yashirincha bolalarga shirinliklar bermaslikni tushuntiradi, ular sportchilarga ruxsat etilgan me’yorda qancha bo‘lsa, shuncha olishadi. U bolalarga “voy qo‘llari shilinibdi, mashg‘ulotga bormaydi”, deb achinish kerakmasligini ta’kidlaydi.

Ota-onalar bilan bo‘lgan uchrashuvda Oksana bolalar uyga faqatgina ta’tilda borishlarini e’lon qildi. Chunki ular uydan shardek semirib qaytishadi.

Oksana har qanday shakldagi qo‘pollikni xushlamaydi. Agar u o‘g‘il bolalar qizlarga yomon munosabatda bo‘layotgani yoki farrosh va oshpazlarga qo‘pollik qilishayotganini sezsa, bundaylarni hech ikkilanmay haydab yuborishi mumkin.

Hozirda akademiya deyarli tayyor, jihozlarni olib kirish qoldi, xolos. Oksana sport jihozlarini kamida o‘n besh yil xizmat qiladigan turdagi yevropacha sifatni xohlaydi. Bunday uskunada o‘rgatish oson. To‘g‘ri, qimmat, lekin gap O‘zbekistonning obro‘si haqida ketganda Oksana bilan savdolashib ko‘ring-chi!



OILA

– Turmush o‘rtog‘ingiz yaxshi. Ichmaydi, chekmaydi, urmaydi.

– Ha. Bu borada omadim chopgan.

Oksaning turmush o‘rtog‘i Bahodir Qurbonov yunon-rum kurashchisi, Osiyo chempioni. Alisher kasal bo‘lib qolib, uni davolatish uchun Germaniyaga ketishganida, u o‘z faoliyatini Oksananing karyerasi uchun qurbon qildi. Kimdir “uyda” qolib, barcha muammolarni hal qilishi, yana kimdir esa mashg‘ulotlarga qatnashishi kerak edi. Shunda Bahodir Isoqovich Oksanani, Alisherni, muolajalar, ayolining mashg‘ulotlari, begona mentalitet, ro‘zg‘or va yana bir dunyo vazifalarni o‘z yelkasiga oldi.

– Ba’zan o‘ylab qolaman, men u kabi yo‘l tuta olarmidim? O‘ylashimcha, yo‘q, bu juda katta qurbonlik.

– O‘zingizni ayblayapsiz...

– Yo‘q, albatta. U doim meni hamma narsadan asraydi, himoya qiladi, barcha muammolarni hal qiladi.

– Kim boshliq?

– Bizda boshliq yo‘q. Biz hammasini birgalikda hal qilamiz. Uning ham o‘ziga yarasha fe’l-atvori bor, lekin 25 yil birga yashashni uddasidan chiqdik. 25 yil... Ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi. Bahodir, yildan-yilga menga bo‘lgan sevging kamayib borayotgandek, deydi. Men esa, unday emas, bizning muhabbatimiz yig‘ilib boradigan xususiyatga ega bo‘lsa kerak, deyman.

– Qaynona?

– Men uni juda yaxshi ko‘rardim. Afsuski, u endi oramizda yo‘q. Ularning oilasida sakkizta farzand, hammasi meni yoqtirishadi. Ishtixonga, ularnikiga kelin bo‘lib tushganimda, hech narsani bilmasdim, kenja kelin edim. Shunda u hammaga tayinlagandi, Oksanaga tegmanglar, u shug‘ullanyapti, charchab qoladi. Ovqatni pishirishga boshqa odam topiladi, deb.

SHOHSUPA

– Juda baxtli insonsiz, Oksana...

- Shohsupada turganingda va madhiya yangrayotganida barcha qiyinchiliklar, jarohatlar, og‘riq va mashaqqatli mehnatlaring evaziga buni uddalaganing haqida o‘ylaysan. Aslida har gal o‘zing bilan kurashasan, axir. Odamlar, men sendek bo‘lolmayman, men uddalolmayman, deyishlarini hech tushunolmayman. Axir, siz hatto urinib ham ko‘rmadingiz! Toki muvaffaqiyatga erishmaguncha, olg‘a yurish, qayta-qayta urinib ko‘raverish kerak.

– Raqiblar esa bari yosh va baquvvat...

– Ha. Men ularning hammasini taniyman, nimaga qodirliklarini bilaman.

– Kamiga tanqidchilar Oksana allaqachon qarib qoldi, u endi hadeb o‘zi qatnashavermasdan, bolalarga ham o‘rgatishi kerak, deb jar solishadi...

– Modomiki ularga shu kerak ekan, o‘zlari o‘rgataverishsin. Nega ular men nima qilishim kerakligini hal qilishni yaxshi ko‘rishadi?

U Tokioda sportni tark etishini e’lon qildi. Biroz vaqt o‘tib esa, faoliyatini tiklaganini ma’lum qilib, Osiyo o‘yinlariga bordi va finalga chiqdi. Hozir esa Parij Olimpiadasiga tayyorgarlik ko‘ryapti. Jahon Kubogi bosqichlari 15-fevraldan start oldi. U yerda Oksana birinchi yoki ikkinchi o‘rinni olishi kerak. Bu ham oson emas.

– Hozir tayyorlanyapman, Xudo xohlasa, albatta, uddalayman. Tokioda men atrofdagilarning iddaolari ta’siriga tushib qoldim. Ular allaqachon faoliyatimni tugatish vaqti kelgani haqida gapirishardi. Boshqa hech qachon bunday qilmayman, bundan buyon faqat o‘zim to‘g‘ri deb bilgan yo‘lni tutaman. Umuman, odamlar qiziq. Bir qarasang, “bo‘ldi, sakrashni yig‘ishtir, boshqalarga ham o‘rgat”, deyishadi. Medal bilan qaytganingda esa, xuddi o‘sha odamlar, “barakalla, biz senga ishonardik”, deyishadi. Men olimpiadaga borib, medal olishni orzu qilmagan bironta sportchini bilmayman. Bordi-yu kimdir menga g‘olib bo‘lolmasligimni aniq bashorat qilib berganida ham, baribir borgan bo‘lardim. Bu mening hayotim. Siz hech qachon nima bo‘lishini oldindan bilolmaysiz, bu sport turida hech nimani bashorat qilib bo‘lmaydi. Ba’zan sen 100% tayyor bo‘la turib, muvaffaqiyatsizlikka uchrashing mumkin. Ba’zida esa uncha yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan bo‘lasan-u, lekin g‘alabaga erishasan. Keyin esa qanday qilib bunday bo‘lganiga tushunolmay qolasan. Bu ham bir omad.

Farzandining dardga chalinishi uni omadsizliklardan tushkunlikka tushmaslikka o‘rgatdi. Umr yo‘ldoshining muhabbati oyoqqa turishiga va sinib qolmasligiga yordam berdi. Sport uni afsonaga aylantirdi. O‘zbekiston uning eng katta orzusini ro‘yobga chiqardi.

Oksanani baxtli qilgan omil esa uning o‘zi edi. Chunki inson irodasining toblanishi unga o‘zidan boshqa hech kim yordam berolmasligini esga soladi.

Sasha IVANYUJENKO suhbatlashdi





olimpiada

TIMUR KAPADZE

debyuti

REKORD

2024-yil 29-aprel. Indoneziyaga qarshi kechgan muhim futbol uchrashuvida 2:0 hisob bilan jamoamiz g'alaba qozondi. O'ylab ko'rilsa, buning o'zi tarixiy bir natija, hali hech qachon bo'lmagan bir voqea edi.

Aynan shu matchdagi muvaffaqiyatdan keyin O'zbekistonning futbol bo'yicha Olimpiya terma jamoasi Parij-2024 o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritgan edi. Gap shundaki, mamlakatimiz hali hech qachon Olimpiada o'yinlarida jamoaviy sport turlari bo'yicha qatnashmagandi.



MAS’ULIYAT

Olimpiya o‘yinlariga o‘tish bizning uzoq kutilgan orzumiz edi. Biz bu uchun naqd 3,5 yil ishladik. “Olimpik” futbol klubi ham ayni shu maqsadda tashkil qilingan edi. Asosiy tarkibni ham, zaxirani ham kuchaytirdik.

Ammo oldimizga qo‘ygan katta natija – O‘zbekiston tarixida birinchi marta sodir bo‘lgan voqelikni his qilish, uni nishonlashga vaqtimiz bo‘lmadi. Parijdagi Olimpiadaga juda oz vaqt qolgan edi. Bizning oldimizga qo‘yilgan vazifani uddaladik, Olimpiadaga chiqdik, lekin albatta undan keyin “Parijga borib, shunchaki o‘yin ko‘rsatib kelsak bo‘ldi,” deya olmasdik. Bizni millionlab muxlislar kuzatishi va bizdan g‘alaba kutishini tushunardik. Bu katta mas’uliyat edi.

QO‘LLOV

Iyun oyining boshida terma jamoamizning rasmiy madhiyasi bo‘lmish “O‘zbekistonlik” qo‘shig‘i uchun videorolik tasvirga olinayotgan pavilyonga bordik. Internetda va mediada ko‘zga ko‘ringan shaxslar, bloger, sharhlovchi, san’atkorlar, yoshlar to‘plangan ekan. “Bu qanaqadir ajoyib loyihaning boshlanishi,” dedim o‘zimga o‘zim.

Haqiqatan, futbolchilarimiz uchun xalqimizning qo‘llab-quvvatlashi juda zarur edi. Tez orada videorolik premyera qilindi va u tarmoqlarda, yetakchi telekanallarda, hamma yerda aylandi. “Men o‘zbekistonlikman – qonimda g‘alaba”, kuzatishimcha, qo‘shiqning ko‘pchilik qaytarib aytib yuradigan motivatsion fragmenti bo‘ldi.

HAVAS

Futbol bo‘yicha Olimpiya terma jamoamizning har bir a’zosida nafaqat o‘zidagi yuksak iqtidor, tirishqoqlik va mehnatkashlik, balki aynan shu qirralar yana ham rivojlanishiga hissa qo‘shgan oila va yaqinlar bor. Agar ularning ota-onasi va atrofidagilari “nima qilasan shu futbolni, ertadan kechgacha koptok tepgandan ko‘ra bo‘ladigan ish bilan shug‘ullan,” deganida hozir biz Parij-2024 o‘yinlariga chiqa olmas ham edik.

Yana futbolchilarga havas ham mahoratli sportchilar yetishib chiqishida muhim o‘rin tutadi. Uzbekistan’s club tashabbusi bilan ko‘plab tashkilot va kompaniyalar, mashhurlar, ommaviy axborot vositalari birlashib amalga oshirgan #qonimdagalaba chellenjida shunday ajoyib jihat bor edi. Bu ham bo‘lsa, millionlab hamyurtlarimizda katta ishni uddalagan futbolchilarimizga, umuman, qiyinchiliklar bilan muvaffaqiyatga intilayotgan o‘zbekistonliklarga havasni uyg‘otishdir.

Instagram hozir yoshlar orasida ham, hatto farzand tarbiya qilayotgan o‘rta yoshli insonlar orasida ham ommalashgan. Aynan u yerda olimpiadachi futbolchilarimizni qo‘llab-quvvatlagan holda yuzlab kreativ videolar yaratilishi bizning ham kayfiyatimizni ko‘tardi, muxlislarimiz ishtahasini ham ochdi. Ular bizga ko‘proq qo‘llov va mehr bilan qarashiga hissa qo‘shdi.

DEBYUT

Olimpiadadagi ilk uchrashuv, Ispaniyaga qarshi kechgan match yakunida tabloda terma jamoamiz mag‘lubiyatini ko‘rsatuvchi raqamlar yonib turardi. Lekin biz aynan o‘sha kuni katta bir yutuqni qo‘lga kiritganimizni his qildik. Biz chinakam jamoaviylik, bir tanu bir jon bo‘la olishga erishdik. Olimpiadaga ilk bor chiqqan terma sifatida bunday musobaqalarda bitta oltin, ikkita kumush medali sohibi bo‘la olgan favorit bir jamoaga qarshi munosib o‘yin ko‘rsatdik.

Bizda kuchligina 12-o‘yinchi ham bor edi. Buni ham alohida aytib o‘tish kerak. Olimpiya o‘yinlariga mezbonlik qilayotgan shaharga uzoq bo‘lmagan yerdan kelgan minglab ispan tomoshabinlar ovozidan balandroq hayqira olgan, bizga ta’riflash qiyin bir shuurni, ruhni sovg‘a qila olgan muxlislar bor edi. Ular nafaqat bizning, balki stadiondagi barchaning, xususan, boshqa mamlakatlar jurnalistlarining ham e’tiborini qozondi.

Men yigitlarga doim uqtirardim: “futbol shunday sportki, yutqizganingizda sizlardan yomon odam bo‘lmaydi. Shuning uchun doim o‘z ustingizda ishlab, balandroq marralarga intilavering”. Futbolning shunday, qandaydir bir adolatsiz jihati bordek edi. Lekin Olimpiada davomidagi keyingi o‘yinlarda mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsak ham, haqiqiy muxlislar biz bilan ekanini his qilib turdik.

Parij-2024 musobaqalari tugadi, ammo futbol bo‘yicha Olimpiya terma jamoamiz hamda milliy terma jamoamiz oldida hali ko‘p o‘yinlar turibdi. O‘zbek futboli yangi darajaga ko‘tarilishi nuqtayi nazardan hali hammasi endi boshlanyapti, menimcha.

Top 10



UTKIR ROZIKOV (O‘ZBEKISTON)
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori o‘rinbosari, professor



RAVSHAN SABIROV (O‘ZBEKISTON)
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Biofizika va biokimyo instituti direktori



ANVAR ZOHIDOV (AQSH)
Dallasdagi Texas universitetining Nanotexnologiya instituti direktori o‘rinbosari. Fizika fanlari doktori, professor



ALISHER QODIROV (AVSTRALIYA)
Ko‘rtin universiteti Fizika va astronomiya kafedrasi professori

Progressiv islohotlar markazi “Uzbekistan’s club” jurnali bilan hamkorlikda “Top-10 o‘zbekistonlik olimlar” ro‘yxatini tuzdi. Ushbu ro‘yxat nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda yashab, ilmiy izlanish olib borayotgan vatandoshlarni qamrab oladi.

Hamyurt tadqiqotchilar reytingi yoshlarni ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohalariga ruhlantirish va yo‘naltirish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishiga aminmiz.

Ro‘yxatni shakllantirishda 300 nafardan ortiq o‘zbekistonlik olimlarning ilmiy faoliyati o‘rganib chiqildi. Shu bilan birga, ularning tadqiqotlari – Google Scholar, Scopus va Web of Science fanga taalluqli ma’lumotlar bazalaridagi H-indeksi baholandi hamda mahalliy va xorijiy jamoatchilik orasida, OAVda, ijtimoiy tarmoqlarda faolligi va taniqliligi inobatga olindi.

PIM | PROGRESSIV ISLOHOTLAR MARKAZI

* UZBEKISTAN’S CLUB VERSIYASIGA KO‘RA

O‘ZBEKISTONLIK OLIMLAR



BOTIR QOBILOV (AQSH)
Harvard universiteti doktoranti, Texas universiteti professori



AZIZA SHONAZAROVA (AQSH)
Kolumbiya universiteti professori, olima



RAUFXON SALAXO‘JAYEV (O‘ZBEKISTON)
ERGO-Analytics direktori / Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori



DILFUZA EGAMBERDIYEVA (O‘ZBEKISTON)
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Biologik tadqiqotlar va oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyasi mudiri, mikrobiolog



TEMUR YUNUSOV (BUYUK BRITANIYA)
Kembrij universitetining biologiya fanlari doktori



UTKUR MIRSAIDOV (SINGAPUR)
Singapur milliy universiteti dotsenti



OLTIN CHINOR

KORPORATIV IJTIMOIY MAS’ULIYAT BO‘YICHA MILLIY MUKOFOT

Taraqqiy etgan korporativ dunyo allaqachon bir haqiqatni angladi: bardavom va barqaror kompaniya bo‘lish uchun ham daromad qilish, ham jamiyatga foyda keltirishni maqsad qilish zarur. O‘zini hurmat qilgan, o‘z steykholderlari oldidagi obro‘si haqida qayg‘urgan bizneslar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlari aks etgan moliyaviy hisobotlarini tayyorlaydi. Balki ular nomoliyaviy hisobdorlik haqida ham o‘ylaydilar. Bu ekologiya, ijtimoiy masalalar hamda korporativ boshqaruvni o‘z ichiga oluvchi ESG yoki korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) mezonlari orqali o'lchanadi.

Uzbekistan's club jurnali o‘zining ilk sonida, “Dolzarb” rukni ostida bu haqida maqola chiqargan va ijtimoiy mas'uliyatli kompaniyalarning TOP 7 taligi reytingini ham e'lon qilgan edi.

Uzbekistan's club jamoasi bunday reytinglarni tuzish va e'lon qilish mamlakatda jamiyat va atrof-muhit haqida jon kuydiradigan ishbilarmonlar va kompaniyalar ko‘payishini rag‘batlantirishiga ishonadi. Shuning uchun bu gal tahririyatimiz Progressiv islohotlar markazi, shuningdek, CARE CSR konsalting kompaniyasining ekspertlar guruhiga murojaat qilib, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yetakchi kompaniyalarning ESG va CSR loyihalarini aniqlashni so‘radi.

Ushbu loyihalar maxsus metodologiya orqali saralanib, baholandi hamda ulardan 7 tasi Uzbekistan's club yangi ta'sis etgan “Oltin Chinor” nomli korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha milliy mukofotiga loyiq topildi.

Chinor – bardavomlik, uzoq umr ko‘rish, mustahkamlik va ko‘pchilikka foyda keltirish ramzi. Nafaqat qisqa muddatda yaxshi daromad qilish, balki jamiyat uchun uzoq muddatli naf keltirib, barqaror bo'lishga intilayotgan kompaniyalarga aynan shu daraxt timsolidagi o‘ziga xos mukofotni topshirish an'anasini boshlashga qaror qildik.

TOP 7

IJTIMOIY MAS'ULIYATLI KOMPANIYALAR REYTINGI

Reyting metodologiyasi.
ESG va CSR tashabbuslari mahalliy ehtiyojlar va global trendlarni hisobga oluvchi 8 ta ko‘rsatkich asosida baholandi.

TBC BANK

TBC Ornaments (2023) – O‘zbekistonning turli hududlaridan to‘plangan 300dan ortiq milliy bezaklar raqamli katalogini yaratish.

Barqarorlik – 2
Ta’sir – 1,5
Shaffoflik – 0,5
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 0,8
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 1
Axloqiy mulohazalar – 0,5

Umumiy ball
8,3

SQB

Tadbirkorlar maktabi – turli viloyatlarda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning 120 dan ortiq vakillari, ishbilarmonlarni o‘qitadigan markazlar tashkil qilish.

Barqarorlik – 1,8
Ta’sir – 1,3
Shaffoflik – 0,6
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 0,4
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 1
Axloqiy mulohazalar – 0,7

Umumiy ball
7,8

uzum

Uzum IT akademiyasi (2024) – IT Park bilan hamkorlikda sohadagi dolzarb yo‘nalishlar bo‘yicha onlayn kurslarni yo‘lga qo‘yish va ularning bitiruvchilarini ishga hamda amaliyotga yo‘naltirish.

Barqarorlik – 1,5
Ta’sir – 1
Shaffoflik – 1
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 0
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 0,5
Axloqiy mulohazalar – 0,5

Umumiy ball
6,5

Agrobank

Suvchilar maktabi: 2-mavsum (2024) – 13 ta hududda 2030-yilgacha 10 mingta fermerni o‘qitish imkonini beruvchi o‘quv xonalari va tajriba maydonlari tashkil qilish.

Barqarorlik – 1,8
Ta’sir – 1,4
Shaffoflik – 0,8
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 1,2
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 0,8
Axloqiy mulohazalar – 0,7

Umumiy ball
8,7

Eko-kitoblar to‘plami – ekologik mavzularni bolalarga oson va qiziqarli tushuntiruvchi "Qahramonlar davri" nomli turkum kitoblar chop etish.

Barqarorlik – 1,5
Ta’sir – 1,5
Shaffoflik – 0,5
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 1
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 0,5
Axloqiy mulohazalar – 1

Umumiy ball
8

KAPITALBANK

Havodek zarur (2024) – O‘zbekiston bo‘ylab bankning filiallari hamda Uzum Market buyurtma tarqatish punktlarida 30 ta IQ Air havo monitoringi datchiklarini o‘rnatish.

Barqarorlik – 1,5
Ta’sir – 1
Shaffoflik – 0,5
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 0,5
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 0
Axloqiy mulohazalar – 1

Umumiy ball
6,5

payme

Ayol tadbirkorligi tarafida (2023-2024) – ayollarga o‘z biznesini PAYME media resurslarida reklama qilish imkonini berish hamda PizzaPitch Women tanlovi orqali ularga pul mukofoti va ekspert maslahatlari tadqim etish.

Barqarorlik – 1
Ta’sir – 1
Shaffoflik – 0,5
Ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik – 1
Ekologik muvofiqlik – 0
Manfaatdor tomonlar ishtiroki – 1
Innovatsion yondashuv – 0,5
Axloqiy mulohazalar – 0,5

Umumiy ball
5,5

PIM PROGRESSIV ISLOHOTLAR MARKAZI

SITORA ALEKSANDR

MEHNAT BOG‘IDA UNGAN GUL

Matn: Saidaziz A'ZAMOV



Endigina maktabni bitirgan o‘smir qiz Sitora Ashrafova “grin karta” lotereyasi g‘olibi bo‘lgan oilasi bilan okean ortiga boradi. O‘zbekistonliklar va umuman sobiq Sovet davlatlaridan kelgan immigrantlar zich joylashgan Nyu-Yorkning Bruklinida AQSH hayotiga moslashishni boshlaydi. Qahramonimiz bo‘lmish samarqandlik qiz avvaliga Borough Park mahallasidagi poyabzal sotadigan do‘konda ishlaydi. Kechasi esa universitetning sirtqi kurslarida o‘qiydi.

“Mahalliy universitetga boshida o‘qish uchun emas, ish so‘rab borganman. Ularda tozalovchilar uchun vakansiya bo‘lgan va meni ularning talabasi bo‘lgan taqdirimda ishga olishlarini aytganlar. Ammo ikki hafta ishlaganimdan keyin maoshimni olganimda “sening 16 yoshda ekaningni bilmagan edik, 18ga to‘lmagan bo‘lsang, bizda ishlay olmaysan, bu qonunga zid” deb aytishgan”, deb xotirlaydi Sitora.

“Universitetni tugatadigan yilimizda bizga ishga joylashish, ish beruvchilar bilan muloqot qilish kabi ko‘nikmalarni o‘qitadigan kurs yakunida imtihon qilishgan. Men bilan imtihon xonasiga kirgan to‘rt kishiga ruxsat berib, bir o‘zimni olib qolishgan. Shunda imtihondan yiqildim deb o‘ylaganman. O‘shanda universitetdagi maxsus o‘quv markazi rahbariyati menga o‘qituvchi sifatida ishlashni taklif qilishgan, “baholaring yaxshi, iste’dodli ekansan, imtihonda juda yaxshi javob berding, bu sening qo‘lingdan keladi” deb universitetda o‘zlashtirishga qiynaladigan talabalarga yordam beradigan ko‘makchi o‘qituvchi bo‘lishimga ko‘ndirishgan”. Ushbu lavozimda ishlashni boshlar ekan, Sitora o‘zi uchun kelajakda asosiy yo‘nalish bo‘ladigan tibbiyotdagi axborot tizimlari olamiga qadam qo‘yadi.

Sitoraning karyerasi endi boshlangan paytlari... 2014-2017-yillar oralig‘ida Sitora sahar soat 4:00 dan yarim kechasigacha (20 soat!) uchta joyda ishlab, kechki kurslarda universitetda o‘qiganini eslab, haligacha hayajon tuyadi. “Sog‘liqni saqlash sohasida ishlash uchun siz 12 yil o‘qishingiz va tibbiyot muassasalarida bepulga internatura qilishingiz kerak”, deb tushuntiradi u. “Shuning uchun erta tongdan amaliyot qilish uchun kasalxonaga borardim, u yerdan chiqib, ikkita ishxonamga borardim, so‘ngra kechki 6 larda o‘qishga borib, u yerdan chiqqach, yana ishxonaga qaytib kelardim...”

Yillar davomida mana shunday mashaqqat bilan mehnat qilish, qo‘rqmaslik va katta orzular qilish Sitoraga bugun 120ga yaqin professionalni ish bilan ta’minlagan, minglab mijozlarga xizmat ko‘rsatib, federal hukumat dasturida ishlaydigan 16 million dollarga bahonaladigan masofaviy tibbiyot biznesiga egalik qilish imkoniyatini berdi. Bu yo‘lda unga hatto familiyasini o‘zgartirishga ham to‘g‘ri kelgan:

“Nima uchun iste’dodli va qattiq ishlashdan qochmaydigan odamlarga ularning familiyalari xalaqit berishi kerak, deb o‘ylab yurdim”, deydi Sitora. U o‘z biznesini boshlaganida hamkorlar bilan ko‘rishar, aksariyat hollarda uchrashuvlar yaxshi o‘tardi. Biroq shartnoma tuzishga kelganda yoki tashrif qog‘ozini uzatgan paytda amerikalik bo‘lajak hamkorlar Ashrafova (urg‘u “o”ga tushadi) sharifini ko‘rib, “yana bir o‘ylab ko‘raylik-chi” deb qolishadi. “Ruscha “ov-ova”lar bilan tugaydigan familiyalar, afsuski, amerikaliklarga firibgar tasavvurini beradigan bo‘lib qolgan. Ayniqsa, bizning sohamizda. Bir yerga konferensiyaga borganimda pokistonlik bir professor meni hamma joyda ko‘rishini aytib, “sen o‘zingni kim deb o‘ylaysan? Nima sen Makedoniyalik Aleksandrmisanki, barcha yerda hukm o‘rnatmoqchi bo‘lasan” degandek piching qildi. Shunda u joydan chiqib, advokatimga qo‘ng‘iroq qildim va familiyamni Aleksandr deb o‘zgartirishga qaror qilganimni aytdim”.

Sitoraning otasi doim unga o‘qishni, katta maqsadlarni qo‘yib, ular sari intilishni uqtirgan. Uning oilasi doim karyera qilishini qo‘llab-quvvatlagan: “Bolaligimdan otam meni o‘qishlarga, olimpiadalarga olib borar, Toshkentga borib kelishim kerak bo‘lsa, ruxsat berar va imkoniyat yaratar edilar”.

O‘zbekistonliklar yig‘iladigan ma’rakalarda millatdoshlari qizlarni maqtar ekan, ularning barvaqt turishi, ertalabdan kechgacha uy ishlarini qilishi, hattoki ko‘p narsani ko‘rmagani va bilmasligini e’tirof qilishlari qulog‘iga chalinsa, Sitora bu holatni XIX asrda AQSHga kelgan qullarni ayni shu yo‘sinda alqab, savdoga qo‘yishganiga o‘xshatishini yashirmaydi.

“Uy ishlari, ozodalik va maishiy ehtiyojlar uchun kerak bo‘ladigan yumushlarni bilish zarur, ammo bu hayotning eng muhim jihati, uning asosiga aylanishi kerak emas”, deydi qahramonimiz. Sitora Aleksandr fikriga ko‘ra, xuddi uning ota-onasi unga erkinlik va orzularni tuhfa etgani kabi hamma o‘zbekistonliklar o‘z qizlariga o‘qish, karyera va biznes qilishda imkon yaratishlari kerak.

“Ayollarning qo‘li nozik, barmoqlari ingichka bo‘ladi, murakkab jarrohlik amaliyotlarida bu ayni muddao bo‘ladi, nafis harakatlar bilan bu o‘ziga xosliklardan samarali foydalanish mumkin. Yoki, masalan, ayollar ruhiy jihatdan stresslarga ham bardoshliroq bo‘ladi. Bu ko‘pgina kasblarda asqotadi. Umuman, ayollarning jamiyatdagi o‘rni katta va ularga imkoniyat bersak, ular keltiradigan naf bundan ham ko‘p bo‘lishi mumkin.”






Ucell

“Biz qulay, hamyonbop va ishonchli xizmatlarni taqdim etamiz – biz odamlar bilan va odamlar uchun faoliyat yuritamiz”.



OLIM MUHAMADIYEV

BIZDAN HAM MILLIARDERLAR CHIQSIN



U inqirozli vaziyatlarni tushkunlikka tushish yoki taslim bo‘lish emas, balki yangi g‘oyalarni amalga oshirish uchun imkoniyat o‘laroq qabul qiladi. So‘z salkam 15 yildan beri AQSHda yashab kelayotgan tadbirkor, iExpressPrime, UzBER startaplari asoschisi Olim Muhamadiyev haqida. Qahramonimiz Amerikada yashayotgan o‘zbekistonliklar orasidan ham yirik kompaniyalarning top menejerlari va milliarder ishbilarmonlar chiqishini istaydi.

Matn: Saodat ABDURAHMONOVA

SHIORI:
AVVAL QATTIQ MEHNAT QILINADI, PUL ESA KEYINROQ O‘Z-O‘ZIDAN KELAVERADI.



UZBER FAOLIYAT BOSHLAGANIGA 20 OY TO‘LMAY, 10 MINGDAN ZIYOD VATANDOSHLARGA XIZMAT KO‘RSATDI.

HECH HAM XAYOLGA KELMAGAN ISHLAR...

“Samarqand davlat universiteti Yuridik fakultetini tamomlab, huquq organlarida ishlab ko‘rgan odam sifatida kuni kelib hayot yo‘limni texnologiyalar va startaplar bilan bog‘layman, deb hech ham o‘ylamagan edim”, – deya hikoyasini boshlaydi tadbirkor.

Olim Muhamadiyev 2009-yil AQSHga ko‘chib o‘tadi. Uning klassik immigratsiya yo‘li ingliz tilini yaxshilash va tajriba orttirishga harakatdan boshlanadi. O‘sha paytlar endi ommalashib borayotgan Uber ilovasi orqali taksi hayday boshlaydi.

“Men Uber bilan ishlagan dastlabki hamkorlardan biri edim. Bunday katta biznesning hech qanday dispetchersiz va masofadan boshqarilishi meni hayratga soldi. Biznesni yo‘lga qo‘yishni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib raqobatga dosh berishni menga aynan Uber o‘rgatdi”.

2015-yildan boshlab texnologiyalar bilan bog‘liq biznes g‘oyalar ustida izlana boshlagan Olim Muhamadiyevning ilk startapi hozir Samarqandda faoliyat olib borayotgan iTaxi (Uber’ning muqobili) bo‘ldi. Qarabsizki, startap va texnologiyalar asosiy hobbiga aylana boshladi.

INQIROZ BERGAN IMKONIYAT

2020-yilgi global pandemiya qahramonimizning ham hayotiga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Faqat ijobiy ma’noda. U Samarqandda ikki manzilda faoliyat olib boradigan Halal-Market do‘konlari negizida iExpressPrime startapini ishga tushirish orqali bir o‘q bilan ikki quyonni urdi: ham xorijdagi o‘zbekistonliklar va Vatandagi yaqinlariga turli mahsulotlarni yuborishlari uchun imkoniyatni taqdim etdi, ham katta va kichik bizneslarga onlayn savdo uchun platforma berdi. Qolaversa, loyiha bugun 60 dan ziyod kishini ish bilan ta’minlab kelmoqda.

VATANDOSHLAR XIZMATIDAGI STARTAP

“Amerikaga kelgan o‘zbek muhojirlari asosan til bilmaslik va o‘ta ishonuvchanlik ortidan ko‘p pand yeyishadi. Shuning uchun bu masalada “stajga ega” va “yangi” muhojirlar o‘rtasida ko‘prik hosil qilish orqali ularga yordam berishni istaganman”, deydi Olim Muhamadiyev.

Bu xolis istak avvaliga Telegram tarmog‘idagi oddiy guruh ko‘rinishida ro‘yobga chiqdi. Yetti mingdan ziyod foydalanuvchini jamlovchi bu guruhda har kim xolis yordam va ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Bora-bora, Nyu-Yorkdagi o‘zbeklar diasporasining markazida joylashgan UzBERclub – “yagona darcha” tamoyili asosida ishlovchi shoxobcha paydo bo‘ldi. Bu yerda ishga joylashish, yo‘l harakati bilan bog‘liq masalalar, turli yuridik hujjatlarni tayyorlash, huquqiy maslahat, biznes-konsultatsiya kabi xizmatlar yo‘lga qo‘yildi.

“Dunyoning turli nuqtalaridan kelgan muhojirlar uchun ish e’lonlarini topish va o‘z xizmatlarini taklif qilish imkonini beruvchi UzBERpro boti ustida ham ish olib boryapmiz”, – deydi g‘oya muallifi.

“FARZANDLARGA INVESTITSIYA QILMASAK, ULARNI HAM MUHOJIRLIK KUTADI”

Olim Muhammadiyev AQSHda o‘zbekistonliklar boshqa millat vakillaridan harakatchanligi va dadilligi bilan ajralib turishini e’tirof etsa, ularning zehniyatidagi ayrim jihatlarni achinish bilan tilga oladi.

“O‘zbek tinib-tinchimaydi, doim harakatda. Ammo gohida qonunlarni bilmagani uchun ham fikrlamay harakat qiladi. Meni o‘ylantiradigan narsa, hamyurtlarimning yillar davomida mashaqqat chekib, bitta to‘y-u yarmi bo‘shab yotadigan dang‘illama uyga bor bisotini sovurishi. Ammo bolalarini yaxshi bog‘cha-maktablarga qo‘yishga harakat qilishmaydi, davlat moliyalashtiradigan muassasalarga berib qo‘ya qolishadi. Vaholanki, yaxshirog‘iga imkon bor, ammo ustuvorlik bilimga emas, ko‘z-ko‘z qilinadigan narsalarga qaratilgan.

Barcha vatandoshlarimga murojaatim: farzandlaringizga investitsiya qiling, hayotga zamonaviy yondashish kerak, aks holda ularni ham muhojirlik qismati kutadi. Amerikadagi hind va xitoylar o‘rtacha daromadlari bo‘yicha yetakchi etnik guruhlardan hisoblanib, ulardan gigant kompaniyalar top menejerlari, puldor tadbirkorlar chiqqan. Nihoyat bizdan ham shunday figuralar chiqsin”.

O‘ZBEKISTONLIK

AKMAL XOLBOYEV

O‘ZBEKISTONLIK AKMAL XOLBOYEV

Akmal Xolboyev yoki uni Amerikada atashganidek, Akmal Kholb – Pensilvaniya shtatining Filadelfiya shahrida istiqomat qiladigan o‘zbekistonlik ishbilarmon. U 12 yildan beri ko‘chmas mulk agenti sifatida ishlab keladi. Avval ko‘chmas mulk sohasidagi nufuzli kompaniyalar bilan, keyinchalik o‘zi tashkil qilgan “Skyline Rieltors” firmasi orqali. Uningcha, uy va o‘sha uy joylashgan infratuzilma – kelajak uchun sarmoya...

KELAJAKKA SARMOYA QIL

Matn: Saidaziz A'ZAMOV

12 yoshida Farhod bozorida guruch sotib, ilk bor pul topgan.



TOSHKENTDAGI HAMMASIDAN VOZ KECHIB...

Akmal 12 yoshida grin karta lotoreyasi orqali ota-onasi bilan AQSHga boradi.

“Akam, opam va men bir necha oyda ingliz tilini o‘rganib oldik. Dastlabki bir necha yil davomida ota-onamiz uchun tarjimon bo‘ldik. Har safar O‘zbekistonga borganimda hammasini Toshkentda qoldirib, AQSHda yangi hayot boshlash ota-onam uchun naqadar qiyin bo‘lganini his qilaman. Men doim, ayniqsa otam Toshkentda qanchalik ko‘p narsadan voz kechganini bilgach, bunga uni nima majbur qilgani haqida so‘rardim. Javobi tayin: bu biz, farzandlar...”

KO‘PRIK QULASHI VA HAYOTNI O‘ZGARTIRUVCHI QAROR

Akmalning 2008-yilda maktabni tamomlashi Minneapolis shahrida bir ko‘prik qulab tushib, butun Amerikada shov-shuv bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Gazetalar AQSHda qurilish bo‘yicha mutaxassislar-u muhandislar yetishmovchiligi haqida bong ura boshlaydi. O‘sha kezlarda universitetda qanday sohani o‘qish haqida bosh qotirayotgan qahramonimiz qaror qiladi: “Qurilish muhandisi bo‘laman!” Zotan, uning otasi Akrom aka Xolboyev va onasi Munira opa Xolboyeva ham O‘zbekistonda muhandis bo‘lganlar.

“Otamdan ko‘plab hayotiy saboqlar olganim uchun doim ular haqida gapiraman. Otam biznesdagi foyda va zararni kalkulyatorsiz bir necha daqiqada hisoblab chiqa oladiganlardan. Lekin farzand sifatida ulardan o‘rgangan asosiy darsimiz: ochiq fikrli bo‘lish. Ular doimo bizni bir muammoga ko‘plab yechimlar bo‘lishiga, hech qachon birgina yechim bilan kifoyalanib qolmaslikka o‘rgatganlar...”

PENN STATE VA QO‘SHIMCHA ISH SIFATIDA BOSHLANGAN BIZNES

Akmal Xolboyev o‘zi istagan soha – muhandislik bo‘yicha eng yaxshi o‘qitadigan ta’lim dargohlaridan biri bo‘lgan Pensilvaniya Shtati Universitetiga 2012-yilda o‘qishni tugatib, Filadelfiyaga qaytgach, muhandis bo‘lib ishga kiradi. Birinchi ish kunidayoq uning rahbari qo‘shimcha xobbi yoki biznes qilishga undaydi. Yaxshi rieltorlik xizmatlariga talab oshayotgani (xususan, Nyu-Yorkdan ko‘plar yaxshiroq va arzonroq uy-joy uchun Filadelfiyaga ko‘chayotgani fonida) bois qahramonimiz yarim kunlik ko‘chmas mulk agenti bo‘lib ishlay boshlaydi.

“Bir yil davomida bir dona bo‘lsa ham uy sota olmadim. 2012-yilni muvaffaqiyatsizlik yili deb e’lon qildim-u, nima xatolar qilganimga nazar soldim. Muloqotlarda fikrimni yetkazish va odamlarni tinglashda oqsayotgan ekanman. Mana shu kamchiligim ustida ishlab, o‘zimga ishonchimni orttirdim. So‘ng boshqa agentlar qilmagan ishni qildim: Nyu-Yorkning Bruklinidan Filadelfiyaga mijozlarni furgonda olib borishni yo‘lga qo‘ydim. Sababi Nyu-Yorkda yashaydiganlarning o‘z mashinasi yoki hatto haydovchilik guvohnomasi bo‘lmas edi”.

Akmal Xolboyev yillar davomida minglab odamlarga o‘z uy-joyiga egalik qilishida yordam berdi. Suhbatimiz davomida bir ayolning 1,5 yil uy qidirib topganida yig‘lagani hikoyasini aytib o‘tarkan, Akmal o‘z ota-onasining farzandlari hayotini yaxshilash uchun qanday qurbonliklarga borganini anglab yetgani haqida so‘zlaydi.

“O‘ZBEKISTONLIKLAR PULINI KO‘CHMAS MULKKA TIKISH BO‘YICHA YETAKCHI...”

Ko‘chmas mulk mutaxassisi bo‘lmish qahramonimiz o‘zbekistonliklar ko‘chmas mulkka sarmoya qilish bo‘yicha yetakchi diasporalardan. Aksiya-yu obligatsiyalar, kriptovalyuta yoki boshqa aktivlardan ko‘ra biz uy-joyga pul tikishni xavfsiz va afzal deb topamiz. Boz ustiga, Nyu-York, Filadelfiya, Chikago yoki Sinsinnati kabi shaharlar tevaragiga joylashib, u yerdan deyarli ko‘chib chiqib ketmaymiz. Ushbu hududlarda 2016-yildan beri, misol uchun, turar joy narxi 120 foizdan ham ko‘proq qimmatlagan.

UY OLISHDA FARZANDLAR TA’LIMI UCHUN MANFAATLI HUDUDNI TANLASH

Biroq mahalliy hamjamiyatlar hayotida faol qatnashish va uzoq muddatli istiqbolda farzandi ta’limi haqida ko‘proq qayg‘urish borasida ko‘p o‘zbek oilalar oqsayotgani ham rost. AQSHda uy-joy soliqlari o‘sha ko‘chmas mulk joylashgan hududdagi maktablar xarajatlari uchun ham yo‘naltiriladi. Yangi immigrantlar shunday soliqlar past bo‘lgan hududlarga joylashishadi. Afsus, bunday joylarda sifatliroq ta’lim olish uchun imkoniyatlar kam. Umuman, o‘zbekistonliklar ham o‘zaro jipslashishi, ham o‘zi yashayotgan hududdagi barcha millat vakillari bilan muloqotda bo‘lib, mahalliy qarorlar qabul qilinishi, saylovlar va siyosiy jarayonlarda qatnashishi zarur.



O‘RTA SINFNING O‘RNI

OTABEK BAKIROV

O‘RTA SINF TOIFASI O‘ZI KIMLAR?

O‘rta sinfning davlat va jamiyatdagi o‘rni qadimgi dunyodan beri fikr egalarining diqqat markazida bo‘lgan. Yunon faylasufi Yevripid shunday deydi: o‘rta sinfgina shaharga tayanch, u qonunlarga va davlatga bo‘ysunadi. Aristotelning fikricha, o‘rta sinf odamlaridan tashkil topgan davlat eng yaxshi davlat qurilishiga ega bo‘ladi.

O‘rta sinf tushunchasi burjua inqiloblari va kapitalizmning gullab yashnashi, XX asrdagi ijtimoiy evrilishlar ta’sirida shakllangan. Faqat oxirgi o‘nyilliklarga kelib o‘rta sinf tushunchasi burjuaziya yoki tadbirkor, mulkdorlar qatlami shtamplaridan kengroq ma’no anglata boshladi.

O‘rta sinf muhimligi haqida qadimgi davrlardan beri qayg‘urishlari bejiz emas. Chunki o‘rta sinf jamiyat va davlat uchun juda muhim uch vazifani bajaradi: siyosiy – o‘rta sinf siyosiy hokimiyat tizimi mustahkamligini ta’minlaydi. Iqtisodiy – o‘rta sinf yangi ish o‘rinlarini va barqaror iste’mol talabini yaratadi. Ijtimoiy – jamiyatdagi ziddiyatlarni yumshatadi, taraqqiyotning evolyutsion yo‘lini ta’minlaydi.

Jahon banki tasnifi va metodologiyasi bo‘yicha o‘rta sinf kambag‘allikning yuqori darajasidan 1,5 barobariga ko‘p daromadga ega qatlamdan boshlanadi. Lekin bu mezon ko‘proq farovon va erkin davlatlarda yashovchi o‘rta sinfni identifikatsiyalash uchun mos tushadi (O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 621 ming so‘m etib belgilangan, lekin bu raqam mamlakatda o‘rta sinfning daromadlari 932 ming so‘mdan boshlanadi, degani emas). Jahon banki metodi bo‘yicha o‘rta sinfga oidlik oyiga 3500 dollardan boshlanadigan barqaror daromadlardan tayanch olishi ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi.

– OCHIQ JAMIYAT DOYASI



Shuning uchun o‘rta sinf mezonlari haqida gap ketganda, turfa mamlakatlar va mintaqalar uchun turlicha o‘lchovlarning mavjud bo‘lishi o‘rinliroq. Iqtisodiy ta’limotlarda o‘rta sinfga oidlikni belgilovchi uchta asosiy yondashuv ko‘proq qo‘llaniladi. Bu daromadlar, ya’ni farovonlik darajasi, mulkdorlik va ta’lim darajasini qamrovchi ijtimoiy maqom va identifikatsiya, ya’ni shaxsning o‘zini o‘zi o‘rta sinfga taalluqli deb bilishi.

Daromadlar yondashuvi haqida gap ketganda, o‘rta sinf vakilining daromadlari, aytaylik, import tovarlarni sotib olish, sayohat (jumladan, xorijga) va ta’lim (oliy ta’lim), jamg‘arish uchun yetarli bo‘lishi kerak, deb hisoblaniladi. Oziq-ovqat uchun xarajatlarga daromadlarining katta qismi to‘g‘ri keluvchilarni o‘rta sinfga qo‘shish qiyin. Yana bir belgiga ko‘ra, o‘rta sinf muhim bo‘lmagan xarajatlar uchun ayniqsa, komfortga pul sarflay oladi, masalan, ikkinchi yoki uchinchi telefon sotib olishga, biznes klassda uchishga. O‘rta sinf sifatli va yuqori texnologik tovarlarga doimiy talab hosil qiladi. O‘rta sinfning daromadlari faqat bir manbaga bog‘lanmagan, ular foyda, renta, foiz ko‘rinishida aktiv yo passiv tadbirkorlik daromadlari bilan taqsimlangan.

Ijtimoiy maqom yondashuvida asosiy belgi mulkdorlik va ta’lim darajasiga bog‘lanadi. O‘rta sinf kishisi o‘z uyiga ega, uning oilasida kamida bitta avtomobil mavjud. Ulushdorlik, aksiyadorlik yoki bevosita tadbirkorlik subyektlarni o‘rta sinf qatoriga qo‘shadi. Yollanma ishchi bo‘lganida ham, qoida tariqasida, o‘rta sinf vakili oliy ma’lumotli, asosan aqliy mehnat orqali daromad topadi.

Yuqoridagi mezonlar bo‘lmasa yoki to‘liq bo‘lmasa ham o‘rta sinfga taalluqli bo‘lishi mumkin. Bu shaxs o‘zini o‘rta sinf qadriyatlariga yaqin deb hisoblashi bilan bog‘liq. Aytaylik, mulkdor bo‘lmagan shoir, mustaqil jurnalist yoki buyurtmasiz qolgan rassom ham o‘zini o‘rta sinf vakili deb hisoblashi uchrab turadi.



O‘RTA SINF VAKILLIGI

“Davlatga barqarorlik baxsh etmoqchimisiz? Unda qutbli darajadagilarni imkon qadar o‘rtaga yaqinlashtiring, boylarni ham, qashshoqlarni ham ayamang. Ular doim xalq erkinligi bilan savdo qiladilar, birinchisi sotib oladi, ikkinchisi sotib yuboradi”, deb yozgan edi Jan-Jak Russo. Ulug‘ fransuz faylasufi jamiyatning bu ikki chekkadagi qatlami, boylar va qashshoqlar mavjud bo‘lishini rad etmagan. Lekin ularning ikkisida ham davlat barqarorligi uchun xatarlarni ko‘ra olgan. Shuning uchun faylasuf mazkur sinflar o‘rtasidagi farqni kamaytirish, tengsizlikni yumshatish, qonun kuchi bilan qutblarni o‘rtaga tortish haqida orzu qilgan.

O‘rta sinf shakllanishi va kengayishi uchun qaror qabul qilish jarayonida fuqarolarning ishtirok etishini ta’minlaydigan davlat siyosatining mavjudligi juda muhim. Bu siyosat davlat organlarining hisobdorligi va shaffofligini oshirish, o‘rta sinfdan tortib muhtoj bo‘lgan qatlamlarning siyosiy jarayonlarga jalb qilinishiga bo‘lgan harakat va xohishlarni o‘z ichiga olishi kerak.

O‘rta sinfning ko‘pchilikni tashkil etishi va barqarorligi mo‘tadil tengsizlik konsensusini yaratadi. Barqaror jamiyatning ideal modelida o‘rta sinf umumiy aholining 80 foizigachani tashkil etadi, bunday jamiyatda taqsimot va qayta taqsimotga katta zaruriyat kerak bo‘lmaydi. Barqaror bo‘lmagan jamiyatlarda o‘rta sinf 25 foizga ham yetmaydi. Bunday jamiyatlar uchun doimiy ijtimoiy norozilik xarakterli bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va siyosiy barqarorlik uchun resurslar yetarli bo‘lmaydi. Har qanday taqsimot va qayta taqsimot og‘riqlar va ziddiyatlar yaratadi.

O‘rta sinfning rejalashtirish gorizonti doimo uzun. Uni kambag‘allikdan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ham shu. Individlarda rejalashtirish gorizonti qancha uzun bo‘lsa, iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam omillar shakllanadi.

O‘rta sinf inklyuzivlikni oshiradi. Ayniqsa ijtimoiy ne’matlar orqali. Kambag‘al qatlam bolalarining kambag‘allikdan chiqishiga rag‘bat beradigan omillardan biri aynan maktab yo universitetda o‘rta sinf vakillari bilan birga o‘qishi va muloqot qilishi hisoblanadi. Kambag‘allik tuzog‘ini parchalab tashlashda davlatga eng katta ijtimoiy yordamchilar bu o‘rta sinf vakillaridir.

O‘RTA SINF DEMOKRATIYANI YARATADI

O‘rta sinfning eng katta bunyodkorlik kuchi bu – uning befarq emasligida. O‘rta sinf vakillari doim atrofida nima bo‘layotgani bilan qiziqadi va albatta jarayonga o‘z munosabatini bildiradi, imkoni boricha aralashadi. Ular doim siyosiy faol va davlatdan ijtimoiy ne’matlarning adolatli taqsimlanishini so‘raydi. O‘rta sinfga ta’lim, tibbiyot va infratuzilma doim kerak. O‘rta sinf vakillari to‘layotgan soliqlarining natijalarini ko‘rishni istaydi. Shu ma’noda o‘rta sinf demokratiyaga, demokratik institutlarga talabni yaratadi. Barcha klassik adabiyotlarda demokratik institutlarning qaror topishida o‘rta sinfning hal qiluvchi roli urg‘ulanadi. Sotsiolog Barrington so‘zi bilan aytganda, “burjuaziya bo‘lmasa, demokratiya bo‘lmaydi”. Demokratik jarayonning ajralmas bo‘lagi hisoblangan klassik parlament institutining shakllanishi va ravnaqida o‘z haqlari va vakilliklarini talab qilishni boshlagan, boshqaruvda o‘zining munosib o‘rnini ko‘rish uchun tinimsiz kurashgan o‘rta sinfning hissasi katta.

Juda qiziq tarafi shundaki, demokratiya uchun asosiy kurashuvchi sinf hisoblangan o‘rta sinf demokratiya natijalaridan eng ko‘p naf ko‘radigan ham. Bu haqda mashhur iqtisodchilar Bosh, Ajemoglu va Robinsonning tadqiqotlariga murojaat qilmaslik mumkin emas. Demokratlashuv jarayonidagi sinfiy modelga ko‘ra, o‘rta sinfning kambag‘allar bilan koalitsiyasi resurslarning kambag‘allar tomon qayta taqsimlanib oqishini ta’minlaydi va demokratiyalashuv jarayoniga yo‘l ochadi. Shuningdek, amerikalik iqtisodchi Aaron Direktorning gipotezasiga ko‘ra, demokratik jamiyatda hukumat nisbatan boy va kambag‘al guruhlardan o‘rta daromadli guruhlarga taqsimlash siyosatini qo‘llaydi. Direktor gipotezasi siyosiy va ijtimoiy spektrning o‘rtasidagi saylovchi e’tiborini qozonish maqsadlariga tayanadi. O‘z-o‘zidan, demokratiyada siyosatchilar o‘rtacha daromadli guruhlar manfaatlariga qarab ishlashadi.

Davlat qurilishida o‘rta sinfga asosiy tayanch sifatida qaralishi – ochiq, erkin va farovon jamiyat yo‘lida eng ishonchli, tajribada sinalgan va samarali ishlaydigan modeldir.

PEPSI BRENDI O‘ZBEKISTONGA KIRIB KELGANIGA 30 YIL TO‘LDI

PEPSI BRENDI O‘ZBEKISTONGA O‘TGAN ASRNING 80-YILLARIDA KIRIB KELGAN. KATTA AVLODNING AKSARIYAT VAKILLARI TARKIBIDA KOLA SAQLOVCHI ICHIMLIKLARNI PEPSI DEB ATASHADI. BU ICHIMLIKNING MASHHURLIGI SABABI NIMADA? MAMLAKATIMIZDA SALQIN ICHIMLIKLAR ISTE’MOLI MADANIYATINING O‘ZIGA XOSLIKLARI BORMI?

Pepsi ichimligi chindan ham mamlakatimizdagi uzoq tarixi bilan maqtansa arziydi. Bu ichimlik hozir 18 dan o‘tgan yoshlar orasida qanchalik mashhur bo‘lsa, katta avlodning yoshlik chog‘larida ham bu borada peshqadam bo‘lgan. Pepsi ko‘pchilik uchun zamonaviy madaniyat, ijodkorlik, o‘zgarishlar va texnologiyalar ramziga aylangan. Ma’lumki, O‘zbekiston aholisi juda yosh, jon boshiga gazlangan ichimliklar iste’moli ancha yuqori, bu borada hatto qo‘shni davlatlar ham bizga yeta olmaydi. Qolaversa, iqlimimiz issiq, gazli yaxna ichimliklar yaxshigina tetiklashib olishga yordam beradi. Bu ham ichimliklarning muvaffaqiyat omillaridan biri. Iste’mol madaniyatiga kelsak, O‘zbekistonda odatda osh yoki somsa ham tarkibida kola saqlovchi ichimliklar bilan iste’mol qilinadi.



DILSHOD ABDUBEKOV
International Beverages Tashkent kompaniyasi direktorlar kengashi a’zosi

EPSI BRENDI ASLIDA QANDAY PAYDO BO‘LGAN?

Taxminlardan biriga ko‘ra, ichimlik retsepti farmatsevt Kaleb Bredhem tomonidan XIX asr oxirida hazmni yaxshilovchi va kayfiyatni ko‘taruvchi vosita sifatida o‘ylab topilgan. Ichimlik avvaliga “Bred ichimligi” deb nomlangan. Pepsi-Cola nomini u keyinroq, XX asr boshida, tarkibiga hazmni yaxshilash uchun pepsin fermenti qo‘shilganidan so‘ng oldi. Yangi nomga ega bo‘lgan ichimlik avvaliga AQSHda, keyinchalik butun dunyoda qalblarni zabt eta boshladi.

ARCHI PEPSI BRENDI BIR ASRDAN ZIYOD TARIXGA EGA BO‘LSA-DA, DEYARLI BARCHA REKLAMA KAMPANIYALARI YOSH AUDITORIYAGA MO‘LJALLANGAN. YOSHLAR O‘RTASIDA TALABNI SAQLAB QOLISHGA QANDAY ERISHILYAPTI?

Pepsi har doim o‘z auditoriyasiga ergashadi. U iste’molchilari bilan bir to‘lqinda bo‘lib, birgalikda rivojlanadi. Pepsi o‘zini musiqa, sport, moda, turli submadaniyat, yangi texnologiyalarda namoyon qilgan yosh va hurfikrli kishilarning uslubi, turmush tarzi va hayotining atributiga aylangan.

Yaqinda Pepsi butun dunyo bo‘ylab o‘z qiyofasini o‘zgartirdi. Biz ham O‘zbekistonda mahsulotning tashqi ko‘rinishini, kommunikatsiyalarimizni yangilamoqdamiz. Pepsi yangi dizayn, yangi tarix va hamkorlar bilan yangi davrga kirib bormoqda. Brendning yangilangan imiji ichimlik ishqibozlarining eng asosiy qiziqishlariga asoslanadi.

Pepsining global platformasi yoki brend falsafasi endi – “Yanada chanqoq bo‘l”. Bu odamlarni yangi, qiziq va kutilmagan narsalarga intilishga chorlaydi. Pepsi hayotni zerikarli qiladigan mezonlarga qarshi chiqadiganlarga hamroh bo‘lishga, zamonaviy avlodning qiziqish va intilishlari bilan baravar ilgarilashga intilmoqda.

REND LOGOTIPI YANGILANDIMI?

Oxirgi yuzyillik mobaynida Pepsining ko‘k, qizil va oq ranglar palitrasi deyarli o‘zgarmay qoldi. Bu an’anaviy palitrani saqlab qolgan holda zamonaviy ruh qo‘shish fikri bor edi. Yangi elektrik ko‘k-qora palitra qarama-qarshilik, yorqinlik va zamonaviy uslubni yaratadi. Shrift ham o‘zgarib, dinamik, yorqin tus oldi, u bizning yangi falsafamiz va kayfiyatimizni aks ettiradi. Ammo asosiy elementlar – nom va globus iste’molchilarimiz uchun qadrdon logotip elementlari bo‘lib qoladi.

MIJ BILAN BIRGA BREND ASSORTIMENTIDA HAM O‘ZGARISHLAR BO‘LADIMI?

Pepsi brendi mahsulotlari ham PepsiCo kompaniyasining butun assortimenti kabi doimiy takomillashib boradi. Kompaniya o‘z iste’molchilarining qiziqish va so‘rovlari bilan hamnafas bo‘lishga intiladi. 2021-yilda qabul qilingan PepsiCo Positive strategiyasida Positive Choice deb nomlangan alohida yo‘nalish mavjud. U kompaniyaning odamlar va sayyora uchun foydaliroq iste’mol mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishga intilishini ifodalaydi. Bunga ko‘proq naf keltiradigan ingrediyentlardan foydalanish, tarkibida shakar, tuz yoki to‘yingan yog‘lar miqdorini kamaytirish, individual plastik qadoqdan voz kechgan holda qayta ishlanadigan yoki qayta ishlangan materiallarni qo‘llash orqali erishilmoqda.

Oxirga vaqtda brendning O‘zbekiston portfelidagi o‘zgarishlar haqida gapirganimizda tarkibida shakar bo‘lmagan Pepsi Sugar Zero ichimligining ommalashib borayotganini qayd etish joizdir. Sugar Zeroni 2024-yilda ishlab chiqara boshladik, ichimlik bir necha ko‘rinishda – 0,25 litrli banka va shisha idishlarda hamda 1,5 va 0,5 litrli plastik idishlarda taqdim qilinmoqda. O‘tgan yilning kuzida ichimlikni qayta ishlangan rPET plastigidan tayyorlangan 1,5 litrli qadoqda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik. Kompaniya bu materialdan ko‘plab mamlakatlarda foydalanadi. Ayrim davlatlarda esa ichimlik qadog‘i to‘liq shu materialdan tayyorlanadi. rPET foydalanilgan idishlarni qayta ishlash orqali olingan plastik bo‘lib, birlamchi material iste’molini kamaytirish, qayta ishlangan qadoqni ikkinchi aylanmaga jalb qilgan holda plastik chiqindilarni kamaytirish imkonini beradi. Qadoqda 20 foiz rPETdan foydalanish natijasida 2023-yilda birlamchi plastik iste’moli taxminan 2500 tonnaga kamaydi. Bu har biri 20 tonna keladigan 125 ta yuk mashinasi degani.

ZBEKISTONDA PEPSI “INTERNATIONAL BEVERAGES TASHKENT” KOMPANIYASI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILADI. PEPSICO KOMPANIYASI BILAN HAMKORLIK QANDAY BOSHLANGAN?

International Beverages Tashkent (IBT) kompaniyasi o‘z faoliyatini 2011-yilda boshlagan bo‘lib, hozirda PepsiConing Markaziy Osiyodagi eng yirik hamkorlaridan biri sanaladi. Aynan 2011-yilda Pepsini O‘zbekistonda IBTning zamonaviy liniyalarida ishlab chiqarish boshlandi. Kompaniya, shuningdek, afsonaviy, butun dunyoga mashhur bo‘lgan Lipton, Adrenaline Rush, Rockstar, Mountain Dew, Mirinda va 7UP kabi brendlar savdo belgisi ostidagi ichimliklarni ham ishlab chiqaradi. IBT PepsiCo’ning ichimlik ishlab chiqarish bo‘yicha eng yaxshi hamkori sifatida bir necha bor e’tirof etilgan. IBT va PepsiCo hamkorligi O‘zbekistonda ichimliklar bozori rivoji uchun ulkan imkoniyatlar yaratish hamda mamlakatning jadal o‘sib borayotgan yosh aholisi o‘rtasida mahalliy mahsulotga ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi.


Murad NASIROV suhbatlashdi



UNIVERSUM


HIKMAT ABDURAHMANOV

IJTIMOIY ORGANIZM



Ilk biznes otm

strategik reja



O‘zbekistonda oliygohlar qanday jamoatchilik vazifalarini bajarishi lozim?

Shaxsan mening hayotimda oliy ta’lim har doim misli ko‘rilmagan inqilobiy rol o‘ynagan. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamfikr do‘stlar berdi, yaxshi o‘qish orqali hammasiga erishish mumkinligiga, ta’lim juda muhimligiga ishonch paydo qildi. Magistratura tahsili yangi ilhom bag‘ishladi, tafakkur doiramni kengaytirib, xalqaro biznes sohasidagi poydevor bilimlarni hosil qildi. Keyinchalik har gal biznes maktablarda tahsil olarkanman (O‘zbek-yapon markazi, Skolkovo biznes maktabi, Mustaqil direktorlar uyushmasi) aniq maqsad va kutilmalarga asoslangan, ixtisoslashgan yangi bilimlarni olardim.

Keyinchalik “Universitetlar qanday boshqariladi” va “XXI asrda oliy ta’lim” kurslarida o‘qigach, zamonaviy jamiyatda oliy ta’lim dargohi funksiyalari haqida o‘ylay boshladim. 2020-yilda TEAM University’ni tashkil etish orqali biz, mamlakatdagi yetakchi tadbirkorlar jamoasi, eng ilg‘or g‘oyalarimizni amalga oshirishni maqsad qildik. Hukumatning ilk tadbirkorlik universiteti – TEAM’ni tashkil qilish haqidagi qarori katta ustunlik berdi, sodda qilib aytganda, ilgari yurtimizda kuzatilmagan yangilik tajriba tarzida amalga oshirildi. Shunday qilib, avvaliga tinglovchi, keyinchalik esa universitet hammuassisi sifatida taqdir izni bilan, nazarimda, bu muhim amaliy vazifa – universitetlar jamiyatimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi jarayoni ishtirokchisiga aylandim. Demak, bu mavzuda birgalikda fikr yuritishga harakat qilamiz.



“Universitetlar va diniy muassasalar yuz yillar davomida barhayot yashaydi”. Qayerdadir shu jumlani o‘qigandim. Keyin o‘ylanib qoldim: chindan ham, biz yaratadigan kompaniyalar va ularning mahsulotlari nari borsa 5-10 yil yashar; mabodo kompaniya 25 yil faoliyat ko‘rsatsa bormi, bu asoschi va jamoani tabriklashga arzigulik yirik voqeaga aylanadi. Bir o‘ylab ko‘ring-a, oliygohning missiyasi avloddan avlodga o‘tib oradi. 2005-2006 yillarda Sent-Endryuz (St Andrews) universitetida magistratura tahsilini olayotganimda uning yubiley sanasiga faol tayyorgarlik ko‘rilardi. O‘sha paytda uning yoshi 592 da bo‘lgan, 8 yildan keyin esa 600 yillik yubiley sanasi nishonlanishi kerak edi. Mamlakatingda bunday universitetlar bir-ikkita emasligini tushunganingda, ularning insonlar va sohalarga ta’siri milliy yoki hududiy chegaralar bilan cheklanib qolmasligini, ular global ko‘lamga egaligini anglaysan. Bunday uzoq muddatli rejalashtirish, missiya va istiqbol ko‘lamini tushunish mas’uliyat hissini paydo qiladi. Fikrimcha, O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari o‘z missiyalari haqida, jamiyatda qanday vazifani bajarishlari haqida o‘ylab ko‘rishlari lozim.

TEAM UNIVERSITY hammuassislari

Zafar Hoshimov – *Korzinka.uz* asoschisi va bosh direktori;

Hikmat Abdurahmonov – *HM Partners* kompaniyalar guruhi hammuassisi;

Muzaffar Qosimov – *HM Partners* kompaniyalar guruhi hammuassisi;

Anvar Irchayev – *Orient Capital Management* asoschisi, Universalbank kengashi raisi;

Umid Hakimov – *Asia Alliance Bank* boshqaruvi raisi;

Alisher Jabborov – *Alinfarm* asoschisi va muassisi;

Maqsud Abdusamadov – *Kapitalbank* kuzatuv kengashi raisi;

Arsen Dlyanchev – *Unique Present Media Holding* asoschisi va rahbari;

Xurshid Ro‘ziyev – *“Dodo Pizza”* savdo belgisi muassisi, Kimberly-Clark Uzbekistan;

Laziz Adhamov – *“TOP-Contact”* va *Dalatek* muassisi;

Murat Mahkamov – *“FOM GROUP”* YAT MCHJ IT kompaniyasi va *“ArzonApteka”* farmatsevtika kompaniyasi asoschisi.

ChatGPT XXI asr ta'limi

Majoziy ma'noda aytganda, oliy ta'lim dargohlari "fil suyagidan yasalgan minoralar" emas, ya'ni ular jamiyatdan, sanoatdan, kundalik hayotimizdan alohida mavjud bo'lib, alohida faoliyat yurita olmaydi. Vaholanki, O'zbekistondagi oliy ta'limning eng "qora kunlari"da vaziyat aynan shunday edi. Yodimda, 2000-yillar boshida ilk ish joyimga borganimda birinchi rahbarim shunday degandi: "Bo'ldi, universitetda nimaiki o'rgatgan bo'lishsa, hammasini unutasan, hammasini qayta, amalda o'rganamiz". Istalgan oliy ta'lim muassasasisining istalgan talabasi ayni shunday messejga duch kelardi. Birinchidan, to'rt yillik mehnatdan so'ng buni eshitish og'ir botadi. Ikkinchidan, bu 2000-yillar boshida ish beruvchilar oliy ta'lim sifatini qanday baholashini ochiq-oydin ko'rsatib berardi.

Nazarimda, o'shandan keyin vaziyat uzoq vaqt o'zgarmadi. O'zbekiston oliygohlari bozorda na bir raqobat, na bir akademik erkinlik, o'quv rejalarida na bir o'zgarish bo'lmagan, arang 10 foizga yetar-yetmas qamrov (ya'ni talabgorlarning o'ndan bittasigina oliy ta'lim dargohiga kira olgan), ishtiyoqi haminqadar o'qituvchilar, arxaik boshqaruv uslubi va qaror qabul qilishda hech qanday mustaqilliksiz yigirma yildan ziyod vaqt davomida hayot haqiqatlaridan ortda qolishdi. Xorijiy hamkasblaridan, o'z shahar va mamlakatlarida ancha jiddiy ijtimoiy-ma'rifiy harakatlarni olib borgan universitetlardan qanchalik ortda qolganini-ku aytmasa ham bo'ladi.

2020-yillardan boshlab sohada burilish ro'y berdi, hukumat bu vazifani yakka uddalay olmasligini, ta'lim muammolarini bir o'zi hal qila olmasligini tushundi. Va oliy ta'lim sohasida liberallashuv boshlandi. Oxirgi 5 yil ichida 100dan ziyod turli OTMlar paydo bo'ldi. Ularning bir qismi sifatli ta'lim yo'lini tanladi, boshqa bir qismi tajribaliroq xorijiy hamkasblari bilan hamkorlikni ma'qul ko'rdi. Yana bir qismi esa ommalashtirish yo'lidan bordi, ya'ni ko'p miqdorda talaba qabul qilib, diplomga, ochiq va qoliplashgan ta'limga talabni qondirishga kirishib ketdi. Ayniqsa, viloyatlarda bu avj oldi. Fikrimcha, uzoq davom etgan taqiqlar davri, raqobatga yopiq ta'lim bozoridan keyin bunday holatning kuzatilishi tabiiy.

O'ndan ziyod xorijiy, jumladan, qo'shni mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ulardagi ta'lim modeli, universitetlar evolyutsiyasi chamasi o'n yil davomida tabiiy tanlanish, yiriklashuv va bozorning professionallashuv jarayonini boshdan kechiradi. Bozorda bu ishga jiddiy va uzoq muddatni ko'zlab kirganlargina qoladi. Haqiqiy universitet faoliyati juda katta kapital talab qiladi, kampus, axboriy resurslar va eng muhimi, intellekt uchun jiddiy sarmoya kerak bo'ladi. Modomiki universitet ChatGPT talabaning o'rniga esse va dissertatsiya yozib berayotgan XXI asrda bilim va iste'dodlar uchun hab vazifasini bajarishni maqsad qilgan ekan, talabalar va o'qituvchilar tamoman kichik guruhlarda ishlashiga, yoshlarda chin ma'noda tafakkurni rivojlantirishga diqqat qaratilishi lozim. Yaxshi oliygohlarda butun kuch-e'tibor yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish, hamfikrlarni shakllantirish, sotsial lift funksiyasini bajarish, yosh avlodni katta va mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etmoqchimanki, hayotimizda universitetlarning rolini jiddiyroq miqyosda – tadqiqotlar, innovatsiyalar sohasida, tadbirkorlik tafakkurini rivojlantirishda, eng muhimi, raqobatbardosh yoshlar avlodini tarbiyalashda ko'raman. Yana bir amaliy misol aytaman. Qizim o'qish baxtiga muyassar bo'lgan Edinburg universitetida 18 nafar Nobel laureati, evolyutsiya nazariyasini ishlab chiqqan Charlz Darvin, "Bozorning ko'rinmas qo'li" nazariyasi muallifi, ulug' iqtisodchi Adam Smit tahsil olgan. Bunday universitet mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari uchun namuna bo'la oladi, toki ular bilimlar markazi bo'lishga va jamiyatni yaxshilashga intilsinlar.



SHAHNOZA SOATOVA

JAMOLAR

NEGA ULARNI YAXSHI BILMAYMIZ?



Bugun O‘zbekistonda jadidlar mavzusiga ko‘p murojaat qilinyapti, ular tarixni o‘zgartirgan muhim harakat deb hisoblanyapti. Shaxsan menga bu juda yoqimli, chunki jadidchilik chindan ham kuchli mafkura va samarali harakat edi.

Lekin negadir jadidlar deganda asosan erkak namoyandalar tilga olinadi: Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon, Ibrat, Avloniy... Ayollar qiyofasini esa deyarli ko‘rmaymiz, nomini deyarli eshitmaymiz. Vaholanki, ular bor edi, faol edi. Ular orasida ham jonini g‘oya uchun fido qilganlar, qatag‘onga uchraganlar ancha topiladi.

Mana ulardan ayrimlari: *Anbar Otin, Xayriniso Majidxonova, Maryam Sultonmurodova, Tursunoy Saidazimova, Ma’suma Qoriyeva, Ruqiya Xo‘jayeva.*

Ayollarning qilgan ishi u yoqda tursin, ismi, qiyofasi ham zamon talabi bilan zamondoshlar tomonidan kam tilga olingan va yoritilgani rostdir. Lekin o‘tgan yuz yil davomida ham ular haqida jiddiy tadqiqotlar kuzatilmadi. Balki bu bo‘shliqni to‘ldirish vaqti kelgandir?

Jadid ayollar o‘z ahvolini o‘nglash uchun avvalo ta’limga, keyin so‘zga (badiiy adabiyot), keyin esa teatrga murojaat qildilar. Shu sababli ham jadid ayollar deganda birinchi navbatda muallimalar (otin oyi), shoiralar va aktrisalar tilga olinadi.

Biroq XX asrning boshlarida turli sohalarda ayol kadrlar kerak edi: shu bois xotin-qizlar shifokor, kimyogar, huquqshunos kabi muhim yo‘nalishlarda ta’lim ola boshladilar. Bir qanchasi “Ko‘mak” fondi yordamida Germaniyada o‘qidilar. Ular jamiyatni o‘zgartiruvchi “yumshoq kuch” bo‘lishni maqsad qilgan edilar.

Afsuski, Germaniyada tahsil olgan momolarimiz keyinchalik sho‘rolar qatag‘oni qurboni bo‘ldilar – taqiqqa tushdilar, hibsga olindilar, ayrimlari qatl qilindilar... Ularning ba’zilari hali turmushga chiqmagan, boshqalari homilador, yana birovlari qo‘lida chaqalog‘i, uyida norasida farzandlari bor edi.

“Onamning aytishlaricha, – deb xotirlaydi Maryam Sultonmurodovaning qizi Anoraxon Davronova, – 1937-yilning 30-avgustida Toshkent shahrining hozirgi Oloy bozori yaqinidagi Uyezdnaya ko‘chasi 13-uydan erta tongda ikki harbiy kiyimli kishi kelib, to‘satdan qo‘llarida 5-6 oylik chaqaloqlik vaqtimda onamni men bilan birga haydab qamoqqa olib ketishgan. Onam 1947-yil, ya’ni 10 yildan so‘ng birinchi marta qamoqdan kelgunicha men ammamlar qo‘lida, akam Po‘latbek Ahmadbekov avval yetimxonada, so‘ng xolam Gulchehra opa qo‘lida onaga zor bo‘lib katta bo‘ldik”.

Ya’ni bir ayolning kurashi nafaqat o‘zini qurbon qilish, balki oilasini, yaqinlarini, atrofidagi mikroolamni jiddiy xavfga qo‘yish edi. Ular shunday qurbonliklar berdilar, ular shunday jasur edilar.

XX asrning boshida Turkistonda kechgan jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrida ayol o‘laroq mavjud bo‘lish oson emas edi. Bir yoqda “O‘zbekistonning kelajagi qanday bo‘ladi?” degan savol ustida bolsheviklar va jadidlar qarashlari to‘qnashdi, urushlar bo‘ldi. Boshqa tomondan og‘ir iqtisodiy ahvol, yana diniy taassublar...

Har qanday qiyinchiliklar avvalo ayollarning turmushida aks etdi.

Jahon-og‘uga kelgan Anbarotinman,
G‘am-u qayg‘uga kelgan Anbarotinman.
Yamon soatda keldim man jahonga,
Ini jodug‘a kelgan Anbarotinman.
Adab ahli oyoq ostida xordur,
Chunin yog‘dug‘a kelgan Anbarotinman.

Anbar otin – ilk jadid ayollardan. U o‘zini noto‘g‘ri zamon va makonda dunyoga kelgan deb hisoblaydi. Ya’ni davrni va tuzumni tanqid qiladi. Uning “Qarolar falsafasi” asarini bir o‘qib ko‘ring. Jamiyatdagi ijtimoiy notenglik, iqtisodiy tanglik, siyosiy ko‘rlik va maishiy qoloqlik fojiasini kamida Didro, Kant, Monteskyo, Russo darajasida tahlil qilib bergan. Lekin u ayol edi, ovozi eshitilmadi...

Jadid ayollar – biz juda kam biladigan insonlar. Asli bugungi o‘zbek ayollari aksar huquqlari uchun ulardan minnatdor bo‘lishi kerak. Shu sababli ham tarixning chodrasi ortida yashirin qolib ketayotgan ushbu dadil, faol va ilmli momolarimizning nomi kengroq targ‘ib qilinishini istayman.





TOGETHER LET'S DRIVE

CHEVROLET

yuk Sak did va sifa Atsari

SAODAT TURSUNOVA, O‘ZBEKISTONLIK RESTORATOR

Aeroportdagi tandir-o‘choq, qutqarib qolingan o‘zbek pavilyoni, muvaffaqiyatning ikki omili.

Saodat Tursunova – “Uzbechka” loyihasi (Domodedovo aeroporti, Moskva, 2006-yil) muallifi. PIR-2009 doirasidagi tanlov sovrindori, “Chibi” restorani konsepsiyasi uchun “Original konsepsiya va mukammal ijro” nominatsiyasida “XXI asr restorani” sovrini sohibasi.

Yigirma yildan ziyoddirki, uch mamlakatda biznes boshqaruvi bilan shug‘ullanadi. Inqiroz boshqaruvi, loyihalarni noldan oyoqqa qo‘yish borasida tajribaga ega. Dubaydagi “Besar” va “Lali”, Toshkentdagi “Faru” va “Sora” restoranlarini o‘z tarkibiga oluvchi “Sati by Saodat Hospitality” kompaniyasi egasi.

“Uzbechka”, “Shara-bara”, “Faru” loyihalari hozirgi kunga qadar o‘zining muvaffaqiyatli faoliyatini davom ettirmoqda.



FOTO: KAMOLA SALIMBAEVA



Restoran *biznesiga kirib kelishingiz tasodifmidi yoki azaliy orzu?*

– Mutlaqo tasodif. Taqdir taqozosi bilan oilaviy Moskvaga ko‘chib ketganmiz. U yerda yaqin tanishim bilan O‘zbekistonning keng ko‘lamli ipak festivallarini o‘tkazganmiz. Jarayon men uchun juda qiziq bo‘lsa-da, vaqtim samarali o‘tayotgandi, deya olmasdim. Bir qancha vaqtdan so‘ng Moskvadagi zamonaviy kiyimlar do‘konini boshqarish taklifini oldim. Buni qarangki, yo‘nalishidan qat’i nazar biznes mavzusiga tezda kirishib keta olarkanman.

Kiyim do‘konida natija yaxshi bo‘ldi: qisqa muddatda daromad uch baravar oshdi va ikkinchi shoxobchani ochishga kirishdik. O‘sha kezlari hozirda restorator hamkasbim, Moskvada chiqadigan “Restorator” jurnalining sobiq muharriri Yekaterina Drozdova o‘zbek noni haqida hikoya qilib berishni taklif qildi. Avstraliyalik novvoy, oshxona mavzusidagi qalamkash, fotograf, teleboshlovchi va mashhur bosh oshpaz Den Lepar uyimga tashrif buyurdi. Tasvirga olish jarayonida onam yopgan nonlar haqida hikoya qildim, non yopdim, o‘zbek nonini pishirishdagi o‘ziga xosliklar, xamir qanday bo‘lishi kerakligi-yu jarayonda mehrning qanchalik muhimligi haqida so‘zlab berdim. Juda qiziq material va fotosessiya jurnal sahifalaridan joy oldi.

Bir qancha vaqtdan so‘ng shu voqea sabab bir restoran rahbari bilan tanishib qoldim, u boshqaruv bilan bog‘liq muammolardan shikoyat qildi. Gap-gap bilan bo‘lib, shu loyiha ustida ish boshladim. O‘sha vaqtda restoran zararga ishlar, shu bois mas’uliyatni yangi nomzodga yuklab, tavakkal qilishdan boy beradigan narsaning o‘zi yo‘q edi. Loyihaga ikki rol bilan – boshqaruvchi va bosh oshpaz sifatida kirib keldim, restoran konsepsiyasini, nomini o‘zgartirdim – “Etno”. Ilgari restoran hind taomlarini taklif qilgan bo‘lsa, bir chaqa ham sarf qilmay, dekorga ayrim o‘zgartirishlar kiritgan holda turli yo‘nalishdagi, xususan, o‘zbek oshxonasini o‘zida jamlagan sharqona restoranni yaratdim. Natijada juda qiziqarli va zamonga mos uyg‘unlikka erishdik, talab ancha oshdi.

Bu loyihaga rozi bo‘lishimning muhim sababi bor edi. Restoran egasi xizmat haqqi borasida bir shart qo‘ygandi: menga o‘sha lavozimdagi erkakka nisbatan uch baravar kamroq to‘lamoqchi edi. Nega, deb so‘raganimda, javob qisqa bo‘ldi: siz ayolsiz, ayol esa erkakdan yaxshiroq uddalay olmaydi. Rosti, bu menga tegib ketdi! Va men ham o‘z taklifimni berdim: misli ko‘rilmagan natija ko‘rsataman va o‘sha lavozimdagi erkak bilan bab-baravar haq olaman. Kelishdik. Kechagidek eslayman: sutkalab ishlashga to‘g‘ri kelar, uyqu nimaligini bilmas, surunkasiga uxlamagan kunlarim bo‘lardi!

Atigi bir oy ichida restoran aqlbovar qilmas natija ko‘rsatdi – daromad bir necha baravarga oshdi. Bu bir oy ichida yangi sohaning o‘ziga xosliklarini tushunish, jarayonda ikki yetakchi rolni baravar olib borish, konsepsiyani o‘zgartirish, jamoani birlashtirib, raqamlarda ko‘rinadigan natijaga erishish kerak, degani edi. Qizig‘i, jamoa yig‘ilib bo‘lgandi, boshqaruvda avvaliga qiyinchiliklar bo‘ldi, rahbar sifatida o‘z so‘zimga ega bo‘lish ustida ishladim va ish jadallasha boshladi. Deyarli har doim huvillab yotadigan, banket poylaydigan restoran qisqa vaqt ichida ommabop joyga aylandi, hatto joylarni ko‘paytirish uchun stol izlab qoldik, olti oydan keyin esa savdo qariyb o‘n baravar oshdi! Birinchi oydayoq nomzodim uchun taklif etilganidan uch hissa ko‘proq haq oldim.

Ilk *restoraningiz qanday nomlangan?*

– Mualliflik konsepsiyam asosida yaratilgan ilk loyiha bu – “Uzbechka”. U 2006-yilda Domodedovo aeroportida, “Kofemaniya!” kompaniyasi buyurtmasiga asosan ochilgan. Bu o‘sha vaqtda aeroportda ochiq olov tizimi asosida ishlaydigan yagona restoran edi. Igor Viktorovich Juravlyov bilan ko‘rishdik, u o‘z loyihasining g‘oyasini so‘zlab berar, andozalarni chizarkan, nahot taqdir inson g‘oyalari va ilhomi bilan shunday hazil qilsa, deb lol-u hayronlikda o‘tirardim. Gap shundaki, Igor aytayotgan, chizayotganlarining barini men bir yarim yil avval qog‘ozga tushirgandim. Aynan shu g‘oyani so‘zlab berish maqsadida, ammo mutlaqo boshqa loyiha bo‘yicha maslahatlashish bahonasida uni uchrashuvga taklif qilgandim. Orzu nainki to‘lqinlantiradi, balki magnit misoli odamlarning yo‘llarini, ro‘yobga chiqishi kerak bo‘lgan g‘oyalarni birlashtiradi. Restoran nomini men o‘ylab topdim – “Uzbekcha”, tamom. Igor hazillashib, mening ismim bilan nomlashni taklif qilgandi. Birinchi uchrashuvdayoq chizmalarni Igorga ko‘rsatdim, u hayron qolib, qanday qilib bunchalik tez chizishga ulgurganimni so‘radi. Restoran g‘oyasi aslida suhbatimizdan ancha avval tug‘ilganini, fayllar kompyuterda tayyorlanganini aytdim.

Ikkimiz ham muhim haqiqatni angladik: bu loyihani amalga oshirish uchun ikkimizni taqdir uchrashtirdi. Qarabsizki, to‘qqiz oy ichida mening eng chiroyli loyihalarimdan biri amalga oshdi, u hamon faoliyat yuritmoqda, hozir Sheremet’evo aeroportiga ko‘chgan. Loyihani me’mor Aleksey Nazarov bilan birga bajardik, uning mehnati bilan faxrlanaman va undan minnatdorman. Loyiha juda puxta o‘ylangandi, o‘sha vaqtda – 2006-yildayoq o‘zbek oshxonasining ommalashib, mashhurlikka erishishini bashorat qilgandim. Shunday bo‘ldi ham.

Loyihadagi eng qiyin jihat ventilyatsiya tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bo‘lgan. Juravlyov xorijiy mutaxassislarni taklif qilgan bo‘lsa-da, menga g‘oyamni ona tilimda tushuntirib berishim mumkin bo‘lgan mutaxassislar kerak edi. O‘zim diplomli muhandisman va biz o‘rinli yechimni o‘ylab topdik. Yodimda, o‘choq va tandirning ishlash tamoyilini tushuntirib bergandim, ventilyatsiya tizimi strategik obyektning xavfsizligiga daxl qilmaydigan tarzda rejalashtirilishi, aeroportning yetti qavatli shiftidan o‘tishi kerak edi. Restoran maydoni atigi 200 kv. metr bo‘lsa-da, har bir santimetrdan oqilona foydalandik. Bu misli ko‘rilmagan tashkiliy, muhandislik, konseptual ish bo‘lib, uni muvaffaqiyat kutardi. Loyiha muvaffaqiyatida rishtonlik ustalarning ijodiy mehnati beqiyos – ular bizning chizmalarimizga asosan har bir plitka, har bir ko‘za va har bir detalni mukammal holda tayyorlashdi, qog‘ozdagi barcha g‘oyalarim amalga ko‘chdi, har bir santimetr, har bir rang xuddi o‘ylanganidek bo‘ldi.

Sevimli *loyihangiz qaysi? Va nega?*

– Bu qiyin, o‘ylantiradigan savol. Avval ham aytganimdek, qaysi loyihaga kirishmay, unga bor diqqatimni qarataman, cheksiz mehr beraman. Yapon oshxonasi asosidagi restoran – “Chibi”ni tashkil qildim (chibi – anime qahramonlarini tasvirlash uslubi bo‘lib, bunda personaj gavdasi juda kichik bo‘lgani holda, bosh qismi juda katta, gavda bilan deyarli bir xil hajmda tasvirlanadi. Odatda bo‘y 3-5ta bosh hajmiga teng bo‘ladi, bu bolalar tana o‘lchamlariga mos keladi). Bu restoran 2009-yilda Moskvada “Eng yaxshi konsepsiya uchun” mukofotini qo‘lga kiritdi. Mazkur loyiha Yaponiya mavzusiga chuqur kirib borish, uning madaniyati, an’analari, maishiy hayotining o‘ziga xos jihatlari, xalqona mehmondo‘stligini o‘rganishni talab qilardi. Men uchun Yaponiya bamisoli koinot – unga xos har bir jihat aqlbovar qilmas darajada g‘aroyib.

Loyihaning eng murakkab tomoni o‘zimizga xos uslubni yaratish edi. Mualliflik uslubi asosida loyihaning o‘z ohangini yaratmoqchi edim. Logotip ustida naqd to‘qqiz oy ishladik, bu vaqtga kelib restoran allaqachon tayyor edi! Yaponcha, betakror, o‘zgacha, eksklyuziv uslub istagandim. O‘zimizga keraklisini topish uchun hamhislik, qalb va tafakkur ochiqligi, mehmonga nima xush kelishini his qilish va yaratish muhim.

Har bir loyiha mehrni, ishtiyoqni talab qiladi: unga mehr berasiz, uzoq, mashaqqatli mehnat qilasiz, buning mahsuli o‘laroq xuddi farzandingizdek loyiha dunyoga keladi. Kuni kelib “Chibi”ni Toshkentda ham yo‘lga qo‘yishni juda istardim.

Navbatdagi *restoran loyihasini qanday tanlaysiz? E’tiborni nimaga qaratasiz?*

– Har gal turlicha. Masalan, “Ogni Tashkenta” loyihasida menga binoni ko‘rsatishgan, jahon va poytaxtdagi tendensiyalarni, muayyan lokatsiyani o‘rganishni, iqtisodiy ahvolni tahlil qilishni boshlaganman. Aytgancha, shunchaki shaharda aylanib yurganimda ham doim iqtisodiyotni chamalab boraman: ijara narxlari, qanday tashkilotlar ko‘proq ijaraga joy olishi – bularning bari muayyan vaziyat bo‘yicha tafsilotlar beradi. Shundan kelib chiqqan holda ayni makon va zamonda qanday taklif muvofiqligi haqida o‘ylay boshlayman. Gohida esa aksincha bo‘ladi. Muayyan oshxonaga talab yuqoriligi ma’lum va shunga mos bino izlay boshlaysiz. Gohida odamlar taklif bilan, muayyan imkoniyatlar bilan chiqishsa va g‘oya menga ma’qul tushsa – yuragim jiz etsa, uni takomillashtirish ustida ishlab, shundan keyingina loyihaga rozilik beraman. Bunda qandaydir “tayanch nuqtasi” muhim. Gohida bu “tayanch nuqtasi” loyiha g‘oyasiga ilhomlantirgan tush bo‘lishi ham mumkin.

Ayni *vaqtda qaysi loyiha bilan bandsiz?*

– Toshkentda ikkita loyiha ustida ish olib boryapmiz: bir yarim yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Farш restorani va ochilish arafasidagi Sora. Dubayda ham ikkita loyiha ustida ish qizg‘in ketmoqda: biri Palm-Jumeyrada, ikkinchisi esa Bluewaters Island’da qurilmoqda. Biri ispancha restoran bo‘lib, Dubay meriyasining e’tiboriga tushgan, ikkinchisi esa o‘zbek oshxonasi. Ikkisi ham muhtasham va chiroyli. O‘zbek restorani talqini o‘ziga xos, hozirgacha hech kim o‘zbek oshxonasini bu shaklda taklif qilmagan, men o‘z yondashuvimni namoyish etmoqchiman. Ikkala loyiha ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga ishonchim komil.

Mijozlar *bilan bog‘liq, qiyin yoki aksincha kulgili, qiziqarli holatlar bo‘lganmi?*

– Dubayga qanday kirib borganimni aytib bersam. Toshkentdagi biznes uchrashuvlardan biriga Dubaydan tanishim kelib, EXPO’da o‘zbek restoranini ishga tushirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar haqida, professional mutaxassis ko‘magi zarurligi haqida gapirib qoldi. Yaqin do‘stim bo‘lgani uchun yo‘q deya olmadim va atigi ikki kun ichida Moskva, Toshkent va Olmaotadan mutaxassislarni jamlab, o‘zbek pavilyonini qutqarishga otlandim. Uch yillik ovoragarchiliklarga sabab bo‘lgan restoranni to‘liq uch hafta ichida qayta ishlab chiqdik. Turli loyihalardagi butun faoliyatim davomida hech qachon zalga chiqmaganman. Butun jarayonni o‘z xonamda ekranlar orqali kuzatib borganman. EXPO ko‘rgazmasidagi “Lali” restoranida esa zalga chiqishimga to‘g‘ri kelgan.

Oshpazlarni o‘zimiz bilan olib kelganimiz sababli oshxonada osongina kuchli jamoa shakllandi, zal xodimlarini esa mahalliy aholidan yolladik. Ular bilan yaqindan tanishishga ulgurmasimdan misli ko‘rilmagan darajada katta oqimda mehmonlar kela boshlagan. Ustiga-ustak, ko‘plab yuqori martabaga ega mijozlar – vazirlar, shayxlar, muhim shaxslar... Bu esa restoran uchun juda katta mas’uliyat edi.

EXPO rahbari restoranni ko‘zdan kechirish uchun olti daqiqalik tashrif bilan kelgan-u, pirovardida, naqd bir yarim soat qolib ketgan. Yana u bilan birga kattagina jamoa ham bor edi. Bu restoranning ilk ish kuni edi, ipak xalat kiyib zalga chiqishimga to‘g‘ri kelgan. Tan olishim kerak, birdaniga bunchalik ko‘p odamga xizmat ko‘rsatishga tayyor emasdik, shunga qaramay, buning uddasidan chiqqanimizdan baxtiyor edim. Jamoam bilan improvizatsiya qilishimizga to‘g‘ri keldi va ilk bor hurmatli mehmon oldiga mezbon beka sifatida chiqishimga to‘g‘ri kelgan. Juda sarosimaga tushib qolgandim, chunki ofitsiant yoki zal ma’muri sifatida hech qanday tajribam yo‘q edi. Ammo shayx juda mulozamatli bo‘lib, loyihaning barcha kuchli jihatlarini, taomlar va jamoani takalluf bilan e’tirof etdi. Har tomondan jurnalistlar chiqillatib suratga olishar, yuzimda tabassum, xayolim suhbatda-yu, ikki ko‘zim delegatsiyani kutib olish jarayonini nazorat qilish bilan band. Suratimiz Dubay EXPO xronikasiga tushib qoldi, bu shov-shuvli tashrifdan so‘ng restorandan oq kandurali mehmonlarning qadami uzilmay qoldi.

Baxt *bu – yuqori haq to‘lanadigan hobbi. Siz haqingizda shunday deyish mumkinmi?*


– Yaxshi savol. Dadam shunday derdilar: “Hech qachon pulning ortidan quvma! Sen mehnat bilan band bo‘l va pulning o‘zi ortingdan ergashib yuradi!” Buni qanday tushunaman? Mahoratingizni sayqallab, ko‘nikmalaringizni rivojlantirib, mukammallikka yetishish kerak, ishingizning ustasiga aylanganingizda esa pul o‘z-o‘zidan kelaveradi. Bu dono haqiqatni hayotdagi tamoyilimga aylantirganman. Oiladagi tarbiya juda muhim – men o‘qimishli, yaxshi didga ega insonlar oilasida voyaga yetdim. Bu borada taqdir meni siylagan.

Ancha vaqtgacha tushunmasdim: biznes boshqaruvi, qurilish, oshxona – bularning barini qayerdan bilaman? Axir bularning hech biri bo‘yicha hech qanday maxsus ta’lim olmaganman-ku! Hozir esa bu savolning javobi kundek ravshan: bunda nafaqat tarbiya, ko‘p jihatdan genlarning roli ham beqiyos. Har gal biron loyihaga qo‘l urganimda butun borlig‘im bilan kirishib ketaman. Yuragingiz ishtiyoq bilan yonishi kerak, aynan mana shu qalbdagi o‘t, quvvat marralar sari yo‘l ochadi. Muvaffaqiyatning ikki omili bor: iqtidor bo‘lsa, masala mohiyatiga kirish uchun intellekt bo‘lsa va inson o‘laroq yetuklikka erishgan bo‘lsangiz, har qanday yuklamaga dosh bera olasiz.

Loyihalarni yuritish chog‘ida bir muhim haqiqatni tushunib yetdim: har qanday loyihani amalga oshirish jarayonida juda katta bosim ostida bo‘lasiz, bu bosimga chidash, o‘z navbatida, yaratuvchanlik ilhomini yo‘qotib qo‘ymaslik muhim. Aynan iroda kuchi, loyiha g‘oyasiga, uning maqsadiga bo‘lgan ishonch belgilangan maqsad sari olg‘a harakat qilish uchun kuch bag‘ishlaydi. Ko‘zlar porlab turishi, chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lishingiz, muhim uchrashuvlarni o‘tkaza olish, bunyod etish, tayyorlash kerak – butun kun davomida inson sifatida xayolga keltirish mumkin bo‘lgan turli rollarda o‘zingizni namoyon etishingiz, shuncha yuklama ostida ham tabassumni, xushchaqchaqlikni boy bermaslik, sevimli mashg‘ulotingizdan zavqlanishda davom etish muhim. Loyiha tanlovida men uchun muhim shart: loyihadan ilhomlanishim, hamkor men uchun qiziq bo‘lishi, qadriyatlar va hayotiy tamoyillar borasida hamfikr bo‘lishi lozim. Chunki bularning bari ortida mening qalbim bor! Aynan shug‘ullanayotgan ishimdan baxtiyorlik hissi yuqori natijalarga erishish, o‘zim va hamkorlarim uchun ruhiy va moliyaviy muvaffaqiyatni ta’minlashga yordam beradi.

Tina IMAMJAN suhbatlashdi

MUTOLAA: INTELLEKTUAL SUPERILOVA



Matn: Saidaziz A'ZAMOV

MUTOLAA – ENG SARA KITOBLARNING ELEKTRON, AUDIO HAMDA VIDEO FORMATIDAGI SIFATLI VA TIZIMLI PLATFORMASI.



iOS va Android tizimlarida ishlovchi ushbu ko'p funksiyali intellektual ilovani Yoshlar ishlari agentligi qo'llab-quvvatlayotgan g'ayratga to'la jamoa Xalq banki bilan hamkorlikda yaratgan.

"Ilmni yoyish uchun jadidlardan qanday namuna olsak bo'ladi? Shu haqda ko'p o'yladik, izlandik. 1908-yilda Behbudiy Samarqandda mutolaaxona tashkil qilganiga e'tibor berdik. Audio, video, sun'iy idrok texnologiyalari orqali kitoblar o'qishni, yangi bilim va g'oyalarga ega bo'lishni ommalashtirish uchun boshlagan loyihamizga Mutolaa deb nom berdik", – deydi O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev.

Loyihani yuritish uchun xuddi jadidlar kabi xorijda o'qib, Vatan rivojiga hissa qo'shishni maqsad qilgan, nufuzli Edinburg universiteti magistri Sirojiddin Olimov taklif qilingan. Mutolaaga yana qalami o'tkir yosh adib Javlon Jovliyev, bolalar yozuvchisi Sa'dullo Quronov, rejissor va aktyor Erkin Bozorov, shuningdek, o'zbek dublyaj san'atining barcha ko'zga ko'ringan vakillari jalb qilingan.

"Turli janr va mavzudagi 2000 dan ortiq kitoblar joylashtirilgan ilovamizdan bugun 700 mingga yaqin foydalanuvchi bahramand bo'lmoqda. Biz bu raqamni 2024-yilning yakunigacha 1 millionga yetkazmoqchimiz, – deydi loyiha rahbari Sirojiddin Olimov. – Mutolaa shunchaki elektron kitoblar termasi emas. Biz hozir "digital native" deb nomlanayotgan zamonaviy avlod, ya'ni tug'ilganidan boshlab o'z hayotiga smartfonlar faol kirib kelgan bolalar va yoshlar hamda ularning aka-opalari, ota-onalari uchun ularning kundalik turmush tarzida o'z o'rniga ega bo'ladigan interfaol, multifunksional ilovani yaratyapmiz. Bu katta da'vo, katta ish, albatta. Bu maqsad bizni har kuni mahsulotimizni takomillashtirish ustida bosh qotirish va bor salohiyatimizni ishga solishga undaydi."

YUKLAB OLISH

GASTRONOMIK ishqiy

Toshkentliklar uchun betakror ta’m va shinamlik ramziga aylangan Chaykof qahvaxonalar tarmog‘i asoschisi Alina Tsimerman orzulari, sirli mahsuloti va rostgo‘ylik haqida.



– Restoran biznesiga kirib kelganingizda allaqachon tanilib ulgurgan teatr aktrisasi edingiz. Qanday qilib bu qarorga keldingiz?

– Qahvaxona ochish istagi avvaldan bo'lgan. Bu orzu o'n yil meni tark etmadi. Ammo, rostini aytganda, o'zimga ishonishga qo'rqardim, atrofimdagilar ham uddalay olishimga ishonishmasdi. O'ttiz yoshga yaqinlashganimda o'yladim: hozir shu ishni boshlayman! Hammasini tashlab, Mavrikiyga, do'stim Jerom Rigo bosh oshpaz bo'lib ishlaydigan besh yulduzli mehmonxonada tajriba orttirish uchun ketdim.

– Teatrdagi tajribangiz kundalik biznes yurituvida qanday yordam beradi?

– Teatrda tarbiyalangan diqqatni ushlab qolish, fikrni shakllantirish va ommaviy chiqishlardan qo'rqmaslik hissi yordam beradi.

– Doim yangi tamaddixonalar ochish bilan bandsiz – Maqom, Moloko, Chaykofning yangi shoxobchalari. Yangi joy ochishda eng qiyin jihat qaysi?

– Bir vaqtning o'zida ham qiyin, ham oson. Haligacha bironta holat bo'lmaganki, yangi tamaddixona ochib, dastlabki 3-4 oy davomida dam olishsiz, kuniga 14-16 soatlab ishlashga to'g'ri kelmagan bo'lsa. Ovqat tayyorlash, pollarni, yuvinish xonalarini tozalash, moliyaviy masalalar, ta'minotchilar bilan hamkorlik, xodimlar... Jamoa yig'ib, hamfikrlarni tarbiyalaguncha eh-he.... Mana shu ham jismonan, ham ruhan ancha toliqtiradi.

Ammo mehnatlaring samarasini ko'rganingda, boshing ko'kka yetadi va yana quvvatga to'lasan!

– Xodimlar boshqaruvida eng qiyin jihat nima? Bu borada qanday usullaringiz bor?

– Sabr, sabr, mehr va sabr. Yana xodimlarga nisbatan rostgo'y bo'lish kerak. Hech qachon o'zingiz bajarishga tayyor bo'lmagan ishni boshqalardan talab qilmaslik.

– Toshkentdan tashqarida qayerda yangi qahvaxona ochishni orzu qilasiz? Va nega?

– Hech qayerda. Rosti, nafaqaga chiqqanimda dengiz bo'yida yashab, bog' yaratgim, gullar ekkim, oqshomlari bog'imda o'tirgancha choy ho'plab, chirildoqlar tovushiga quloq tutgim, yulduzlarga mahliyo bo'lgim keladi.

– Chaykof mehmonlarini tasvirlang. Kim uchun qahva va panini tayyorlaysiz?

– Toshkentliklar.



– Qahvaxonangizda eng mashhur taom qaysi? Va buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

– Chaykofda bu xonaki kartoshka, sirniklar va SSSR nonushtasi. Menimcha, ular sodda, tushunarli va mazali, ortiqcha dahmazalardan xoli ekanligi uchun ham ommabop. Mehmonlarimizning aksariyati konservativ tafakkur egalari, ular yangiliklarni ancha ehtiyotkorlik bilan qabul qilishadi.

– Toshkentliklarni sizning qahvaxonangizga jalb qiladigan, boshqalardan ajratib turadigan sirli mahsulot nima?

– Qanchalik jimjimador eshitilmasin, bu – mehr. Mehmonlarimizga, qilayotgan ishimizga bo'lgan mehr.

– Turmush o'rtog'ingiz – bosh hamkoringiz. Bunday hamkorlikning ijobiy va salbiy tomonlari nimada?

– Ijobiy tomonlari bisyor! Birgalikda vaqtni ajoyib o'tkazamiz. Har doim uning qo'llovini his qilaman, bilamanki, Artyom har qanday vaziyatda qutqaradi, yordam beradi. Yana Artyom bosh maslahatchim va eng ishongan insonim. Biron narsadan xavotirga tushsam, o'zimga ishonchsizlikni his qilsam, har doim meni ruhlantirib, dalda beradi.

– Ish va uy o'rtasida chegarani qanday saqlaysiz?

– Hech qanday. Bunga ne hojat? Men chegaralarga uncha ishqiboz emasman.

– Turmush o'rtog'ingiz yaratgan, siz uchun eng sevimli qandolat mahsulotlari qaysi?

– U yaratadigan hamma mahsulotlar bilan faxrlanaman. Odamlar o'zlariga rohat bag'ishlaydigan ish bilan shug'ullanishlarini yoqtiraman. Hatto biron ishi "o'xshamay" qolgan taqdirda ham maqsad sari qat'iyati bilan g'ururlanaman.

– Turmush o'rtog'ingiz yangi g'oyalarini sizda sinovdan o'tkazadimi? Bu jarayon qanday kechadi?

– Har doim sinovdan o'tazadi. Qizig'i, aslida shirinlikka uncha hushim yo'q. Gohida bu jarayon qiynoqqa solishga o'xshaydi. Lekin fikrim uning uchun muhimligini tushunaman va bu bilan faxrlanaman. Shuning uchun hammasini paqqos tushiraveraman.

Tina IMAMJAN suhbatlashdi



FAOLLIKDAN HUQUQ HIMOYASIGACHA

DILFUZA KUROLOVA, INSON HUQUQLARI BO‘YICHA YURIST, GLOBAL SHAPERS TASHKENT HUB (WORLD ECONOMIC FORUM’NING YOSHLAR HARAKATI) ASOSCHISI:

Bugun mamlakatimizda ko‘plab islohotlar amalga oshirilyapti, ularning tashabbuskori nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, faollar va huquq himoyachilari ham hisoblanadi. O‘tkir, gohida noqulay va dadil masalalarni ko‘tarib chiqadigan bu fuqarolik jamiyati guruhlarining faoliyati haqida biroz batafsilroq so‘zlab berishni istardim.

O‘zbekistonda uzoq yillar davomida faollik yoki huquq himoyasi “yashirin” faoliyat sanalgan, xatarli hisoblangan. 2016-yilda siyosiy tizim yangilangach, mamlakatdagi vaziyat tubdan o‘zgardiki, buni “siyosiy mahbus”larning qamoqxonalardan ozod qilinishi, yangi faol va huquq himoyachilarining paydo bo‘lishi, fuqarolik jamiyatining harakatga kelgani hamda davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida muloqotning yo‘lga qo‘yilgani tasdiqlaydi.

SHAXSIY TAJRIBA: FAOLLIK

Balki oilada hech qanday kamsitishga duch kelmaganim uchunmi, maktabda ham, universitetda ham meni jinsga ko‘ra kamsitishayotganini uncha tushunmaganman. Afsuski, buni inson huquqlari sohasida ish boshlaganimdan keyingina tushunib yetdim. Ammo har doim huquqlarimni pesh qilib kelganman, adolatsizlikka mutlaqo toqatsizman. Ehtimol, aynan shuning uchun ham O‘zbekistonning huquqni muhofaza qilish yoki sud organlarida faoliyatimni davom ettirmay, nodavlat sektorga o‘tib ketgandirman. 2017–2018 yillarga qadar bugungi har bir faol borki, fikrlarini tilga chiqarish mumkin emas, deb o‘ylagan yoki qo‘rqqan. Menda ham shunday bo‘lgan, chunki ijtimoiy tarmoqlardagi postlarim rahbarlarimning “sizni deb kaltak bizning boshimizda sinadi” qabilidagi vajlari bilan o‘chirilgan holatlar ko‘p bo‘lgan.

Lekin mamlakat siyosati o‘zgarib, fikrga, sog‘lom muloqotga ochilgach, odamlar savollarni o‘rtaga tashlab, javoblar ola boshlashdi. Shunda o‘zimga savol berdim: “Odamlarga, jamiyatga, atrofimdagilarga qanday yordam bera olaman?” Buni dugonam bilan muhokama qilish chog‘ida ijtimoiy tarmoqlarda aholiga dastlabki yuridik maslahatni bepul taqdim etish fikri tug‘ildi. Shu tariqa faollik harakatim boshlandi. Qolaversa, bunday maslahatlashuvlar muntazam ravishda yuridik yechimlar izlash, huquq me’yorlarini aholi uchun sodda tilda tushuntirish va amaliy tajribalar bo‘yicha izlanishga undardi.

Murojaatlarni tahlil qilgan holda aksariyat so‘rovlar oilaviy zo‘ravonlik, ish joyidagi kamsitish, institutsional loqaydlik, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik, ajrashish jarayonlari va boshqa masalalar bilan bog‘liqligini tushundim. Ana shunda jamiyatda huquqiy savodxonlik va yuridik klinikalar tanqisligi fojiali ahvolda ekanini angladim hamda milliy qonunchilik va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro me’yorlarni, o‘z xulosa va kuzatuvlarimni ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qila boshladim.





Inson huquqlari bo‘yicha amaliy va akademik sohada anchadan beri shug‘ullanib kelayotganim tufayli 2020-yil o‘rtalarida O‘zbekistondagi ayollar huquqlari masalasida loyiha doirasida YouTube uchun katta intervyuga taklif qilishdi. Buning ortidan tarmoqda misli ko‘rilmagan negativlar va tahdidga nishon bo‘ldim. Bunday nafrat va tahdidlar bilan ilk bor to‘qnash kelishim edi, ko‘pchilik chindan ham ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni legitimlashtirishi va o‘z dalillarini turli asossiz sabablar bilan oqlashga urinishlarini ko‘rib, hayratdan yoqa ushladim. Shunda bu haqida oshkora gapira boshladim va mazkur vaziyat haqida barcha tegishli muassasalarga yozib chiqdim, chunki bunday holatda sud tizimi yordam bera olmaydi. Va albatta, nafratga qarshi kuchni – o‘n minglab odamlarning qo‘llovini his qildimki, bu menga faollik ishida ishonch bag‘ishladi.

Bu qimmatli va uncha yoqimli bo‘lmagan tajriba tufayli haligacha fuqarolik jamiyati institutlariga BMTning kelishuv organlari uchun muqobil hisobotlar yozishda yordam beraman, chunki ro‘yxatdan o‘tgan NNT va faollar guruhlarining hammasi ham bunday hisobotlarni organlar talabiga muvofiq yoza olishmaydi.

SHAXSIY TAJRIBA: HUQUQ HIMOYACHISI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining oilaviy zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashga oid qonun ishlab chiqish uchun tuzilgan ishchi guruh tarkibida olgan tajribam bebaho, negaki o‘shanda ayollar koalitsiyasining kuchini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Ishonchim komil, bizning (“NeMolchi.uz loyihasi faollari, UNICEF va Bosh prokuraturaning kuchli va jasur ayollaridan iborat kichik guruh) harakatlarimizsiz va siyosiy ta’sirga ega ayollarning qo‘llovisiz oilaviy zo‘ravonlik uchun haligacha jinoiy javobgarlik belgilanmagan bo‘lardi. Bu qonun, shuningdek, zo‘ravonlikdan bolalar himoyasini ham kuchaytirdi. Ammo qonunning qabul qilinishi barcha muammolarning hal bo‘lishini kafolatlamaydi, qonun ichkarida – sudgacha bo‘lgan tergov jarayonida, sudda va undan keyin qanday ishlashini tushunish uchun, fuqarolik jamiyati va davlat sifatida zo‘ravonlik qurbonlarning himoyasini kuchaytira olishimiz uchun jinoiy-ma’muriy ishlar bo‘yicha advokat litsenziyasini olishga qaror qildim.

KEYIN-CHI?

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining so‘nggi ma’lumotlariga qaraganda, oilaviy zo‘ravonlik va jinsiy tegajog‘lik qurbonlari sudga ariza kiritish uchun o‘zlarida kuch topa olishyapti (chunki qonun qabul qilingunga qadar qurbonlar ishonchsizlik, bosim va shubhalar sababli hech qayerga murojaat qila olishmagan), o‘z navbatida, huquqni muhofaza qilish va sud organlari bu murakkab masalaga nisbatan yuqori hushyorlik namoyish qilishmoqda (ayblov hukmlari va huquq buzilishiga qarshi belgilanayotgan sanksiyalardan kelib chiqqan holda).

Qayd etish zarurki, faollar va huquq himoyachilari ko‘p hollarda turli to‘siqlarga duch kelib, boshi berk ko‘chaga kirib qolishadi, bu hissiy va kasbiy zo‘riqishga, olib keladi. Ustiga-ustak, ish/faollik va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanat (work and life balance) saqlash juda qiyin. Men ham bundan mustasno emasan.

Faollik yoki huquq himoyasi bilan shug‘ullanadiganlar uchun shaxsiy tavsiyalarim:

- Qarindoshlar, yaqinlar va professionallardan yordam so‘rashdan uyalmang, zo‘riqish apatiya yoki depressiyaga aylanib ketishi mumkin;
- Stressdan chalg‘ituvchi hobbiga ega bo‘lgan ma’qul, doimiy taranglik yaqinlaringizning sizga munosabatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin;
- Do‘stlaringiz va qadrdonlaringizga nisbatan “toksik” munosabat, lekin bu uzoqqa cho‘zilmasligi kerak;
- Unutmang, huquq bor joyda, burch ham bor. Bu haqiqat ko‘pincha ko‘zdan qochiriladi;
- Ishni imkoniyatingiz doirasida bo‘lgan, kuchingiz yetadigan narsalarni o‘zgartirishdan boshlang, shunda ko‘proq ishonch, kuch va qo‘llovga erishasiz, bu esa hammasidan ham muhim;
- Har doim yodda tuting, ijtimoiy tarmoqlarda, gazeta va jurnallarda yozadigan har bir so‘zingiz sizga qarshi qo‘llanishi mumkin (bu, “Miranda qoidasi”ni eslatadi). Oliy yuridik ta’limga ega bo‘lgan holda men chegara va qizil chiziqlar qayerdaligini juda yaxshi tushunaman, ularni aslo, hatto bugun ham kesib o‘tish mumkin emas. Shu bois har doim nimani va qanday yozayotganimni qayta-qayta tekshiraman. Bu ichki senzuradek tuyular, balki, ammo faollar va huquq himoyachilari mana shu voqelik bilan yashaydi.

O‘zbekistonda vatani uchun qayg‘uradigan, mamlakatni rivojlantirish, islohotlarni izchil davom ettirish uchun hukumat bilan yelkama-yelka ishlashga shay bo‘lgan faollar va huquq himoyachilari ko‘p. Bu o‘rinda davlat organlari tomonidan ham tolerantlik namoyish etilishi juda muhim. Barcha qiyinchiliklariga qaramay, bizning faoliyatimiz mamlakat uchun suv va havodek zarur. Zero, faollar va huquq himoyachilarining ovozi joylardagi haqiqatni fosh etuvchi, muqobil manzarani ko‘rishga yo‘l ochuvchi vositadir. Barchaning ovozi muhim, sog‘lom tanqid – vatanini sevadigan vatanparvarlarning fikri. Shuning uchun ovozlarimiz yanada baralla va dadilroq yangrashi kerak.

SELLERS
ASSOCIATION



HAMFIKRLAR

YANGI

O‘ZBEKISTONDA ONLAYN SAVDO RIVOJI VA UZUM HAQIDA

Oxirgi bir necha yilda O‘zbekistonda mutlaqo yangi soha shakllandi – mamlakatimiz onlayn savdo bozori o‘sish sur’ati bo‘yicha Markaziy Osiyoda peshqadamlikni egalladi. Uzum ekotizimi va Uzum Market milliy marketpleysi paydo bo‘lishi bilan onlayn shopping kirib bormagan xonadon qolmadi hisob – bugun har o‘n o‘zbekistonlikning to‘qqiztasiga bu brend tanish. Butun mamlakat bo‘ylab 10 mingdan ziyod tadbirkor va kompaniyalar market-pleysdan nafaqat xarid, balki sotuv maqsadida ham foydalanadi. O‘zbekistonda Sellerlar uyushmasi, savdo vakillari biznesni rivojlantirishda bir-biriga yordam beradigan hamjamiyat shakllandi. Nashrimiz savollariga Uyushma asoschilari – ikki oilaviy juftlik: Yekaterina va Temur Rashidovlar, Larisa Xan va Roman Kim javob berishdi.



– O‘zingiz, sohadagi tajribangiz va qanday qilib raqobatchilardan sheriklarga aylanib, Sellerlar uyushmasiga asos solganingiz haqida aytib bersangiz.

Yekaterina Rashidova: Men Uzum Marketda savdo qilaman, marketpleysning barcha yangi servislari va qulayliklarini birinchi bo‘lib faol ravishda o‘rganaman, marketpleys bo‘yicha “ER” agentligi asoschisi sifatida boshqa sotuvchilarga yordam ko‘rsatish barobarida, Sellerlar klubi va uyushmasi hamta’sischisiman. Umuman olganda, hozirgi faoliyatim har qanaqasiga onlayn savdo bilan bog‘liq – tovar va kategoriyalar egallanmagan yo‘nalishlari tahlilchisi, Jahon banki spikeriman, yaqin vaqtdan beri o‘zbekistonlik ishlab chiqaruvchilarga xorijiy bozorlarga chiqishga yordam berib kelmoqdaman.

Temur Rashidov: Sellerlar klubi va uyushmasini rivojlantirish barobarida o‘z Sell Sklad fulfilment markazini yuritaman. “Ko‘p tarmoqli tadbirkor”man desam ham bo‘ladi, ilgari 3 ming avtomobilga ega transport kompaniyasiga egalik qilganman.

Larisa Xan va Roman Kim: Biz butun faoliyatimizni birgalikda olib boramiz. Uyushmani rivojlantirish ustida birga ishlaymiz, Jahon banki loyihalarida spiker sifatida ishtirok etamiz. Uzum Market’da savdo qilishni birinchilardan bo‘lib boshlaganmiz: kichik maishiy texnika va jihozlar savdo-sotig‘i bilan shug‘ullanamiz. Qolaversa, jihoz ishlab chiqarishda ham hamkorlarmiz.

Raqobat bozor va mijoz uchun doimiy kurashga undaydi. Hozirda bu an’anaviy savdo uchun o‘rinli. O‘zbekiston elektron savdo bozorida esa vaziyat tamoman boshqacha – u nisbatan yaqinda faol rivojlana boshladi, milliy marketpleys, ilk sellerlar paydo bo‘ldi.

Temur Rashidov: Biz, savdo vakillari tez o‘rganishimiz, yangiliklar bilan qadamba-qadam borishimiz kerak edi. Shunda sohadagi odamlar bir-birlariga yordam bera olishlari uchun sellerlar klubini yaratish fikriga keldik. Umumiy qiziqishlarga asoslangan klub – yaxshi qadam. Ammo o‘z so‘zingizga ega bo‘lishni istasangiz, uyushma bo‘lishingiz kerak. Tabiiyki, sellerlar hamjamiyati nomidan rasmiy vakillik qila olish uchun uyushma tashkil qilishga qaror qildik.

R.K: Klub mutlaqo tasodifan paydo bo‘ldi. 2022-yil noyabrida endi boshlaganimizda Uzum Market chatida chamasi 150 kishi bor edi. Ko‘pchilikni soliq masalalari va yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tish qiziqtirardi.

Do‘stimiz Yevgeniya Son (“Yaran Consulting” konsalting kompaniyasi boshqaruvchi hamkori, “Charley” zoomahsulotlar internet do‘koni hamta’sischisi)dan soliq va mulkdorlik shakllari (afzallik va kamchiliklar) bo‘yicha vebinar o‘tkazib berishni so‘radim. 90 nafarcha qatnashchi ishtirokida telegramda chat tashkil qildik. Bu chat qizigandan-qizidi: odamlar muloqotga kirishib, savollar berishni, tajriba almashishni boshlashdi. Temur va Yekaterina bilan tanishganimizda chatdagilar soni taxminan 200 nafarga yetgandi. Jarayonni olg‘a harakatlantiradigan uyg‘unlik hosil bo‘ldi. Hozir esa bu chat 3400 odamni birlashtirib turibdi.

Bu yerda marketpleyslarda savdo qilmoqchi bo‘lgan istalgan kishi mutlaqo bepul yordam olishi mumkin. Hozirda asosan Uzum Market haqida so‘z bormoqda, chunki bu hozircha O‘zbekistondagi yaxshi aylanma, savdo va daromadga ega bo‘lgan yagona onlayn maydon hisoblanadi.

L.X: Shuni qo‘shimcha qilmoqchimanki, biz O‘zbekistonda elektron tijorat rivojlanishi, bozor kengayishi tarafdorimiz. Bu sellerlar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat uchun, umuman bozor rivoji uchun muhim. Qolaversa, bu davlat organlari uchun ham manfaatli, biz ular bilan yaqindan hamkorlik qilamiz.

– Elektron savdo bozori rivojlanishi natijasida O‘zbekistonda istalgan kishi tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Internet savdo hududiy rivojlanishga ham yordam beradimi?

R.K: Tadbikrorlik nuqtayi nazaridan gapiradigan bo‘lsak, hududlardagi odamlarda mamlakat miqyosida biznesni yo‘lga qo‘yish imkoniyati paydo bo‘ldi. Offlayn sharoitlarda uyingiz oldida kichik do‘kon ochishingiz mumkin. Maqsadli auditoriyangiz mahalladoshlardan nariga o‘tmaydi. Internetda savdo qilish orqali esa mamlakat miqyosida faoliyat yuritish mumkin.

T.R: Mazkur infratuzilma orqali daromad qilish mumkin. Yekaterina ikkimiz fulfilmentga egalik qilamiz – bu shunday tuzilmaki, mahsulotni sotuvga tayyorlash, qadoqlash va omborga yoki mijozga yuborishda yordam ko‘rsatadi.

Mohiyatan, O‘zbekistonning har bir istiqomatchisi endi kichik kapital bilan bo‘lsa-da tadbirkorlik bilan shug‘ullana oladi. Do‘kon ochish uchun kamida 10–15 ming dollar kerak, elektron tijoratda esa kichikroq byudjet bilan ham biznesni yo‘lga qo‘yish mumkin.

– O‘zbekistonda Uzum kabi ekotizimda ishtirok etish nimalarni anglatadi?

Ye.R: E-com sekin-asta xaridorlar xulqini shakllantirib bormoqda. Bu ayniqsa, yosh auditoriya uchun qulay. Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra, Uzum Market foydalanuvchilarining taxminan 60 foizini 18–44 yosh oralig‘ida bo‘lganlar tashkil etadi.

Bir qator yangi kasblar paydo bo‘ldi. Masalan, marketpleyslar bo‘yicha menejer. Shu kabi mutaxassisliklarga zarurat borligini ko‘rib, ular uchun o‘quv mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘ydik. Tez orada bularning ikkinchi mavsumi boshlanadi. Internet savdoning rivojlanishi boshqa sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, IT, marketing, tahlil, logistika.

L.X: Uzum O‘zbekiston elektron tijorat bozorining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Uzum Market tufayli odamlar internet orqali nafaqat xarid qilish, balki sotishni ham o‘rganishdi.

Bu kompaniya chin ma’noda O‘zbekiston elektron tijorat bozorida inqilobni amalga oshirdi. Va haqiqatan ham iste’mol va xarid odatlarini o‘zgartirmoqda. Bu juda muhim voqelik. Hammamiz texnologiyalar bilan hamnafas yashashga majburmiz. Hozirgi bosqichda bunga e'tibor qaratib, texnologiyalardan foydalanayotganlar, tabiiyki, bir qadam oldinda bo‘lishadi.

Murad NASIROV suhbatlashdi

AZIZ
SHOHAKIMOV

musiqa sevgilik

Toronto, Sietl, Seul, Tokio, Frankfurt, Varshava, Rim, Istanbul, Parij va boshqa shu kabi dunyoning madaniyat va musiqa poytaxtlarida yil davomida konsertma-konsert yurib, yuzlab sozandalarga dirijyorlik qilish... Bu chinakam dunyo odami bo‘lish, biror mamlakatning doimiy rezidenti emas, musiqa saltanatining fuqarosi bo‘lishga namuna. Strasburg Filarmonik Orkestri musiqiy rahbari, jahon toifasidagi dirijyor, O‘zbekistondan chiqqan yuqori did va mahoratga ega musiqachi Aziz Shohakimov 2023-yilda Uzbekistan's club jamoasining “O‘zbekistonlik” nomli mashhur hujjatli filmi qahramoni bo‘lgan edi.

Uzbekistan's club u bilan mumtoz musiqa, uning zamonamiz insonlari, xususan, O‘zbekiston jamiyati uchun qanday ahamiyatga egaligi, yoshlarda musiqaga bo‘lgan muhabbatni qanday shakllantirish mumkinligi haqida suhbatlashdi.



FOTO:
JEAN-BAPTISTE MILLOT



FOTO: GRÉGORY MASSAT

IFODA

Insonning shunday samimiy his-tuyg‘ulari, fikrlari, intim kechinmalari borki, ularni so‘z bilan ta’riflash qiyin. Mumtoz musiqa esa, nazarimda, o‘sha ehtiroslarni betakror tarzda yetkazib bera oladi. Klassika ajib muhit yaratib, tinglovchini yangi voqelik sari eltadi, unga o‘zini boshqa dunyoga tushib qolgandek his qilish imkonini beradi.

YAKDILLIK

Yoshligimda, xalqaro simfonik orkestrda kuy ijro etganimda, shuni anglab yetganmanki, mumtoz musiqa hatto ziddiyatli xalqlarni ham birlashtirishi mumkin. Mumtoz navo turli madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan o‘ziga xos xususiyatga ega. Sayyorada tillar xilma-xil, ammo musiqa tili hamma uchun mushtarak.

Ayrim klassik asarlar insondan hayotiy tajriba orqali shakllanadigan alohida tafakkurni talab qiladi. Shu bois har kim o‘zining ma’naviy va intellektual yetukligiga qarab, asarlarni individual idrok etadi.

ILHOM

Musiqani yaratishda men uchun ilhom manbasi – uyg‘unlik hamda mo‘jaz mukammallikni o‘zida mujassam etgan tabiat go‘zalligidir. Yana meni musiqa, adabiyot, rassomlik, ilm-fan, sport va falsafada o‘z ijodi, yutuq va g‘oyalari bilan insoniyat ravnaqi, tafakkur ufqlarimiz kengayishiga ulkan hissa qo‘shayotgan buyuk shaxslar ilhomlantiradi. Ustozim Vladimir Borisovich Neymer menga doim ilhom bag‘ishlab kelgan. Goho bu qaytar dunyo ekan, deb o‘ylab qolaman: ustozim Kiyevda tug‘ilgan va Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkentga evakuatsiya qilingan. Do‘stona xalqimiz uning oilasini qabul qilib, ochlikdan qutqardi va, ehtimol, shukronalik ehtiromi o‘laroq, u butun umrini O‘zbekistonga bag‘ishlashga ahd qildi, el-yurtga sadoqatli bo‘lib, umrining oxirigacha ko‘plab iste’dod sohiblari, o‘z sohasining professionallariga aylangan o‘zbekistonlik mutaxassislarni tarbiyalab chiqardi.

SARCHASHMA

Musiqa shunchaki notalar, ritm, garmoniya va ohanglar to‘plami emas, balki u inson xilqatining eng chuqur jabhalarini-da qamrab oluvchi chinakam san’atdir. Uning inson uchun ahamiyati ilmiy tadqiqotlar natijalaridagina emas, har bir insonning shaxsiy tajribasi orqali ham namoyon bo‘ladi. Klassik musiqa chuqur falsafiy ma’no bilan sug‘orilgan bo‘lib, tiriklik va o‘lim mohiyati, inson qalbining tabiati haqida fikr yuritishga majbur qiladi. Har bir notada, har bir akkordda turfa his-tuyg‘ular kamalagi bor: quvonch-u zavqdan to qayg‘u va g‘amginlikkacha. Aynan mana shu xilma-xil kechinmalar bilan klassik musiqa inson uchun muhimki, u bilan biz eng chuqur tuyg‘ularni boshdan kechiramiz, ichki dunyomiz uchun yangi ufqlar ochamiz. U biz uchun abadiy ilhom va oliy insoniy sifatlar bulog‘i sifatida ahamiyatlidir.

SHAYDOLIK

Bizga mumtoz musiqa haqida suhbat qura oladigan, uning nima uchun muhimligini tushuntira oladigan iqtidorli va bilimli odamlar kerak. Musiqachilar bir vaqtning o‘zida bir nechta ishda ishlamasdan, o‘zlarini to‘liq musiqaga bag‘ishlashi uchun davlat va homiylar himmat qilishi kerak.

Avvalo, musiqa bog‘idagi yosh nihollarni parvarish qilishimiz zarur. Esimda, O‘zbekiston milliy simfonik orkestrida amaliyotchi dirijyor bo‘lib ishlagan paytlarimiz maktab o‘quvchilariga tez-tez ma’ruzalar o‘tardik. Afsuski, hozir bunday an’ana yo‘q.

Mumtoz musiqa tinglab, uning go‘zalligini anglab ulg‘ayayotgan yoshlardan kelajakda faqat husni xulq kutish mumkin, menimcha.

TA’LIM

Zabardast ustozlarning endi oramizda yo‘qligi, yoshlar esa diplom olib, mehnatiga munosib haq to‘lanadigan mamlakatlarga ketishga urinayotgani bois, O‘zbekistonda musiqa ta’limi darajasini yuqori deya olmayman. Qolaversa, yurtimizda hamon qo‘llanayotgan sovetcha musiqa maktabi, qanchalik ajoyib bo‘lmasin, ma’nan allaqachon eskirgan.

Ko‘rinib turibdiki, musiqa ta’limi tizimi islohotni talab qiladi. Birinchi navbatda o‘qituvchilarning obro‘-e’tibori va mehnatiga haq to‘lash darajasini oshirish kerak, deb hisoblayman. Keyinchalik yangi ta’lim tizimini yaratish uchun xorijlik mutaxassislarni yoki xorijda ishlab yurgan yurtdoshlarimizni jalb qilish lozim. Bu katta sarmoyani talab qiladi, lekin uzoq muddatda ko‘p foyda keltiradi. Afsuski, bu borada O‘zbekistonda strategik qarash yetarli darajada emas.

GONORAR


Yevropada orkestrlar odatda mehnatiga munosib maosh oladi va qo‘shimcha daromad manbalarini izlashga ehtiyoj sezmaydi. Afsuski, O‘zbekistonda musiqachilar o‘zlarini boqish uchun bir necha ishlarda ishlashga majbur bo‘lmoqda, bu esa ijro sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ijod bilan shug‘ullanish motivatsiyasini pasaytiradi. Bundan tashqari, G‘arb orkestrlari kelgusi yil uchun aniq jadvalga ega, chunki mavsumlar malakali rahbariyat tomonidan puxta rejalashtirilgan. Shuni tan olish kerakki, O‘zbekistonda orkestrlar 2–3 oydan keyin qanday repertuarda chiqishlarini ba’zan tasavvur ham qila olmaydi. Boshqacha aytganda, mavsumni puxta rejalashtirish uchun bizda yetarli malakali ma’murlar yetishmayapti.

TARBIYOT

Bundan tashqari, yengil musiqa ijro etiladigan yoki klassik san’at yoki rok musiqasi bilan aralashgan konsertlar tobora keng tarqalyapti. Shaxsan men bunday konsertlar doimiy emas, bir yilda bir necha marta o‘tkazilsa, qarshi emasman. Tomoshabinlar nafaqat o‘zlarining hozirgi didiga mos keladigan musiqani, balki ularda didni shakllantiradigan asarlarni tinglashi muhim, deb o‘ylayman.

TOSHKENTDAGI SEVGI

NAVOIY JOYLIYEV



SIZLARNI BILMADIM-U, MEN SEVGILIM HAQIDA XAYOL SURISH UCHUN TEATRGA BORAMAN.

Toshkentda kim haqidadir soatlab xayol surish uchun bundan yaxshi joyni topish amrimahol. Yarim litr muzday “Coca-cola” hamda to‘rt yil-u sakkiz oylik achchiq, omadsiz muhabbatim xotiralaridan bo‘lak hech kim va hech narsa menga sherik bo‘lmaydi.

Toshkent san’at asarlarini suvtekinga sotadigan kamdan kam uchraydigan poytaxtdir. Bugun ham bilet uchun atigi 35 ming so‘m – 3 dollar sarfladim. Kulgili narx, sahnada esa yuzdan ortiq odam ter to‘kadi. Xijolat bo‘lasan kishi... Teatr jamoasiga achinaman – ba’zilari bizda o‘qituvchilardan ham battar kun ko‘rishadi, uysiz, mashinasiz, to‘ylardagi choy-chaqalarini aytmasa, maosh oyning o‘ninchi kuniga ham bormay Orol dengizi kabi qurib bitadi. Azbaroyi san’atsevarligi yo bo‘lmasa kelajakda shon-shuhrat borasidagi yaltiroq orzulari bilan yashaydi. Ayrimlarining esa boshqa ishni eplashiga ko‘zi yetmagani uchun ham sahna atrofida o‘ralashib yuradi va biri ikki bo‘lmay qariydi, ursang ham ketmaydi. Achinarlari taqdirlar.

Mayli, bugun men aktyorlar haqida o‘ylab ezilgani emas, faqat va faqat sevgilim haqida shirin o‘ylarga berilish uchun keldim. Hozirgi kunda diqqatni bir soat bir joyda ushlab turishning o‘zi mo‘jiza bo‘lib qoldi.

Oydin 22 yoshda. Men uni sevaman.

O‘lay agar, uni bir ko‘rishdayoq telbaga aylanganman. Chin gapim shu: bir marta ko‘rdim, tamom, men avvalgi tartibli, halovatli hayotim butkul izdan chiqishini ich-ichimdan angladim.

Oydinga ko‘r-ko‘rona mubtalolik boshlanmasidan oldin menda hech qanday sevgi tajribasi, “o‘ldim-kuydim” bo‘lmagan, balki bari telbalikning bosh sababi shudir, chunki bu dunyo faqat tajribasizlarning boshini g‘urra qilishga usta.

Mana, oradan besh yilga yaqin vaqt o‘tsa ham, Oydin o‘jarlik bilan tutqich bermaydi. Men esa borgan sari asabiy va jahldor oshiqqa aylanib qolayotganimni, qisqa qilib aytganda, hayotim tizginsiz, dabdala bo‘lib ketganini sezib turibman. To‘rt oydan so‘ng javobsiz sevgimga besh yil to‘ladi va bu besh yil meni butunlay boshqa odamga, avvalgi hayotimdan faqat suratimni ko‘chirgan bir yangi va baxtsiz nusxaga aylantirib qo‘ydi. Men yangi odamga aylandim, u eskisiga pasportdagina o‘xshaydi, xolos. Men yangi odamni yomon ko‘raman, lekin burungi kunlarga qaytishga ham yo‘l yo‘q.

Oydinga har kun Telegramdan yozaman, qisqa javoblar keladi, bo‘lgani shu! Qoliplarga solingan soxta salom-aliklar – smayliklarni menga loyiq ko‘radi. Itdan yomon ko‘raman nimadir yozgan odamga osongina faqat layk bosib qo‘yadiganlarni, ko‘rgani ko‘zim yo‘q, nafratlanaman hatto... Bu nafrat faqatgina javobsiz muhabbatdan emas; 8 million qarz olib, uch yarim yildan beri bermayotgan va har muqaddas juma kuni bir xil so‘zlar ila tabrik suratini jo‘natadigan qo‘shnim ham sabab. Men unga bergan pulga qo‘shib mashina olmoqchi edim, plastik kartamga har oylik maoshdan bir million jamg‘argan edim, endi esa bu orzuni ko‘mdim. Uning “erta beraman, indin beraman, uy sotaman, mol sotaman, keyin beraman” degan vajlarining turfa xiliga ko‘milib ketdim, men tongimni u qanday yangi sabab ixtiro qilishini o‘ylab ottirgan kunlarim bo‘lgan.

QIZ NA YO‘Q, NA HA DEYDI, NA BIZGA IMKON BERADI; UNI BATTAR SEVIB QOLGANDIRMAN

Hozir hammasidan charchadim, asabiylik yuragimni tamom qilishidan qo‘rqaman. Pul “qulog‘ini ushlab” ketganidan ham emas, Toshkent ko‘chalarida mashina haydashga bardoshim yetmasligi haqida o‘ylayman. Qo‘shnim qarzini berdiyam deylik, men yana o‘zimni tergab-tejab pul yig‘aman, mashina olaman va har qadamda turli balo uchraydigan ko‘chaga chiqamanmi? Yo‘q, yo‘q! Bizda haydovchilarning to‘qson foizi negadir doim shoshgan va darg‘azab, nimadandir noligan, bir-birining ustiga haydagan, sabrsiz. Shu to‘daga qo‘shilamanmi? Yo‘q, also!

Qo‘shnim qarzini bermagani durust ekan. Shu o‘tgan uch yarim yil ichida shaharni piyoda kezishni qadriyatimga aylantirib oldim. Mashina olishdan butunlay voz kechdim, pulni esa mashina uchun yig‘moqchi edim. Demak, endi qarzini qaytarishi umuman kerak emas. Shu qarorga kelgan kunim eng baxtli kunlarimdan bo‘ldi.

Toshkentni piyoda kezganda ajib go‘zalliklarni ko‘rasiz, tartibsizlik ichidagi bir uyg‘unlikni payqaysiz, rayhonlar ekilgan hovlilar bilan birga, tor kulbalarga duch kelasiz, ulug‘vor masjidlar oralab ajoyib-u g‘aroyib bozorlarga o‘tib qolasiz. Muhtashamlik va g‘ariblik ichra ingrayotgan shahar manzaralari sizga bir ulkan san’at asarining dekoratsiyasini eslatadi.

Men bir kuni tongda unsiz ko‘zyosh to‘kayotgan Toshkentni ko‘rganman. O, dahshat! Unsiz, qo‘llari bilan og‘zini berkitgancha bir chekkada yig‘layotgan betakror Toshkent.

Shuning uchun har juma qarzdorning tabrik SMSlari kelar ekan, menga umidsiz javoblar berayotgan sevgilimdan boshqa narsani esga olmayman. Qiz na yo‘q, na ha deydi, na erga tegadi, na bizga imkon beradi; savol va jumboqlar ichida uni battar sevib qolgandirman balki.

Ko‘rishganimizda ham doim jim, lablari titragancha nimanidir aytmoqchi bo‘ladi-yu, ammo hech nima demay, doim bezbetlarcha irshayib, uni kutib turadigan qizil mashinasi tomon chopadi.

Gohida asabiylikdan uning hayotiga suqilib kirishni istayman, buning yomonligini bilaman, lekin nima qilay, Telegramdan keladigan smayliklarga ishonib yashamayman-ku!

Oydin mashina qo‘yadigan joyga kameralar qo‘yganimga sabab ham shu. U ulovini o‘chirayotganda yoki o‘t oldirayotganda ko‘rib turishni istayman, joyiga kimdir mashinasini qo‘yganda asabiylashadi – yanada go‘zallashadi, ancha vaqt kutadi va o‘sha onlarda mening aziz filmim biroz cho‘ziladi va bu menga Neftlix teleseriallaridan ko‘ra ko‘p karra maroqli tuyuladi. Ammo uning dardini hamon bilmayman; kimni kutadi, kimga ishonadi, kimni sevadi, kimniki bo‘ladi – shu savollar bilan umidsizlangancha uni juda sevaman.

Men bugun yana uni o‘ylash uchun teatrga keldim, ammo bu yerda meni nimalar kutayotganini hali bilmasdim.

(Hikoyadan parcha)



MONA LIZADEK MUHIM SO'ZLAR

Matn: Said FOZILOV

LALI FAZILOVA
LALI

NILUFAR ABDUVALIYEVA
MURSAK
@MURSAK.BOUTIQUE

MADINA KASIMBAEVA
SUZANI BY KASIMBAEVA
@SUZANI_KASIMBAEVA



IDEAL AYOL SIYMOSI

O‘zbekistonda ideal ayol siymosi sifatida aqlli, ko‘ngilchan, hayotidan rozi va shu bilan birgalikda zamonaviy, ishning ko‘zini biladigan hamda o‘z uslubiga ega ayollar qabul qilindi. Ularni qaysi millat ayollari bilan tenglashtirish mumkin? Bilmayman. Menimcha, tengi yo‘q, topilmasa kerak.

Bizning qizlar bolaligidan chiroyli turmush tarziga intilishadi. Sezganmisiz? Hammasi risoladagidek bo‘lishi kerak – yashayotgan uyingiz, ovqatlanayotgan stol, kechki aylanishga boradigan joylar... Aynan shuning uchun ham biz hozir “Ayol san’ati renessansi” davrida yashayapmiz. Bu shunday davrki, unda ayol ham aqli, ham o‘z qo‘li bilan estetik buyumlar yasaydi. Ishonamanki, kun kelib bunday ishlar san’at darajasiga chiqadi va shunday tan olinadi.

O‘zbek dizaynerlari deyarli hamma narsa ixtiro qilingan zamonda ham yangiliklar yaratishi bilan dunyoni hayratda qoldirishmoqda. Mohir qo‘llar chiroyli naqshlarni o‘ylab topmoqda, o‘z chizmalarida sun’iy intellekt yordamidan foydalanib o‘z g‘oyalarini yetkazib berishyapti. Atrofga qarang, buni oddiy to‘qish mahsulidan tortib, qiyin yo‘nalishga ega moda olamida ham ko‘rishingiz mumkin!

Meni xursand qiladigan tomoni – “Uzbekistan’s club”da ayollar hunarmandchiligiga qaratilgan e’tibor. Biz bunday yo‘nalish borligini bilamiz, lekin bu haqida sport va pop madaniyat dunyosiga ko‘p e’tibor qaratganimiz tufayli kam gapiramiz. Chunonchi, ayollarimiz yaratgan mahsulotlar diqqat va ilhomlanishga arzirli.

Ushbu mahsulotlarning qadr-qiymati, san’atga tenglashtirilishi juda o‘rinli holat. Axir butun dunyo Mona Liza tabassumi sirini bilishi kerag-u, o‘zbek ayoli tikkan so‘zani haqida bilmasligi kerakmi?

DILNOZA UMIRZAKOVA
ANOR
@ANORATELIER

LOLA SAIFI
HUMAN WEAR
@HUMANHOUSEGALLERY

MARKHAMAT UMAROVA
MARU
@ICHOOSEMARU



Ayol taqdiri haqidagi FILM

AYUB SHAHOBIDDINOV

NIGORA KARIMBOYEVA



Ayol taqdiri va uning ruhiyatini bor bo‘y-basti bilan ochib bergan dunyo kinosi durdonalari barmoq bilan sanarli. Bu bir jihatdan mamlakatlarning madaniy, siyosiy qadriyatlariga borib taqalsa, ikkinchi tarafdan ayol dunyoqarashi, uning qalbi va hayotiy kechinmalarini ochib berish bir muncha murakkab jarayon sanaladi. Yana bir muhim tomoni, filmlarning jahon kinosiga kirib borishi tomoshabinlarning didi, kino san'ati va sanoatidagi tendensiyalar bilan ham bevosita bog‘liq.

Matn: Iroda NASIMOVA



1. **“Tutqunlik”** (L’Eclisse) – italyan rejissyori Mikelanjelo Antonioni tomonidan 1962-yilda ishlab chiqarilgan film Piero (Alen Delon) ismli odam va Vittoriya (Monika Vitti) ismli ayol o‘rtasidagi murakkab munosabatlar haqida hikoya qiladi. Filmda yolg‘izlik, munosabatlardagi murakkablik ayol psixologiyasi orqali ochib berilgan. Film jahon kinosining klassik namunalari qatoriga kiradi.

2. **“Muhabbat kayfiyatida”** (Fa yeung nin wah) – gonkonglik rejissyor Vong Kar-vay tomonidan suratga olingan film. U nafaqat syujeti, qahramonlarining mohir ijrosi bilan, balki vizual uslubi, rejissyorning suratga olish mahorati bilan ham tanilgan. Kartinada bosh rolni ijro etgan aktrisa Meggi Chun mashhur Kann kinofestivalida “Eng yaxshi aktrisa uchun” mukofoti bilan taqdirlangan.

3. **“Turnalar uchmoqda”** (Летят журавли) – 1957-yilda rejissyor Mixail Kalatozov tomonidan yaratilgan sovet filmi. Asarning markaziy syujetida Vera ismli ayol sevgilisining urushdan qaytishini kutadi. Vaqt o‘tib, front ortidan qora xat keladi. Ushbu asar urush haqidagi eng muhim va unutilmas filmlardan biri sanaladi.



4. O‘zbek rejissyori Ali Hamrayevning **“Laylak keldi, yoz bo‘ldi”** filmi qishloqda yashovchi o‘zbek oilasining hayoti, ijtimoiy va madaniy qarama-qarshiliklarga duch kelgan o‘g‘il va qiz o‘rtasidagi muhabbat haqida hikoya qiladi. Mazkur kinoasar O‘zbekistonda ham, xorijda ham katta muvaffaqiyatga erishgan.

5. **“Begona”** (Die Fremde) – nemis rejissyori Feo Aladagning 2010-yilda yaratilgan drama uslubidagi filmi. Germaniyada yashovchi Umay ismli turk ayoli zamonaviy nemis jamiyatida oilasining urf-odatlari va madaniyatiga qarshi turishga majbur obraz sifatida gavladalantiriladi. Kartina syujeti migratsiya, madaniy moslashuv, oilaviy munosabatlar va ayol qalbidagi ichki ziddiyatlarni ochib bergan.

6. **“Uch yuz”** (Se rokh) – Eron kinosanoatining 2018-yilda yaratilgan durdonasi. Noyob asar rejissyori Jafar Panahiy jamiyat hamda urf-odatlarga bog‘liq muammolarga duch kelgan va ularni hal qilish uchun qishloqqa sayohatga chiqqan uch ayol qahramonning kechinmalarini mahorat bilan ochib bergan.

7. **“Ayka”** – Sergey Dvortsevoyning ushbu drama filmi 2018-yilda chiqdi va rus kinosida muhim voqeaga aylandi. Moskvada “surrogat ona” bo‘lib ishlayotgan qirg‘izistonlik yosh ayolning hayoti va uning qiyinchiliklari fonida migratsiya, ijtimoiy tengsizlik va inson qadr-qimmati mavzulari yoritilgan.

8. **“Qarindoshlar”** (Родня) – 1981-yilda Nikita Mixalkov tomonidan suratga olingan sovet tragikomediyasi. Unda oddiy qishloq ayoli va uning oilasi timsolida Rossiyaning ijtimoiy va siyosiy muammolari tasvirlangan.

9. **“Usama”** – afg‘on rejissyori Siddiq Barmakning dunyo bo‘ylab kinofestivallarda keng tan olingan va mukofotlarga sazovor bo‘lgan filmi sanaladi. Kinoasar Afg‘onistonda Tolibon hukmronligi davrida yashovchi Usama ismli yosh qizning taqdiri haqida hikoya qiladi.

Ushbu filmlar yo‘nalishi, syujeti va qahramonlar ijrosi bo‘yicha eng nufuzli mukofotlarga loyiq topilgan. Ayol irodasi va ruhiyatini teranroq anglash uchun ko‘rishni tavsiya qilamiz.

KARINA MAVLYANOVA

AYOLGA BYT BERING





Yoshligidanoq keksa ayollar qizlarga baxtli hayot tilaydilar. Ommaviy axborot vositalari va badiiy filmlarda ayolning baxti nikohda, farzand ko‘rish, uvali-juvali bo‘lish, shinam uy-ro‘zg‘orga beka bo‘lishda ekanligi uqtiriladi.

Shu tariqa, orzu-havaslarga to‘la qizaloq allaqachon o‘z baxtining timsolini yaratib bo‘ladi va shunga intilib yashaydi. Uning o‘z oilasi, mehr-muhabbatga qurilgan ro‘zg‘ori timsolidagi go‘zal orzulari amalga oshirilmaguncha, u kelajagi haqida qo‘rqib, qayg‘urib yashaydi.

Ammo shaxsiy amaliyotimda duch kelganimdek, har doim ham ayol shunday ideal suratdagi orzulariga erishganidan so‘ng ham o‘zini baxtli his qilmaydi. Bir kun kelib, oiladagi munosabatlarida yengib bo‘lmaydigan qiyinchilikka duch kelar ekan, u o‘zining baxti qayerda ekani haqida bosh qotiradi, chunki u hamma narsani “to‘g‘ri” qildi: u yaxshi turmushga chiqdi, shirindan shakar farzandlar dunyoga keltirdi, havas qilgudek ro‘zg‘or qurdi.

AYOLLAR NIMADAN AZIYAT CHEKADI?

1. Ularning his-tuyg‘ulari qabul qilinmasligidan. Bizga bolaligimizdan o‘rgatilmaydigan eng muhim bilimlardan biri – o‘z tabiatimizni anglab yetish, tushunish. Biz, ayollar jismimizdagi gormonal o‘zgarishlarga bevosita bog‘liqmiz. Bunga shuningdek, hissiyotlarimiz ham bog‘liq. Bunday o‘zgarishlar bo‘lganda ularga haddan tashqari ko‘p e‘tibor berish kerak deb hisoblashadi. Ko‘p ayollar bunda o‘zlarini aybdor deb his qiladilar va kayfiyatlari ham tez-tez o‘zgarishini shu gormonal o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Boz ustiga, aksar hollarda erkaklar ham ayollarini tushunmaydi va ularni ayblaydi. Shunda ayollardagi kompleks yanada kuchayadi.

2. Muvaffaqiyatli ayolning umumiy jamlangan obrazi mavjud bo‘lib, unga erishish oson ish emasligidan. Bu super-uy bekasi, super-ona, super-rafiqa, super-model, jamiyatda o‘z munosib o‘rniga erishgan, kamiga, o‘z pulini o‘zi topadigan super-ayol obrazidir. Ayollar bu obrazga yengil-yelpi qaraydi va aslida unday super-ayol bu “muvaffaqiyat” nimalar evaziga vujudga kelganini, uning uchun u nimalardan voz kechganini hisobga olishmaydi. O‘zini bunday super-ayol obrazi bilan solishtirganda, albatta, oddiy ayol u bilan raqobatlasha olmaydi.

3. Oiladagi o‘zaro munosabatlarda murosaning ahamiyatini tushunib yetmaslikdan. Ayol hech qanday nizolar va kelishmovchiliklar bo‘lmagan ideal munosabatlarning tasvirini chizadi. Ammo ular bir kun kelib duch kelganida, o‘zida nimadir noto‘g‘ri ekanligidan azob chekadi va shuning uchun u baxtli hayot qura olmaydi yoki uning umr yo‘ldoshi ayoliga nisbatan adolatsizlik qiladi va nimanidir unga yetarli darajada bera olmaydi. O‘zaro munosabatlarga shikast yetishi birga bo‘lishdan ko‘ra ajralishga sabab bo‘lishini kamdan kam odam tushunib yetadi.

4. Ayol bu dunyo uning qonun-qoidalari bilan yashashini kutadigan xom-xayoldan aziyat chekadi. Uning orzu-havaslari ko‘p; qandaydir shahzoda kelib, uni hayotning barcha qiyinchiliklaridan xalos qiladi, orzularini amalga oshiradi, degan xayol bilan yashaydi. Bu amalga oshmasa, o‘zidan hafsalasi pir bo‘ladi, ichki dunyosiga qamalib oladi va shu tariqa o‘zi yaratgan komplekslardan aziyat chekishni boshlaydi. U kechikkan orzular va norozilik tuyg‘usi bilan yashashga tushadi.

5. Ayol o‘z umr yo‘ldoshi, qarindoshlari, farzandlari – hamma uchun yaxshi bo‘lishga shunchalik intiladiki, u o‘ziga nisbatan sezgirlikni yo‘qotadi. O‘z imkoniyatlarini, ehtiyojlarini tan olishni bas qiladi, shaxsdan funksiyaga aylanadi. O‘zaro munosabatlarda bunday ayol o‘z sevgilisiga manzur bo‘lishga va shu bilan birga harakat qilib, asliyatini yo‘qotadi va vaqt o‘tishi bilan umr yo‘ldoshining unga bo‘lgan qiziqishi so‘nadi. Bu mening amaliyotimda juda keng tarqalgan voqelik bo‘lib, muolajalarimizda biz ayolni uning o‘z asliga qaytarish, o‘zini o‘zi qabul qilish va imkoniyatlarini uyg‘otish ustida ishlaymiz.

BAXTGA ERISHISH UCHUN ODDIY QADAMLAR

Ayollar, nafaqat kamchiliklaringizni, balki kuchli jihatlaringizni ham payqashni o‘rganing, bu o‘zingizning qadr-qimmatingizni mustahkamlaydi.

Sevgi-muhabbat bilan oila qurish, farzandli bo‘lish juda yaxshi, lekin o‘zingizni ham unutmang, kimdir sizning ehtiyojlaringizni anglab yetishini kutmang, o‘zingiz bu haqda g‘amxo‘rlik qiling. Shuni esda tutingki, ayol durust holatda bo‘lsa, o‘zini yaxshi his qilsa, atrofidagilarining hammasi yaxshi bo‘ladi, uyda sog‘lom muhit hukm suradi.

Va agar siz o‘zingiz, ichki dunyongiz bilan uyg‘un yashasangiz, umr yo‘ldoshingiz bilan ham uyg‘un munosabatlarni saqlab qolish sizga osonroq bo‘ladi.

Mening fikrimcha, ayol uchun baxt – bu yakuniy maqsad emas, bu o‘zingda yaratish va rivojlantirishni o‘rganishing kerak bo‘lgan jarayon.



Uzbekistan's club

Amerika Qo‘shma Shtatlari trassalari bo‘ylab o‘n minglab mil yo‘l bosdik. Yuzlab gamburgerlar yeb, minglab gallon benzin yoqib, behisob tong va kunbotarlarni kuzatdik. Lekin eng muhimi – yo‘lda o‘nlab o‘zbekistonliklarni uchratdik. Aqlbovar qilmas, iste’dodli va qiziqarli o‘zbekistonliklarni. Har birining biz sizga aytib berishga oshiqayotgan o‘z hikoyalari bor.

Bularning bari – Uzbekistan‘s club’ning yangi, Amerika mavsumida mujassam. Tashkilotning ijodiy jamoasi AQSHda uch oy muddat bo‘lib, shtatlar kezib, yangi kontent tayyorladi. Biz Chikagodagi izg‘irinda muz qotdik. Boston ko‘rfazi qirg‘og‘ida Selsiy bo‘yicha -16 daraja qanday bo‘lishini tanamizda his qildik. Vashingtonda issiqdan qizib ketdik. Kanzasda yo‘l politsiyasi bilan tortishdik. Virjiniyada talabalar oshxonasida tushlik qildik. Manhet-ten tomlarida suratga oldik. Bormagan joyimiz qolmadi! O‘ylashimizcha, bu O‘zbekiston-Amerika munosabatlari tarixidagi eng yirik medialoyiha. Hamma yerda biz bilan ekotizimimiz a’zolari Ucell, Chevrolet Uzbekistan va Uzbekistan Airways bo’ldi. Ularning qo‘llovi bilangina biz shunaqangi ulkan maqsadli loyihamizni amalga oshirishga erishdik.







Yangi, Amerika mavsumimiz uchun biz “O‘zbekistonlik” nomli to‘liq metrajli hujjatli filmlarimizdan ikkita epizodini tayyorladik. Birinchisi Harvard universiteti doktoranti hamda AQSH sog‘liqni saqlash vazirligi xodimining hikoyalaridan so‘zlaydi. Ikkinchisida esa dunyodagi eng mashhur o‘zbekistonliklardan biri, pianinochi Behzod Abduraimov namoyish etiladi. Bu qahramonimizning ichki dunyosi shunchalik boy va yutuqlari shunchalik ko‘pki, biz unga alohida filmni bag‘ishladik. Uning premyerasi 2024-yil oxirida bo‘lib o‘tadi.

O‘ZBEKISTONLIK





CHIKAGO IZG‘IRINI











KANZAS POLITSIYASI

Boshlovchimiz, taniqli bloger Timur Alixanov AQSHning eng mashhur universitetlariga borib, u yerdagi vatandoshlarimiz bilan muloqot qildi. Shu muloqotlar natijasini YouTube'da va hamkor-telekanallarimiz – My5, UzReport TV, Zo‘r TV, Milliy TV, Renessans TV, Yoshlar va Mahalla TV efirlarida ko‘rsatiladigan “O‘zbekistonlik.Students” serialida tomosha qilish mumkin. Bu – serialning ikkinchi mavsumi. Yodingizda bo‘lsa, birinchisi Buyuk Britaniya universitetlariga bag‘ishlangan edi.







STUDENTS







Mart oyida biz televideniyeda, YouTube tarmog‘ida hamda barcha striming platformalarida yangi podkast-shoumizni tomoshabinlar e'tiboriga havola etgan edik. Manhettendagi studiyada taniqli vatandoshimiz, “O‘zbekistonlik” filmining birinchi epizodi qahramoni Asqarali Karimov mazmunli suhbatlar olib borish uchun AQSH va Kanadadan vatandoshlarimizni to‘plagan, ular migratsiya, oilaviy hayot, sun'iy intellekt va boshqa muammolar haqida gaplashgan edi. Shou ommalashib ketdi va biz bu formatni albatta davom ettiramiz. Ushbu milliy kontentni yaratishda bizni qo‘llab-quvvatlagani uchun hamkorimiz Uzum raqamli ekotizimga minnatdorlik bildiramiz.









PODKAST



Va albatta, qo‘lingizda ushlab turganingiz – Uzbekistan's club jurnalining yangi soni. U haqida ortiqcha gapirishning hojati yo‘q. Shunchaki uni o‘zingiz varaqlab ko‘ring, estetik va intellektual zavq oling.

Berlin, Parij va Londondan keyin “O‘zbekistonlik” xalqaro forumini Toshkentda o‘tkazishga qaror qildik. Forumlarimiz butun dunyoda vatandoshlarimiz uchun asosiy netvorking maydonchasi bo‘lib xizmat qilishda hamda klubimizning bosh missiyasi – Yer kurrasi bo‘ylab o‘zbekistonliklarni birlashtirishda davom etishiga umid qilamiz!

BIZ HAQIMIZDA

LONDON FORUM

O'ZBEKISTONLIK

2023





O‘ZBEKISTONLIK FORUM LONDON





2023

-yilning 18-oktabri. Buyuk Britaniya poytaxti va dunyoning moliya, madaniyat, san’at va ilm markazlaridan biri London. Grinvich Universitetiga qarashli Old Royal Naval College kampusi. XVIII asrda qurilgan, aqlni shoshirib qo’yuvchi Painted Hall. Soat 18:00.

Uzbekistan’s club ijodiy jamoasi o‘zining navbatdagi xalqaro tadbiri – O‘zbekistonlik forumida klub rezidentlari, vatandoshlar, o‘zbekistonlik talabalar hamda Londonning obro‘li shaxslari, ishbilarmonlar, O‘zbekistonning eng mashhur va auditoriyasi katta inflyuenserlarini jamladi. Forum uchun maxsus tayyorlangan nutqi bilan chiqish qilgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno Basso (Odile Renaud-Basso) forumning eng aziz mehmonlaridan bo‘ldi.





























Avvalroq Berlin va Parijda bo‘lgani kabi ushbu forum o‘zini O‘zbekistonga mansub sanaydigan barcha-barcha: vatandoshlar, ularning (gohida xorijlik bo‘lgan) oila a’zolari, jamiyatimiz rivojlanishi, madaniyatimiz hamda bizda biznes qilish imkoniyatiga qiziqqan investorlar uchun media personalar ishtirokidagi qimmatli networking voqeasiga aylandi.

2023-yilning bahorida Parijda bo‘lib o‘tgan forum “Generating Ideas”, ya’ni O‘zbekiston uchun g‘oyalar generatsiya qilishga bag‘ishlangan edi. Londonda esa biz natijalar, erishilgaan amaliy yutuqlar, avvalgi forumlarda oldinga surilgan g‘oyalarning hayotga tatbiq qilinayotganini namoyish etishni istadik. Uning dasturidan

- **Uzbekistan’s club jilokor jurnalining ilk soni;**

- **Klub master rezidentlari GulfCA Corp. asoschisi Alisher Jumanov hamda Uzbex.com platformasi hamda Business Diplomat dasturi asoschisi Mirshod Shokirovlarning “O‘zbekistonlik” filmlari va forumlaridan ilhomlanib yo‘lga qo‘ygan yangi loyihalari;**

- **“O‘zbekistonlik. Students” seriali;**

- **Uzbekistans.club onlayn integratsion platformasi to‘liq funksionali taqdimotlari o‘rin oldi.**

Va albatta, O‘zbekistonlik forumlarining doimiy an’anasiga ko‘ra, ayni nom bilan jamoatchilikka tanilgan, yuqori sifatli hujjatli filmning navbatdagi, 4-epizodi premyerasi ham bo‘lib o‘tdi. Ushbu epizod qahramonlari sifatida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki direktori Kamola Mahmudova hamda Kembrij universiteti biolog olimi, fan doktori Timur Yunusov namoyon bo‘ldi. Filmda bu safar qahramonlarning ta’sirchan va ilhombaxsh hikoyalari orqali ta’lim, inson kapitali, atrof-muhit masalalari, iqlim o‘zgarishi va global miqyosdagi ekologik migratsiya mavzulari ko‘tarildi.

Uzbekistan's club
MAGAZINE

ISTE'DODLAR JAMIYATINI QURIB



DOWNLOAD ON THE App Store
WATCH ON
GET IT ON Google Play
WWW.UZBEKISTANS.CLUB